

**A.J.OMONTURDIYEV
SH.I.ABDURAIMOVA**

**O`ZBEK NUTQI
MADANIYATI
VA USLUBIYATI**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

O'ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

O'ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

A.J.OMONTURDIYEV
SH.I.ABDURAIMOVA

O'ZBEK NUTQI MADANIYATI VA USLUBIYATI

(bakalavr va magistlar uchun uslubiy qo'llanma)

Toshkent — 2016

A.J.Omonturdiyev
Sh.I.Abduraimova

**O'ZBEK NUTQI MADANIYATI VA
USLUBIYATI**

Universitet o'quv-uslubiy kengashining 2016 yil, 27-maydagi yig'ilishining 10.2-sonli bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan

Mas'ul muharrir: **B.YO'LDOSHEV**, filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar: **B.UMURQULOV**, filologiya fanlari nomzodi, dotsent
B.MURTAZOYEV, filologiya fanlari nomzodi

SO'ZBOSHI

Keyingi yillarda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun talablarini amalga oshirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Chunonchi, turdosh oliy o'quv yurtlari olimlari tomonidan "O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari" bo'yicha talabalar uchun darslik, qo'llanma va ma'ruza matnlarining yaratilayotganligi fikrimizga dalil bo'la oladi. Bu kabi muqobil darslik va qo'llanmalarning chop etilishi, birinchidan, mualliflar o'rtasida hamfikirlik va ijodiy hamkorlikka olib kelsa, ikkinchidan, talabalarga tanlash ixtiyorini beradi.

Mazkur uslubiy qo'llanmani yaratishda, asosan, 1983 yilda yaratilgan A.Shomaqsudov va boshqalar tomonidan yaratilgan "O'zbek tili stilistikasi" (Toshkent: O'qituvchi, 1983) va N.Mahmudovning "O'qituvchi nutqi madaniyati" darsliklari (Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009) asos vazifasini o'tadi. Bundan tashqari, masalaning yechimi bilan bog'liq qator jahon va o'zbek olimlarining nazariy va amaliy fikrlari, qo'llanma hamda maqolalaridan ijodiy foydalanildi, mualliflar tomonidan rang-barang xarakterli faktlar kiritildi.

Bakalavr dasturidan kelib chiqib, ma'ruza materiallari qisqartirildi, soddaroq tarzda bayon etildi, shuningdek, badiiy asarlar, xalq og'zaki ijodi va ommaviy axborot vositalaridan ham misollar tanlandi.

Har bir mavzu reja asosida yoritildi va matn oxirida shu mavzuning asosiy mohiyatini aks ettiruvchi savollar hamda tayanch so'zlar berib borildi. Talaba ana shularga asoslanib amaliy mashg'ulotlarga tayyorlanishi nazarda tutildi.

Har bir talabaning qo'lida "ma'ruza matnlari" bo'lganligidan, uning ma'ruza yozish-yozmasligi ixtiyoriy bo'lib qoladi. Binobarin, mazkur qo'llanmaning maqsadi ham voiz bilan tinglovchining mehnatini yengillashtirish, kursni osonlik bilan o'zlashtirish, fanga nisbatan ijodiy munosabatda bo'lishni ta'minlashdan iboratdir.

KIRISH. "O'ZBEK NUTQI MADANIYATI VA USLUBIYATI ASOSLARI" KURSINI O'RGANISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI. NOTIQLIK SAN'ATI TARIXIDAN

Reja:

1. "O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari" kursining maqsad va vazifalari.
2. Nutq madaniyati va til madaniyati tushunchalari xususida.
3. Notiqlik san'ati tarixidan.
4. Nutq madaniyatining ta'rifi va tavsifi.

Tilshunoslikning fonetika, leksikologiya, orfografiya, orfoepiya, grammatika bo'limlari birmuncha mukammal ishlangan bo'lib, milliy madaniyatimizning ajralmas qismi bo'lgan nutq madaniyatini ham ana shu darajaga ko'tarish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Bugungi kunda o'zbek tili o'zbek davlatining fikr almashuv quroli sifatida xizmat qilmoqda. Respublikamizda davlat ishlari, o'qish-o'qitish, targ'ibot, tashviqot va tadqiqot ishlari shu tilda olib borilmoqda hamda yuksak saviyadagi badiiy asarlar yaratilmoqda. Darhaqiqat, o'zbek tili eng taraqqiy etgan tillardan biridir. Bu borada tilning asosiy ijodkori xalqning rolini kamsitmagan holda olimlarimizning, shoir va yozuvchilarimizning, davlat arboblari, pedagoglar va matbuot xodimlarining, kino, teatr san'ati ustalari hamda nashriyot xodimlarining xizmatlarini alohida ta'kidlash lozim.

Endigi vazifa umuminson madaniyatining tarkibiy qismi hisoblangan o'zbek nutq madaniyatini yuksak darajada egallamog'imiz kerak.

Nutq madaniyati ta'limot sifatida qadimgi Rim va Afinada shakllangan bo'lsa-da, unga qadar Misrda, Ossuriyada, Vavilon va Hindiston mamlakatlarida paydo bo'lgan. U paytda davlat arboblarning obro'-e'tiborlari va yuqori lavozimlarga ko'tarilishi ularning notiqlik san'atini qay darajada egallaganliklariga bog'liq bo'lgan. Notiqlik san'ati sarkardalik mahorati bilan barobar qadrlangan va bu ikki san'atning mohir egalarigina yuqori lavozimlarga saylangan. Notiqlik eramizdan oldingi V asrda Yunonistonda shakllangani haqida fikrlar bor.

Bizningcha, bu nisbiy gap. Sababi, eramizdan avvalgi VI asrdayoq Xorazmda Zaratushtra asos solgan otashparastlik dini hukmron

mafkura davrida "Avesto"ning targ'ib-u tashviqotchilari mug'lar (diniy voizlar) so'z va nutq qudratini namoyish etganlar. Olovxonalarda, otashkadalar atrofida jozib nutq va harakatlar orqali ular mahoratlarini ko'rsatishgan. "Avesto" ta'limoti g'oyalarini omma ongiga singdirishda jonbozlik qilishgani rost.

Yunon olimi Plutarx bu san'atni "hayotiy zarurat taqozosi", deb bilgan. Davlat ishlari, xalq majlislari, senat kengashlari, sud ishlari va yig'ilishlarda erkin nutqning o'z o'rne bo'lgan.

Notiqlik san'atining nazariyasidan iborat bo'lgan "Ritorika" ilmi vujudga kelgan. Bu borada Aristotel, Sitseronlarning xizmatlari katta bo'lgan. Sharqda esa Husayn Voiz Koshifiy, Voiz Muhammad Rafi', Voiz Qazviniy, Voiz Shirvoni, Qozi O'shiy kabi nutq ilmdonlari va amaliyotchilari notiqlikning turli shakllari paydo bo'lishiga hissa qo'shganlar. Diniy notiqlikdan tashqari, harbiy notiqlik, sud notiqligi, siyosiy notiqlik va epideyktik (tantanavor) notiqlik turlari yuzaga kelgan.

Rossiya tarixida notiqlik san'atiga e'tibor Petr I davrida kuchaydi. XVII-XVIII asrga kelib, rus notiqligida, asosan, 5 ta yunalishi mavjud edi:

- 1) yuqori doiradagi dvoryanlar orasida mavjud bo'lgan saroy notiqligi;
- 2) diniy notiqlik;
- 3) xalq notiqligi (xalq qo'zg'olonlari rahbarlari notiqligi);
- 4) harbiy notiqlik;
- 5) diplomatik notiqlik.

V.V.Lomonosovning xizmatlari tufayli rus tili nutq madaniyati borasida jiddiy nazariy fikrlar o'rtaga tashlandi, uning amaliy ahamiyati ko'rsatib berildi.

O'rta Osiyo madaniyati tarixida nutq madaniyatining paydo bo'lishi M.Koshg'ariy faoliyati bilan bog'liq. Bu davrda nutq odobi deb yuritilgan qoida va ko'rsatmalarda sodda va o'rinli gapirish, qisqa va mazmundor so'zlash, ezmalik va laqmalikni qoralash, keksalar yoki ustozlar oldida nutq odobini saqlash, to'g'ri, rost va dadil gapirish, yolg'onchilik, tilyog'malikni qoralash va boshqalar haqida so'z yuritiladi.

Bu borada, ayniqsa, Alisher Navoiy va uning ijodi haqida to'xtalish joiz. Navoiy notiqlik san'atini yuqori darajaga ko'taribgina qolmay, nutq madaniyati nazariyasi bilan ham shug'ullangan.

Chunonchi, "Mahbubul-qulub" asarining 27-bobini voizlikka (notiqlik san'atiga) bag'ishlagan. "Muhokamatul-lug'atayn" va "Majolisun-nafois" asarlari esa tilshunoslikning bevosita nazariy tomonlari bilan aloqador.

O'rta Osiyo notiqligining o'ziga xos tomoni — u o'z davrining manfaatlariga xizmat qilar edi. Bejiz bu davr notiqlik san'ati vakillari qissago'ylar, voizlar, qiroatxonlar, badihago'ylar, go'yandalar, maddohlar, masalگو'ylar deb atalmagan.

Ammo tilning yaratiluvchisi xalq ekanligini va uning, avvalo, xalqqa xizmat qilishi kerakligini anglab yetuvchilar hamma vaqt ham topiladi. Masalan, Navoiyning davlat arbobi sifatida xalq oldidagi chiqishlari, va'z-u pandnomalari va til haqidagi o'gitlarini esga olish kifoya.

Demak, O'rta Osiyo nutq madaniyati taraqqiyotining barcha davrlarida o'ziga xos talqin qilingan. Biroq bu sohaga e'tibor hozirgidek bo'lmagan, albatta.

Nutq madaniyati nima? Uslubiyat nima? Ana shu savollarga javob berish ushbu kursning mazmuni tashkil qiladi.

Nutq madaniyati, agar masalaga lisoniy nuqtai nazardan qaraladigan bo'lsa, bu, eng avvalo, nutqning to'g'riligidir. Ikkinchidan esa, u uslubiy jihatdan silliq va ravon bo'lishi kerak. Yaxshi nutq noaniqlikka, uzundan-uzoq jummalarga qarshi bo'lishi, qisqalik, aniqlik va soddalik uning o'lchovi bo'lishi lozim.

Nutq madaniyati muomalalari bilan shug'ullanish birinchi marta Praga lingvistik to'garagi vakillari tomonidan o'rtaga qo'yilgan. Bu sohadagi urinishlar XX asrning 20-30-yillarida, avval rus tilshunosligida, 60-70-yillarda o'zbek tilshunosligida boshlandi. Bu narsa 1969-yil Toshkentda bo'lib o'tgan I Respublika nutq madaniyati konferensiyasida ham ta'kidlangan.

O'zbek tilshunosligida keyingi yillarda nutq madaniyatiga doir ishlarda "nutq madaniyati"ga quyidagi ta'riflar berilgan: nutq madaniyati bir tilda to'g'ri so'zlash va yozishdir; nutq madaniyati fikrni sodda, aniq va tushunarli ifodalashdir; nutq madaniyati tilning tasviriy va obrazli vositalardan unumli o'z o'rnida foydalana bilishdir; nutq madaniyati nutqning ixchamligi, qisqaligi, aniqligi, milliyligidir; nutq madaniyati nutqning sodda, barcha uchun tushunarli bo'lishidir kabi. Bu ta'riflarning hammasi ham to'g'ri, biroq bular masalaning

amaliy tomoni bilan bog'liq bo'lib, o'z nazariy yechimini topishi kerak bo'lgan jihatlar ham mavjud.

"Bizning fikrimizcha, — deb yozadi E.A.Begmatov, — nutq madaniyati sohasi o'z o'rnini va fandagi mavqeyini to'la egallashi uchun u nazariy jihatdan asoslangan bo'lishi lozim. Birinchidan, bu tushunchaning til hodisasi va ilmiy muammo sifatida tarixi yoritilmog'i lozim. Ikkinchidan, nutq madaniyati sohasini o'rganuvchi asosiy obyekt bo'lgan til hodisasi aniqlanishi kerak. Uchinchidan, nutq madaniyatining ilmiy-tadqiqiy objekti bilan bog'liq muammolar belgilanishi lozim. To'rtinchidan esa, nutq madaniyatini o'rganish aspektlari lisoniy va nolisoniy chegaralanishi zarur".

Tilshunoslikda ko'pincha "til madaniyati" va "nutq madaniyati" tushunchalari farqlanadi, ammo ba'zan har ikkisi o'rnida birgina yo "til madaniyati", yo "nutq madaniyati" termini qo'llanadi. Hamonki, til va nutq hodisalarini farqlash zarur ekan, ular chindan ham alohida-alohida hodisalar ekan, albatta, til madaniyati va nutq madaniyatini ham farqlash maqsadga muvofiq. Til va nutq tushunchalarining mohiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, til madaniyati tilning "madaniylashganlik", adabiylashganlik, me'yorlashganlik darajasini, lug'at tarkibi, grammatik, semantik, stilistik jihatlardan rivojlanganlik, boylik darajasini, potensial ifoda imkoniyatlarining ko'lamdorligini ifoda etadi. Nutq madaniyati esa tildan bimalol, maqsadga o'ta muvofiq va ta'sirchan bir tarzda foydalana olishni ta'minlaydigan ko'nikma, malaka va bilimlarning jami demakdir. Boshqacha aytganda, nutq madaniyati tilda potensial mavjud bo'lgan xilma-xil ifoda shakllaridan fikr uchun eng uyg'unlarini tanlay bilish va shu asosda raso nutq tuza olish mahoratidir.

Tilning ijtimoiy hodisa ekanligi eng qadimgi davrlardan beri ma'lum, u kishilar o'rtasidagi o'zaro aloqa ehtiyojiga ko'ra yuzaga kelgan. Tabiiyki, tilning eng birinchi, balki bosh vazifasi uning kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi bo'lishidir. Shuni ham alohida aytmoq joizki, tabiat va jamiyatda inson tiliday murakkab, serqirra, serqatlam, servazifa, shakl va mazmun tanosibi tarang hodisa kamdan-kam topiladi.

Demak, til madaniyati tushunchasi nutq madaniyati sohasida til sistemasining o'zini, masalan, o'zbek adabiy tilining vosita va imkoniyatlarini, "madaniylashtirishni" ko'zda tutadi. Til madaniyati termini bilan ataluvchi tushuncha til sistemasining madaniylik

jarayoni, ya'ni tilning qanchalik ishlanganligini, me'yorlanganligini ko'rsatadi. Til madaniyati va nutq madaniyati tushunchalari tushunishni birinchi darajada bir-biridan farqlansa ham, aslida ularning o'zaro aloqasidan ajratib bo'lmaydi. Nutq lisoniy va nolisoniy madaniyatning o'zaro aloqasidagi murakkab jarayon bo'lib, u mantiq, mantiqiylik, mantiqiylik, mantiqiylik bilan ham bog'liq. Ammo nutq madaniyatini birinchi darajada ko'rsatib beradi. Har bir til, — deb yozadi A. N. Lebedev, — o'ziga xos madaniyatini o'zida aks

Etib borgan holda, ayniqsa, nutq madaniyati madaniyatining o'zining nazariy asoslarini, ya'ni, nutq madaniyatini o'z ichiga olishning alohida sohasi sifatida ko'rsatib beradi. Til madaniyatini me'yorlash, hamma madaniyatni o'z ichiga olishga kiritish, tilshunoslikning vazifasi bo'lib, u nutq madaniyatini, ayniqsa, madaniyatning ham xizmatlarini ko'rsatib beradi. Nutq madaniyatini o'z ichiga olish ma'lum ma'noda nazorat etadi. "Nutq madaniyatini asoslari va usullari" sohasining vazifasi — nutq madaniyatini tushunchasini har qanday ma'lumot berish bo'yicha ko'rsatib beradi, ayniqsa, har qanday obyekti va usullarini ko'rsatib berishdan iborat.

Savollar:

1. "O'zbek nutq madaniyati va uslubiyat asoslari" kursining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Nutq madaniyati va til madaniyati tushunchalarining farqi nimada?
3. Nutq madaniyatining ilk ko'rinishlari qayerda va qanday tarzda shakllangan?
4. Nutq madaniyatiga bag'ishlangan ilk anjuman qayerda va qachon bo'lib o'tgan?
5. Mashhur kishilarning nutq madaniyatiga oid fikrlaridan qaysilarini bilasiz?
6. Nutq madaniyatiga doir qaysi ta'riflarni eslay olasiz?

NUTQ MADANIYATI — LINGVISTIK SOHA. NUTQ MADANIYATI VA BOSHQA FANLAR

Reja:

1. Nutq madaniyati fanning qaysi tarmog'ida o'rganiladi?
2. Nutq madaniyati tushunchasi o'zida nimalarni qamraydi?
3. Nutq madaniyatining boshqa sohalar bilan aloqasi.
4. Nutq madaniyatiga doir kimlarning ilmiy ishlari bilan tanishsiz?
5. Nutq madaniyatining nazariy va amaliy jihatlari.

Nutq madaniyatining tilshunoslik fani, shuningdek, boshqa fanlar orasida tutgan o'rnini belgilash hozirgi kunda muhim masala bo'lib turibdi. R.A.Budagov nutq madaniyatini "filologik fan" deb ataydi. V.P.Petushkov esa uni bir qator fanlardan oziqlanib ish ko'ruvchi "yangi fan", deya tariflaydi.

Petushkov yozadi: "Nutq madaniyati fanning ilmiy tarmog'i sifatida tilshunoslik bilan bir qatorda estetika, odobshunoslik, ijtimoiy fanlar bilan yaqindan alohida bo'lgandagina o'zining mukammal ta'limotini yarata oladi va jamiyat uchun kutilgan salmoqli ta'sirni o'tkaza oladi, bir qator olimlar fikricha, nutq madaniyati tilshunoslikning maxsus bo'limidir".

Nutq madaniyatini "mustaqil fan" deb atash va uni maxsus o'qitish lozimligi g'oyasi o'zbek tilshunosligida ham paydo bo'ldi. Akademik G.A.Abdurahmonov yozadi: "Nutq madaniyati masalalari oliy maktablarda mustaqil fan sifatida o'qitilsa yaxshi bo'lardi. Faqat oliy maktablardagina emas, o'rta maktablarning yuqori sinfida ham nutq madaniyati me'yorlari maxsus o'qitilishi zarur. Bundan bir necha yil oldin yuqori sinflarida ona tili darsida nutq madaniyati me'yorli o'qitilar edi. Keyingi yillarda kimning aybi bilandir bu olib tashlandi".

O'zbek tili nutq madaniyati masalalariga bag'ishlab 1969-yili chaqirilgan I Respublika ilmiy konferensiyasining "qarori"da ushbu taklif bor edi: O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim ministrligidan pedogogika institutlari va universitetlarida stilistika va nutq madaniyati maxsus fan sifatida o'qitilishni plantirish so'ralsin".

Nutq madaniyatiga doir darslik va qo'llanmalar yaratilishda ba'zi urinishlar ham bo'lgan.

Nutq madaniyatini alohida fan sifatida baholashga bag'ishlangan fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkin: Bu masala atrofidagi fikrlar nutq madaniyatini maxsus mustaqil soha deb deb ta'riflash ancha ilgari ketdi. Ammo bu fanning asosiy vazifasi u o'rganuvchi masalalarni belgilash, uning nazariyasini ishlash singari muammolar talaygina. Ma'lumki, har qanday fan o'zining aniq nazariy-metodologik tayanch, darslik, qo'llanma va dasturlarga ega bo'lishi shart.

Tilshunos B.N.Golovinning: "Nutq madaniyatini nazariy yo'nalishda o'rganish, aslini aytganda, endigina boshlanmoqda", degan fikri ancha vaqt o'tganiga qaramay, hali o'z kuchini yo'qotgan emas. Nutq madaniyati deb yuritilayotgan tushunchani o'rganuvchi sohani qanday nomlash ham munozarali.

Xullas, nutq madaniyati (til madaniyati) alohida fanmi yoki tilshunoslik fanining maxsus bo'limimi, degan masala hanuz munozarali bo'lib qolaveradi. Y.M.Skrebnev nutq madaniyati mustaqil fan da'vosini qilar ekan, u o'zining mustaqil ilmiy taassurotlari, o'ziga mos tadqiqot usullar borligi isbotlanmog'i kerak, deydi.

Bunga o'xshash fikrlar bizda mavjud, biroq ular hali yetarli emas. Mazkur sohani nutq madaniyati deb nomlash ma'qul. Nutq madaniyati tilshunoslik fanining yangi mustaqil bo'limi sifatida o'zi o'rganuvchi til hodisasini, ya'ni tadqiqot obyektini aniqlashtirib olmog'i lozim. Shuningdek, nutq madaniyati sohasi nutq madaniyati, madaniy nutq tushunchalarining lisoniy va nolisoniy mezonni kabilar belgilanmog'i shart. Nutq madaniyati sohasi til madaniyati va nutq madaniyatining nazariy va amaliy muommolarini, yo'nalishlarini aniqlashi kerak. Ana shunda nutq madaniyatining yangi lisoniy soha sifatida aniq vazifalari va xususiyatlari oydinlashadi.

Nutq madaniyati sohasining maqsad va vazifalari tasavvur qilish uchun nisbatan normativ qo'llanma deb hisoblash mumkin bo'lgan asar — B.N.Golovinning "Nutq madaniyati asoslari" nomli kitobida keltirilgan fikrlarga to'xtalamiz.

Kitobda nutq madaniyati muammosining tushunilishi va o'rganilishi tarixi, bu masalaning nazariy tomonlari qisqacha yoritilgan, muallif nutq madaniyati, ya'ni madaniy nutq oldiga qo'yiladigan talablarga to'xtaladi. Madaniy nutqning asosiy mezonlari deb B.N.Golovin nutqning to'g'riligini, nutqning aniqligini, nutqning mantiqiyiligini, nutqning o'tkirligini va ta'sirchanligini, nutqning til vositalariga boy va xilma-xilligini, nutqning o'rinli bo'lishini tushunadi.

Qolaversa, til va nutq uslublari, ularning nutq madaniyatiga munosabati, ommaviy nutq va nutq madaniyati, nutq madaniyati bilan boshqa fanlar orasidagi munosabat kabilar haqida ham fikrlar bor.

O'zbek tilshunosligida ham, dastlab, bir qator maqola va risolalar yaratildi. Ulardan nutq madaniyatining juz'iy tomonlariga e'tibor berildi. Bu ishlarning mualliflari S.Ibrohimov, M.Sodiqov, Q.Xonazarov, R.Qo'ng'urov, E.Begmatov, A.Ahmedov, M.Sodiqov, K.Samadov, B.O'rinboev, U.Usmonov, X.Jalilov, S.Inomxo'jayev, B.Umurqulov va boshqalar.

Nutq madaniyati asoslari kursinining dastlabki programmasi samarqandlik olimlar tomonidan tuzilib, mazkur kursning o'quv qo'llanmasi ham yaratilgan. Nutq madaniyatining mustaqil ilmiy soha sifatida isbotlanishi quyidagi masalalar yechimiga bog'liq.

1. Nutq madaniyati sohasining aniq ilmiy tadqiqot obyekтини belgilash lozim.

2. Nutq madaniyati sohasi bilan tilshunoslikning ba'zi bo'limlari orasidagi munosabat va farqlarni aniqlash kerak. Masalan, orfografiya, imlo, punktuatsiya, alifbo, uslubiyat, bilan nutq madaniyatining munosabati kabilar.

3. Nutq madaniyatini o'rganuvchi muammolarning nazariy va amaliy yo'nalishlarini aniq belgilab olmoq kerak.

4. Nutq madaniyati qay darajada nazariya bilan va qay darajada tilning, nutqiy faoliyatning amaliy tomonlari bilan shug'ullanishi lozimligini aniqlash kerak.

5. Nutq madaniyati sohasining paydo bo'lish tarixi o'rganilishi lozim, shu bilan aloqador ishlar o'rganilishi natijasida sohaning ilmiy tarixi yaratilmog'i kerak.

6. Nutq madaniyati o'quv kursining mukammal dasturi tuzilishi lozim va unda nutq madaniyati ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy muammo va soha sifatida isbotlab berilmog'i lozim.

7. Nutq madaniyati sohasining hozirgi nazariy kursi, ya'ni normativ darsligi yaratilmog'i lozim.

8. Nutq madaniyati ilmiy-amaliy soha sifatida ham asoslanmog'i lozim. Nutq madaniyati bo'yicha xrestomatiyalar, amaliy mashg'ulotlar va mashqlarga doir qo'llanmalar yaratilishi kerak.

9. Nutq madaniyatining lisoniy mezonlarini belgilash lozim. Nutq madaniyatining mantiq, etika, estetika, psixologiya, pedagogika, sotsiologiya, shuningdek, psixolingvistika, etnolingvistika, pragmatologiya

vistika, ekstralingvistika, intralingvistika, neyrolingvistika, lingvoma-daniyat, korpus tilshunosligi kabi fan va fanning tarmoqlari bilan aloqasi madaniy nutqni belgilashda mantiqiylik, odoblilik va go'zallik, ruhiy hamda pedagogik mezonlarning tutgan o'rnini o'rganish muhim.

Xullas, nutq madaniyatining hozirgi davr tilshunosligida o'ziga xos ilmiy soha ekanligi, shubhasizdir. Endilikda mazkur sohaning aniq maqsadi va vazifalarini ilmiy ravishda belgilash va isbotlash tilshunoslarning navbatdagi muhim vazifasidir.

Savollar:

1. Nutq madaniyati fanning qaysi tarmog'ida o'rganiladi?
2. Nutq madaniyati tushunchasi o'zida nimalarni qamraydi?
3. Nutq madaniyati tilshunoslikning qaysi sohalari bilan aloqador?
4. Nutq madaniyatiga doir kimlarning ilmiy ishlari bilan tanishsiz?
5. Nutq madaniyati qay darajada nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi?

NUTQ MADANIYATI TUSHUNCHASI

Reja:

1. Nutq madaniyati mavjud nutqiy hodisa.
2. Adabiy til — madaniy til
3. Adabiy til nima?
4. Adabiy tilni qayta ishlash zaruriyati.
5. Xulosa.

Keyingi paytlarda tilshunoslikda nutq madaniyati va til madaniyati atamalari tez-tez tilga olinadigan bo'ldi.

Nutq madaniyati tushunchasining lisoniy, ilmiy-amaliy mundarijasi ancha izchil belgilangan. Nutq madaniyati deganda nimani anglatmoq kerak? Til madaniyati deyish to'g'rimi yoki nutq madaniyati deyish to'g'rimi? Yoki ba'zi tilshunoslar ta'kidalganidek, nutq odobi va so'z odobi atamalarini qo'llash ma'quldir.

Nutq madaniyati tushunchasi, uning asosiy mohiyati ushbu tushunchaning yuzaga kelish davri, tadqiqot obyekti boshqa lisoniy

kategoriyalaridan chegarasi hamda ish ko'rish tarzi haqida turli fikrlar mavjud. Bu muammolar nutq madaniyati o'zining nazariy asosiga to'la ega bo'lmay turib, hal bo'lmaydi.

Hozirgi kunda bu borada qator yutuqlar qo'lga kiritildi: nutq madaniyati ilmiy muammo sifatida tan olindi. Uni tadqiq qilish lozimligi qator olimlar tomonidan ma'qullandi. Tilshunos V.V.Veselskiy: "Hozirgi nutq madaniyati bo'yicha tadqiqot olib borishning zarurligini isbotlab o'tirish ortiqcha", deb yozgan edi.

Nutq madaniyatini alohida fan sifatida o'rganilishiga qarshilar ham bo'lgan. Sababi nutq madaniyati hodisasining tilshunoslikda yetarli darajada oydinlashmaganligi, qolaversa, u oddiy, aniq hodisa sifatida ko'rsatilmasdan, umumiy, mavhum tarzda talqin etib kelinyotganligidandir.

Nutq madaniyati tilshunoslikda o'z o'rnini topishi va mavqeiga ega bo'lishi uchun, u nazariy jihatdan asoslanishi, uning tekshirish obyekti, muammolari, ilmiy uslubi, shuningdek, amaliy ahamiyati singari masalalar aniqlashtirilishi, isbotlanishi kerak.

Ba'zi tilshunoslar nutq madaniyatini sof nazariy muammo deb, ba'zilari esa uni faqat amaliy muammo va soha sifatida talqin etishadi. Nutq madaniyati etikaviy kategoriya, psixologik yoki metodik-pedagogik muammo tarzida talqin etilgan hollari ham mavjud.

Nutq madaniyati deb yuritilayotgan hodisa bir kator murakkab, ammo mavjud til faktlari: ilmiy, ilmiy-amaliy tasavvurlar, aniq nutqiy jarayon ko'rinishlari va talablari bilan aloqadordir. Mana shunga ko'ra nutq madaniyatini:

- 1) tildagi mavjud til hodisasining nomi;
- 2) nutq madaniyati talablariga javob beruvchi aniq nutqiy jarayonning, ya'ni aniq nutqiy ko'rinishning nomi;
- 3) madaniy nutq va u haqda kishilar ongida mavjud bo'lgan aniq normativ tasavvurlarning nomi;
- 4) tilshunoslik ilmiy tadqiqot obyekti bo'lagi, nutq madaniyati va u haqda mavjud ilmiy tasavvur va muammolarning nomi;
- 5) nutq madaniyati muammosini tadqiq qilish bilan shug'ullanadigan tilshunoslik sohasining — nutq madaniyati sohasining nomi tarzida talqin qilish mumkin.

Aloqa quroli bo'lgan til qancha uzoq tarixga ega bo'lsa, unga munosabat, uni o'rganish, undan unumli foydalanish ham shuncha ko'lina. Til kishilar o'rtasida o'zaro aloqa, madaniy-ma'naviy zaruriyat,

jamo'a bo'lib birlashish va kurashish quroli bo'lib xizmat qilgan. Shu bois suhbatdoshlar barcha jabhada tilning soddaligini aniqligi, o'rnini bilan o'tkirligiga intilganlar.

Bunga erishish uchun qadimdayoq, tilning ko'pchilik uchun tushunarli bo'lgan, o'zaro suhbat uchun me'yorga aylangan vositalari tanlangan.

Qadimgi davrlarda nutq madaniyati kurtaklari ko'proq til odobi, nutq odobi tarzida nomoyon bo'lgan. Tilni egallash, uni hurmat qilish, undan o'rinli foydalanish kabilar, asosan, axloqiy me'yorlar orqali boshqarib turilgan. Bu xalq ijodi bo'lmish maqollarda, turkiy xalqlarning qadimiy yozma obidalarida, shuningdek, O'rta Osiyoda yashagan donishmandlar, yozuvchi va shoirlar asarlarining til, nutq, nutq odobiga oid bitilgan satrlarida yaxshi ifodalangan va bizgacha yetib kelgan.

Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otut-turk" asarida "Erdam boshi til", ya'ni odobning boshi til, degan maqol bor. Bunday fikrlarni "Qobusnoma"da, Ahmad Yugnakiyning "Hibat-ul haqoyiq", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarlarida ham ko'plab uchratish mumkin.

Til va nutq odobi, nutqiy madaniyat, nutq san'ati haqidagi fikrlar ayniqsa, Alisher Navoiy ijodida yuqori darajada aks etgan.

Demak, kishilarning to'g'ri, ta'sirchan, jo'yali, chiroyli va yaxshi gapirishga intilish uzoq tarixga ega ekan. Bu hozirga qadar an'ana sifatida qadrlanib, saqlanib qolgan.

Adabiy til paydo bo'lgunga qadar nutq madaniyatida amal qilgan talab va tasavvurlar adabiy til paydo bo'lgandan keyingi davrda, ya'ni til bilan bog'liq nutq madaniyati tasavvurlaridan farqlanadi. Chunki nutq madaniyati adabiy til va uning me'yorlari bilan bog'liq.

Adabiy til — xalq tilining, milliy tilning oliy shakli. Adabiy til xalq tili negizida yuzaga keladi. Adabiy tilning paydo bo'lishi va uni yaratishdan maqsad umumxalq aloqa vositasini yaratishdir. Adabiy tildan rasmiy davlat tili sifatida foydalanish bu — tilning ijtimoiy-siyosiy sohalar tili — rasmiy yozishmalar, muomala tili, idoraviy ishlar va xujjatlar tili, diplomatik aloqalar tili, radio va televideniye tili, og'zaki targ'ibot va tashviqot tili, ilmiy uslublar tili, badiiy adabiyot va sahna tili, maorif va madaniyat tili kabi yo'nalishlarda rivoj topishi uchun yo'l ochadi.

Adabiy til ijtimoiy-siyosiy va milliy-madaniy hayotning barcha sohalarida aloqa quroli darajasiga ko'tariladi. Bu hol adabiy tilni

madaniyat va taraqqiyot vositasiga, unga doir tasavvurlarni ifodalovchi, saqlovchi hamda kelajakka yetkazuvchi qurolga aylantiradi. Yuqorida keltirilgan adabiy tilga xos xususiyatlar uning og'zaki shakli uchun ham xosdir.

Adabiy til xalq tilining boshqa ko'rinishlariga nisbatan boy lug'aviy fondi, takomillashgan grammatik qurilishiga egaligi va uslubiy tarmoqlarning rivoj topganligi bilan farqlanadi. Shu usullar talabiga ko'ra sinonimik vositalar, lug'aviy variantlar, ko'p ma'noli so'zlar, xilma-xil ma'nolarni ifoda qiluvchi lug'aviy birliklar, so'z shakllari rivoj topadi.

Lisoniy me'yor (me'yor) tilning barcha ko'rinishlarida mavjud hodisadir. Lisoniy me'yor adabiy til uchun ham, lahja va shevalar, turli ijtimoiy jarayonlar uchun ham xosdir. Ammo adabiy til me'yorli tilgina emas, me'yorlangan – muayyan me'yorlarga solingan tildir. Me'yorlanganlik, me'yorlashga muhtojlik adabiy tilning xususiyatlaridandir. Adabiy tilning lug'aviy, so'z qo'llash, morfologik va sintaktik, imloviy va talaffuz me'yorlari mavjud. Adabiy til doimo o'z me'yorlarining shakllanishi, turg'un holatga kelishiga intiladi. Boshboshdoqlik adabiy tilga ziddir.

Adabiy tilning qabul qilingan, qoidalashtirilgan me'yorlariga barcha joyda, barcha kishilar tomonidan bir xilda amal qilinadi. Chunki adabiy til milliy tilning namunali va ishlangan shakli sifatida qabul qilingan va unga bo'ysunish majburiydir.

Ba'zan adabiy tilni bir yoqlama va noto'g'ri tushunish va tushuntirish hollariga duch kelamiz. Bunda adabiy til deb faqatgina gazeta tili, ilmiy asarlar tili va badiiy adabiyot tili ko'zda tutiladi. Adabiy tilning og'zaki shakli hisobga olinmaydi. Yoki adabiy til yozma nutq orqaligina to'la saqlanadi, qolipga solinadi, degan mulohazalar ham bor. Yuqoridagi fikrlardan adabiy tilning og'zaki shakli me'yorlangan emas ekan-da, adabiy tilning og'zaki shaklida adabiy til me'yorlariga to'liq rioya qilish shart emas ekan-da, degan noto'g'ri fikrga kelish mumkin.

Adabiy tilni me'yorlash haqida gap borar ekan, ba'zi olimlar, xatto adabiy til doirasida bir xil, yagona talaffuzga erishib bo'lmaydi, uning yagona namunasi yo'q deb hisoblaydilar. Bu ba'zi tadqiqotchilarning notiqlik ma'daniyati uchun yagona retsept yo'q, nutqning qanday bo'lishi aniq sharoit belgilaydi, degan fikrlarni eslatadi.

Bu fikrlar bir yoqlama bo'lib, og'zaki nutq madaniyati rivojiga putur yetkazadi.

Nutq madaniyatini, ya'ni to'g'ri so'zlash va yozishni talab qilish uchun shularga vosita bo'la oluvchi qurol kerak. Bu qurol — adabiy tildir. Adabiy tilsiz nutq madaniyatini tasavvur qilib bo'lmaydi. Adabiy til nutq madaniyatining to'g'ri so'zlash va yozishning o'lchovi, mezonidir. Ammo adabiy til tayyor hodisa emas. U aslida nutq madaniyatining tarkibiy qismi, o'zi ham madaniylikka intiladi. Shu bois ham "Praga lingvistik to'garagi" maktabi vakillari "Adabiy til deganda, biz ongli ravishda qayta ishlashni tushunamiz", deydilar.

Adabiy tilni qayta ishlashning nima zaruriyati bor?

1. Adabiy til paydo bo'ladi.

2. Adabiy til me'yorlari takomillashadi va silliqlashadi.

3. Bu me'yorlar kishilar tomonidan tan olinadi, kundalik ehtiyojiga aylanadi.

Xo'sh, adabiy tilni qayta ishlash deganda nimani tushunamiz, uning qaysi tomonlari qayta ishlanadi?

Masalan, o'zbek yozuvi 1929-yilga qadar an'anaviy arab alifbosi asosida bir necha bor takomillashtirildi, 1929-yilda lotin alifbosi asosidagi, 1940-yil 8-mayda rus grafikasi asosidagi, 1993-yil 2-3-sentabrda "Lotin alifbosiga asoslarga o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi, 1995-yil 5-6-mayda esa joriy qarorga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan imlo qoidalari yaratildi, imlo lug'atlari tuzildi, qayta ishlandi va b. O'zbek adabiy tilining lug'aviy me'yorlari ham qayta ishlandi: ikki tilli, ko'p tilli lug'atlar tuzildi, terminologik lug'atlar ham muayyan qoidalar ostiga olindi.

O'zbek adabiy tilini ongli ishlash, me'yorlarining takomilida 1920 – 1940 yillarda ijod qilgan yetakchi o'zbek olimlari, yozuvchi, shoir va jurnalistlarining, shuningdek, radioning, ayniqsa, tilshunoslarning xizmatlari katta. Uning to'g'ri yozish va to'g'ri so'zlash uchun lozim bo'ladigan til vositalari takomillashdi, silliqlashdi. B.Tavranek yozadi: "Adabiy tilni zikr etilgandek, ongli ishlashning natijasi madaniy-lashtirilgan til va bu tildan amalda foydalanuvchi shaxslarning nutqiy faoliyati til madaniyatidir".

Demak, tilni ongli ravishda qayta ishlash natijasida madaniy til yuzaga keladi. Bu ma'daniy til — adabiy tildir. Madaniy adabiy til uchun olib boriladigan faoliyat — adabiy til madaniyati uchun harakatdir. Shuning uchun adabiy til, madaniy til deb ataladi.

Adabiy tilning me'yorlari, bu me'yorlarga oid qoidalar va ko'rsatkichlar doimo va yuz foiz to'g'ri bo'lavermasligi, ularning aytirlari nutqiy faoliyatga singmasligi mumkin. Bu holat tilning barcha ko'rinishlarida mavjud. Ular, ayniqsa, alifboda, yozuv va talaffuzda, qisman, so'z qo'llash sohasida ko'zga tashlanadi.

Ko'rinadiki, adabiy til me'yorlaridagi ba'zi nuqson va kamchiliklarni vaqti-vaqti bilan qayta ko'rish va ilmiy baholashga to'g'ri keladi.

Demak, adabiy til madaniyati uch hodisa (tushunchani) o'z ichiga qamraydi:

1. Adabiy tilni ongli ishlash (me'yorlash).
2. Adabiy tilning ishlangan, ya'ni madaniylashgan holati.
3. Madaniy adabiy til me'yorlaridagi ba'zi holatlarni yanada qayta ishlash va takomillashtirish.

Yuqoridagi ikki hodisaning mavjudligi:

1. Til madaniyati, ya'ni adabiy til madaniyati.
2. Madaniy adabiy tildan to'g'ri foydalanish bilan bog'liq bo'lgan nutq madaniyati namoyon bo'ladi. Adabiy til — madaniy til.

Savollar:

1. Nutqiy faoliyat va nutqiy malaka deganda nimani tushunasiz?
2. Adabiy til deganda nimani tushunasiz?
3. Nutq madaniyatining asosi nimalarda namoyon bo'ladi?
4. Adabiy tilning normativligi deganda nimani tushunasiz?

NUTQ MADANIYATI — NUTQIY FAOLIYAT VA NUTQIY MALAKADIR

Reja:

1. Nutqiy faoliyat va nutqiy malaka.
2. Yozma va og'zaki nutq madaniyati xususida.
3. Oddiy so'zlashuv nutqi va adabiy so'zlashuv nutqi.
4. Og'zaki nutqning vazifaviy ko'rinishlari.
5. Xulosa.

Nutq madaniyati tushunchasi real hodisa ekanligi, avvalo, uning adabiy til va adabiy madaniyati bilan bog'liqligida bo'lsa, qolaversa, kishilarning kundalik nutqiy faoliyati bilan aloqadorligidandir. Ta'kidlash kerakki, adabiy tilning mavjudligi nutq madaniyatini tashkil etavermaydi.

Adabiy til va uning me'yorlari, avvalo, o'rta va oliy maktab ta'lim orqali, qolaversa, oiladagi tarbiya orqali o'zlashtiriladi. Mustaqil shug'ullanish badiiy adabiyot, gazeta va jurnallarni o'qish, radio va televideniye kabilar adabiy til me'yorlarini egallashda muhim. Adabiy til madaniyatini egallashda tilga e'tibor katta ahamiyatga ega. Uning shunchaki qiziqish yoki yo'l-yo'lakay o'rganib bo'lmaydi.

Adabiy til va u bilan bog'liq bo'lgan adabiy til madaniyati — bu avvalo, nutqiy ko'nikma, nutqiy malakadir. Adabiy nutq malakasiga adabiy me'yorlarini egallash orqali erishiladi. O'rta maktab ta'limida adabiy nutq malakasi, nutqiy ko'nikma, yozma nutq ko'nikmasi, og'zaki nutq ko'nikmasi, nutq madaniyati malakasi kabi tushunchalar bor. Bularning barchasi adabiy til madaniyatini egallash bilan bog'liq. Nutq madaniyati malakasi shunchaki bilib, anglab olingan bilim yoki nazariya emas, balki kishining o'z nutqiy faoliyatida amal qilishga qo'llashga erisha olgan ko'nikmasidir.

Adabiy tilning nutqiy hayotga singmagan, nutqiy talabga javob berolmay bera olmagan vositalari, qoidalari eskiradi, iste'moldan chiqadi. Bunga o'zbek tilining imlo qoidalaridan, lug'aviy va morfologik me'yorlaridan misollar mavjud.

Demak, adabiy til doimiy g'amxo'rlikka muhtoj. Shunday kilib adabiy til madaniyatini egallash — nutq madaniyati ko'nikmasini hosil qilishdir.

Adabiy til va uning me'yorlariga rioya qilish hamma uchun umumiy va majburiydir. Undan har kim o'zicha foydalanishi va uning o'zgartirishi mumkin emas. Adabiy til o'zining shu xususiyatlari bilan mavjud shevalardan farq qiladi.

Adabiy tilning yozma va og'zaki shakllari mavjud. Har ikkala nutq shakli adabiy tilga tayanadi. Biroq yozma nutq amal qiladigan punktuatsion, imloviy me'yorlar og'zaki nutqda, og'zaki nutq amal qiladigan talaffuz me'yorlari, intonatsion me'yorlar yozma nutqda yo'q.

Shu bois nutq madaniyati sohasida yozma nutq madaniyati va og'zaki nutq madaniyati kabi tushunchalar mavjud.

Yozma nutq doirasiga ilmiy nutq, rasmiy nutq, publitsistik nutq qisman, adabiy nutq, shuningdek, radio-televideniye uchun tuzilgan yozma matnlar tili kiradi.

Og'zaki nutq dastlab 2 tipga ajraladi:

1) oddiy so'zlashuv nutqi; 2) adabiy so'zlashuv nutqi.

Og'zaki so'zlashuv nutqi o'zbek tilida mavjud bo'lgan og'zaki nutq ko'rinishlaridan biridir. Masalan, turli shevalar tili va dialektal nutq ko'rinishlaridan iborat kundalik so'zlashuv. Og'zaki nutq so'zlashuvning til birlashtirish adabiy til tashkil etmaydi. Shu bois undan nutq maqsadlari talab qilinmaydi.

Adabiy so'zlashuv nutqi adabiy tilning og'zaki nutq doirasidagi vazifalaridan yozma talab keladi. Boshqacha aytganda, adabiy so'zlashuv nutqi — adabiy til maqsadlariga, ya'ni adabiy til me'yorlariga amal qilish uchun zarurdir. Ammo adabiy tilda so'zlash adabiy tilda yozishga nisbatan ancha qiyin. Buning sabablari: 1) og'zaki nutq va sheva tilining farqi bo'ladi; 2) og'zaki nutqda yozma nutqdagi kabi o'ylab ish tutish imkoniyati kam. Chunki og'zaki nutq yozma nutqqa nisbatan tezlar (avtomatik) tarzda bo'ladi; 3) og'zaki nutqning o'ziga xos grammatik tuzilishi, qurilish tartibi mavjud (gap bo'laklarining tushib qolishi, o'rin almashishi, keraksiz unsurlarning, takrorlarning bo'lishi va b.); 4) og'zaki nutqda talaffuz, ohang, imo-ishora vositalari muhim rol o'ynaydi; 5) og'zaki nutqning yuzaga chiqishi so'zlovchining kayfiyatiga, nutq so'zlanayotgan vaziyatga, so'zlovchi nutqiy a'zolarining me'yori va sog'lomligiga bog'liq; 6) og'zaki nutq me'yorlarining barcha jihatlarini payqash, yozib olish, o'rganish va o'rgatish ancha qiyin; 7) og'zaki nutq bir butun hodisa sifatida cheksiz va son-sanoqsiz individual faoliyatdir; 8) og'zaki nutqning lisoniy xususiyatlari fanda yozma nutqqa nisbatan kam o'rganilgan; 9) og'zaki nutqni me'yorlash ishlariga e'tibor kam berilgan; 10) og'zaki nutq jarayonida kishi yozayotganidek e'tibor beravermaydi.

Og'zaki nutqning quyidagi vazifaviy ko'rinishlari mavjud:

1. **Kundalik adabiy so'zlashuv nutqi ko'rinishlari.** Bunga adabiy tilda gapiruvchi shaxslarning kundalik so'zlashuv nutqini kiritish mumkin.

2. **Lektor nutqi.** Bunga o'rta va oliy maktab o'qituvchilari, targ'ibotchi lektorlar va olimlarning ma'ruzalari, chiqishlari kiradi. Bu tur, asosan, monologik nutq xarakterida bo'ladi.

3. **Radio va televideniye nutqi (tili).** Bunga radio va televideniye orqali so'zlangan nutqlar kiradi. Bu nutq asosini diktorlar, radio va televideniye kommentator va sharhlovchilari nutqi tashkil etadi.

4. **Sahna nutqi.** Og'zaki nutqning alohida turi sahna nutqidir. Bunda asarning til xususiyatlarini saqlagan holda umum tushunarlilik tilda ekanligi, dialogik xarakterga egaligi bilan ham farqlanadi.

Nutqiy turlarni ba'zan ijtimoiy tabaqalar va guruhlar tili nuqtai nazaridan nomlash ham mavjud: o'qituvchilar nutqi, o'quvchilar nutqi, bola nutqi kabi.

Yuqorida ta'kidlanganlarning barchasi nutq madaniyatining asosiy talablariga bo'ysunadi. Biroq ularning asosiy lisoniy xususiyatlari, ular amal qiluvchi adabiy me'yorlar, yo'l qo'yilayotgan ba'zi nuqsonlarning obyektiv-subyektiv sabablari o'zbek tilshunosligida deyarli o'rganilgan emas. Bu masalalarga doir ba'zi kamchiliklar tanqid qilinadi-yu, lekin bu nuqsonlarni tuzatish yo'llari asosli ravishda ko'rsatib berilmaydi.

Tayanch so'zlar

nutq malakasi, nutqiy ko'nikma, yozma nutq ko'nikmasi, og'zaki nutq ko'nikmasi, nutq madaniyati malakasi, yozma nutq, og'zaki nutq, kundalik adabiy so'zlashuv nutqi, lektor nutqi, radio va televideniye nutqi, sahna nutqi.

Savollar:

1. Yozma nutq madaniyati nima?
2. Og'zaki nutq madaniyati-chi, ularning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Oddiy so'zlashuv nutqi va adabiy so'zlashuv nutqining farqi nimada?
4. Og'zaki nutqning qanday vazifaviy ko'rinishlari bor?

ADABIY ME'YOR VA NUTQ MADANIYATI

Reja:

1. Adabiy me'yor nima haqida tushuncha.
2. Umumiy va xususiy me'yor.
3. O'zbek tilining xususiy me'yorlari.
4. O'zbek tilining aniq me'yorlari.
5. Xulosa.

Til me'yori (normasi)ni ilmiy nuqtai nazardan o'rganish o'zbek tilining nutq madaniyati muammolarini nazariy jihatdan asoslashning muhim shartidir.

Adabiy tilning rivojlanish qonuniyatlarini, adabiy til me'yorlarining umumiy holatini, undagi turg'un va noturg'un hodisalarni chuqurroq tekshirmay turib adabiy tilning nutq madaniyati haqida gapirish, adabiy-normativ tavsiyalar berish aslo mumkin emas.

Usonly birikmalarning to'g'ri yoki noto'g'ri qo'llanayotganligini belgilovchi mezon — o'lchov bu — adabiy til me'yoridir. Me'yor nima? deganda, "Til me'yori" kitobining muallifi V.A.Itskovich yozadi: "Me'yor bu — so'zning ma'lum paytda, ma'lum jamoada obyekt mavjud bo'lgan ma'nosi, uning fonetik tuzilishidir, so'z yasash va so'z o'zgartirish qoliplari hamda ularning real ko'rinishlari, sintaktik birliklar, so'z birikmalari, gaplarning real ko'rinishlaridir".

S.I.Olegov fikricha, me'yor bu — ijtimoiy jarayonda va birga mavjud bo'lgan, bor bo'lgan, yangi paydo bo'lgan yoki o'tmishning kam o'rganilgan til unsurlarini (lug'aviy, talaffuz, morfologik, sintaktik kabi) tanlashning natijasi sifatida shakllangan, jamiyatga xizmat qiladigan foydali (to'g'ri, ma'qul) til vositalari yigindisidir, keng ma'noda, bu unsurlarni baholashdir.

Demak, me'yor deganda til unsurlarining xalq o'rtasida ko'pchilikka ma'qul bo'lgan variantini qo'llash tushuniladi. Me'yor til taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan turg'unlik kasb etuvchi uzoq muddat yashovchi hodisa. Biroq bu o'zgarmas hodisa ekan, degan xulosaga kelmaslik kerak. Qiyoslang: jumhuriyat//respublika; uohiya//rayon//tuman; kulliyot//fakultet; dorilfunun//institut; Internatsional//baynalminal; partiya//firqa; muxtoriyat//avtonomiya yoki domla so'zining diniy va dunyoviy ma'nolari va b.

Odatda, me'yorni faqat adabiy tilga nisbat berib tushuniladi.

"Me'yor hodisasi, — deydi V.A.Itskovich, — tilning barcha yashash shakllari uchun xosdir. Dialektizmlar, sheva unsurlari, jargon va argolar, kasb-hunarga oid ko'pgina so'zlar xalqning hammasiga tushunarli bo'lmasa ham, o'sha sheva va lahjalarda so'zlashuvchi kishilar yoki ma'lum ijtimoiy guruh uchun tushunarlidir."

Masalan, **do'ppi**ni Samarqandda *qalpoq*, Xorazmda *takyo* Buxorada *kalapo'sh*, Farg'ona va Toshkentda *do'ppi* deyish — me'yor. Tilshunolar o'zbek tili doirasidagi me'yornlarni ikkiga bo'lib o'rganishni tavsiya qiladi: 1. Tilning umumme'yori yoki **umumiy me'yor**. 2. Tilning xususiy me'yornlari yoki **xususiy me'yor**.

1. Umumiy me'yor ma'lum tilning barcha ko'rinishlarida qo'llanayotgan me'yornlar yig'indisidan iborat.

2. Xususiy me'yor — umumiy me'yorning nutq ko'rinishlari shakllaridagi, til shakllaridagi aniq ko'rinishidir. O'zbek tilining quyidagi xususiy me'yornlari haqida to'xtalamiz:

1. O'zbek adabiy tili me'yori.

2. O'zbek lahja va shevalar me'yori (dialektal me'yor).

3. O'zbek so'zlashuv nutqi me'yori.

O'zbek tilining ijtimoiy tarmoqlari, ya'ni ijtimoiy dialektlar, "ijtimoiy argolar" me'yori (jargonlar, professional nutq ko'rinishlari argoning boshqa ko'rinishlariga xos me'yornlar).

"Til me'yori, — deb ta'kidlaydi A.Skvorsev, — fan tomonidan ishlab chiqilmaydi, ular obyektiv ravishda mavjud bo'ladi. Lug'atlarda, grammatikalarda, umuman, til haqidagi fanda me'yornlashgunga qadar paydo bo'ladi."

Xullas, normativlik adabiy tilning yashash shartlaridan biridir. Adabiy tilda mavjud bo'lgan barcha hodisalar me'yorga buysunishi kerak. Ana shu qonun-qoidalarining buzilishi, unga amal qilmaslik tilda me'yorning buzilishi, unga amal qilmaslik deb baholanadi.

Endi, o'zbek tilining aniq me'yornlari haqida gaplashamiz. Ular quyidagicha tasnif qilinadi: 1) leksik-semantik me'yornlar — leksik (so'z qo'llash) me'yornlari; 2) talaffuz (orfoepik) me'yornlar; 3) aksentologik (so'z va formalarda urg'uning to'g'riligi) me'yornlari; 4) fonetik me'yornlar; 5) so'z yasalishi me'yornlari; 6) grammatik (morfologik va sintaktik) me'yornlar; 7) imloviy me'yornlar; 8) yozuv (grafika) me'yornlari; 9) punktuatsion me'yornlar; 10) uslubiy me'yornlar.

Fonetik me'yor: o'zbek lotin alifbosi uchun 6 unli, 23 undosh, 1 bog'liq — me'yor, Masalan, *jurnal* va *jo'ra* so'zlari uchun bitta **j** harfining oltinchi, **q** (qachon **t**, qachon **ts**, bu ham qat'iy emas), shuningdek, ko'pincha birlitma (ligatura)lardagi (**sn, cn, ng**), **g', o'** harflari va apostrof (') yoki *mo'tadil, mo'jaz, mo'jiza* kabi so'zlarning yozilishi bilan bog'liq muammolar.

Talaffuz me'yori. Mazkur masala bilan bog'liq maxsus lug'atlar tuzilishi, ularda til egalarining yoshi, jinsi, dunyoqarashi, fikrlash darajasi, fiziologik takomili kabilar va, albatta, o'qitishmalarining milliy tilga singish darajasi inobatga olinishi lozim.

Ha'zan yoshlar yoki biron-bir xorijiy tilni mukammal biladiganlar nutqida muayyan so'zni boshqa til talaffuz taomiliga moslab aytish tabii nuqsonlar ham ko'zga tashlanadi. Masalan, *yanvar* so'zini **yinvar**, *Yaponiya* so'zini **Yiponiya**, *dekan* so'zini **dikan** tarzida begona aksent bilan talaffuz qilish o'zbekcha talaffuz me'yoriga ziddir.

Grammatik me'yor. *-ning*, va *-ni* qo'shimchalarining farqlanmasligi: Mariyamxonim: "Dod, zolimni dastidan". Qaratqich kelishligi (ning)da bo'lishi kerak. Yana qiyoslang: *Direktorni* xonasida ko'rdim//*Direktorning* xonasida ko'rdim. Yoki sifat yasovchi *-li* va ot yasovchi *-lik* farqlanishi kerak: *chelakli yigit* — qo'lida chelagi bor, *chelaklik yigit* — o'rin, joy, makon ma'nosida yoki *shoh qulatildi* — taxtdan; *shox qulatildi* — daraxt tanasidan kabilar. *Suvli//suvlik, tog'li//tog'lik* so'zlarida ham yuqoridagi holatni kuzatish mumkin.

O'zbek tilining o'ziga xos so'z yasalishi me'yori mavjud. Har qanday yasaladigan so'z shu me'yori doirasida bo'lmog'i shart. Bu me'yoriarga amal qilinmasdan yasalgan so'z tilning lug'at tarkibidan o'rin ololmaydi. Masalan, *-gich* (*-g'ich, -qich, -kich*) qo'shimchasi faol yasovchi qo'shimchalardan bo'lib, tilimizdagi mavjud so'z yasalish me'yoriyalariga ko'ra fe'lga ko'shiladi va narsa-qurol, ya'ni fe'ldan anglashilgan harakatni bajaruvchi qurol otini yasaydi: *so'z gich, tekislagich, chizg'ich, qirg'ich, qisqich, ko'rsatkich* kabi. Bu qo'shimcha ot turkumidagi so'zga mutlaqo qo'shila olmaydi.

Shuningdek, inversiya hodisasining me'yordan oshib ketishida ham gramatik me'yorga putur yetadi: *Otadek farzandiga kim kuyar axir. Mana kim bo'lsa, deydi farzandim inson* va b.

Demak, so'zlarning morfologik shakli va ularning nutqda qo'llanishini tartibga soluvchi qoidalar morfologik me'yori,

so'zlarning birikish yo'llari, so'z birikmasi va gap tuzilishi bilan bog'liq qoidalar esa sintaktik me'yorlar deb yuritilar ekan.

Uslubiy me'yorlar nutq madaniyatining cho'qqisi hisoblanadi, bu me'yorlarni mukammal bilish va ulardan erkin foydalana olish madaniy nutq tarbiyasining pirovard maqsadlaridandir.

Miqdor ifodalovchi so'zlarni qo'llashda keng tarqalgan yana bir nuqson shuki, taxminiy miqdorni umumlashtiruvchi "...dan ortiq", "...ga yaqin" shaklidagi konstruksiyalar tarkibidagi sonlar ko'pincha noto'g'ri tanlanadi. *O'ndan, yigirmadan..., yuzdan..., mingdan ortiq* yoki *o'nga, yigirmaga..., yuzga..., mingga yaqin* kabi holatlarda grammatika ham, mantiq ham sog'lom, chunki yaxlitlash, umumlashtirish aniq ko'rinib turibdi. Lekin *o'n uchdan ortiq, o'n to'qqizga yaqin, yettidan ortiq, o'ttiz oltiga yaqin* kabi ifodalar mantiq u yoqda tursin, hatto grammatikada ham kulgini qistatishi tabiiy. Axir, "...dan ortiq", "...ga yaqin" bo'lgandan keyin, ortadigan yoki yaqinlashadigan etalon — me'yor muayyan yaxlit bir miqdor bo'lishi shart-ku! *Yetti, to'qqiz, o'n uch, o'n to'qqiz* va h.k.gacha sanagan odam davomini ham sanab qo'ya qolmaydimi?

Savollar:

1. Adabiy me'yor nima?
2. Umumiy va xususiy me'yor deganda nimani tushunasiz?
3. O'zbek tilining qanday xususiy me'yorlarini bilasiz?
4. O'zbek tilining aniq me'yorlari qaysilar?

NUTQNING ASOSIY SIFATLARI

Reja:

1. Nutqning aloqaviy sifatlari.
2. Nutqning to'g'riligi.
3. Nutqning sofligi (tozaligi).
4. Nutqning aniqligi nima.
5. Nutqning mantiqiyligi.
6. Nutqning ta'sirchanligi.
7. Nutqning obrazliligi.
8. Nutqning tushunariligi.
9. Nutqning maqsadga muvofiqligi.
10. Nutqning va boyligi.
11. Xulosa.

Nutq, ta'kidlanganidek, so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi ko'rinishi bo'lib, u faqatgina lisoniy hodisa sanalmasdan, balki ham ruhiyat, ham nafosat hodisasi hamdir. Uning oldiga ma'lum talablar qo'yiladi. Bu talablar nutqning mantiq jihatdan to'g'ri, aniq, chiroyli, maqsadga muvofiq bo'lishidir. Bular nutqning asosiy sifatlari, xususiyatlaridir.

Sitseronning fikricha, nutq uchun aniqlik va soflik juda zarur. Biroq notiq tinglovchilarni o'ziga jalb qilish uchun bu sifatlarning kifoyasi emas. Nutq jozibador bo'lishi ham kerak.

Notiq Dionis nutqda maqsadga muvofiqlikni birinchi o'ringa qo'yadi.

Xullas, kadimgi Rim notiqdori bu masalaga alohida e'tibor qaratganlar.

Ta'kidlash lozimki, nutq ma'lum sharoitlarda (joy, vaqt, mavzu) amalga oshiriladi.

Demak, nutqning aloqaviy (kommunikativ) sifati deganda, quyidagi holatlarni nazarda tutmoq kerak: nutqning to'g'riligi, sofligi (tozaligi), aniqligi, mantiqiyligi, ta'sirchanligi, obrazliligi, tushunariligi, maqsadga muvofiqligi, boyligi.

Nutqning to'g'riligi. Nutqning to'g'ri bo'lishi bu uning bosh aloqaviy sifati sanaladi va yozuvchi hamda o'quvchining bir-birlarini oson tushunishlarini ta'minlaydi. Agar nutq to'g'ri bo'lmasa, u aniq ham, maqsadga muvofiq ham, mantiqiy ham bo'lmaydi. Nutqning

to'g'riligi esa uning adabiy til me'yorlariga muvofiq kelishidir. U xususan urg'u va grammatik me'yor asosiy vazifani bajaradi. Masalan, maktabimizdagilardan yoki ma'noning o'zgarib ketishiga olib keladigan omillar: olma — olma, hozir — hozir, yigitcha — yigitcha, yangi — yangi kabi.

Mantiqiy (logik) urg'uning ham ma'no farqlashda xizmatlari katta. Masalan, **Karim** kecha qishloqdan keldi//Karim **kech** qishloqdan keldi//Karim kecha **qishloqdan** keldi. Mantiqiy urg'uda to'g'ri foydalanilmasa, ma'no noto'g'ri anglashilishi mumkin: onasiz bola o'ynamas, katta mevali daraxt kabi.

Demak, ohang tufayli so'zlarning ma'no ifodalash imkoniyatlarini kengayadi. Birgina **keling** so'zining ohang yordamida ham samimiya ham piching, ham masharalash, ham norozilik, qirralarini nomoyon qilsa bo'ladi.

Grammatik me'yorlarga rioya qilish deganda gap tuzish qoidalaridan to'g'ri foydalanish, o'zak va qo'shma gaplar o'rtasidagi bog'lanishning tabiiyligi, ikkinchi darajali bo'laklarning ularga bog'lanish qonuniyatlari kabilar e'tiborga olinishi kerak.

Nutqning aniqligi. Aniqlik ham nutqning asosiy sifatlaridan bo'lib, yaxshi nutqning shakllanish shartlaridan biridir. To'g'ri nutqda faqat lisoniy faktor zaruriy belgi sifatida qaralsa, nutqning aniqligida esa tildan tashqaridagi holatlar ham nazarda tutiladi. Bu til va tafakkur dialiktikasidir. Aniqlik deyilganda, hodisalar bilan ularning nutqdagi atamasi bo'lgan mantiq o'rtasidagi mutanosiblik tushuniladi.

Qadimgi yunon donishmandi Aristotel o'zining "Ritorika" kitobida nutqning asosiy fazilati uning aniqligida ekanligini aytib "...agar nutq aniq bo'lmasa, u o'z maqsadiga erisha olmaydi", deb ta'kidlaydi. Tabiat va jamiyatdagi voqea-hodisalar, olamning jug'rofiy tuzilishi, kishilarning his-tuyg'ulari, harakat va holatlari — hammasi har bir tilda o'zining lisoniy ifodasiga ega. Ana shu lisoniy ifoda inson tomonidan anglanadi, tushuniladi, idrok qilinadi va fikr almashinadi. O'qituvchi dars berish uchun sinfxonaga kirarkan, o'z o'quv fani buyicha aytmoqchi bo'lgan gapini aniq ravshan bilmasa, o'z fanini yetarli egallamagan bo'lsa, har qancha chiranmasin, o'quvchi uning noaniq, tumtaroq nutqidan bir narsa chiqara olmaydi, uni tinglamaydi.

Paronimlardan foydalanganda ham hushyorlik va alohida ziyraklik talab qilinadiki, aks holda nutqni to'g'riligiga putur yetishi mumkin. Masalan, *asl* — *asil*, *sado* — *sazo*, *o'qishli* — *o'qimishli*, *tansiq*

— *yoqilg'i*, *yoqilg'i* — *yoqilg'i*, *nufuz* — *nufus*, *oro* — *aro (ora)*, *qayda* — *qaydani*, *bola* — *bala*, *sayol* — *xiyol*, *afzal* — *abzal*, *ma'qul* — *maqol*, *tip* — *tip*, *shox* — *shoh*, *tahlit* — *taqlid*, *nogiron* — *nigoron*, *murojaat* — *murojojot*, *ma'naviy* — *ma'noviy* kabi.

Yaxshi va aniq nutq yaratilishi ko'proq tildagi sinonimlardan to'g'ri fodalalanishga bog'liq. Masalan, *salqin ichimliklar* (прохладительные напитки) **sovuq** yoki **muzdek** bo'lishi kerak; *oxirgi yillarda* (**keyingi** yoki **so'nggi** bo'lishi kerak); *xavfli yoqilg'i* (**yonilg'i** bo'lishi kerak); *ko'yi mendan kattaroq* (**balandroq** bo'lishi kerak); *Ko'lda turli bahqlarning bir qancha navi* (**turi** bo'lishi kerak) *mavjud* (O'z TV, 2010, 24 avgust) va b.

Nutqning mantiqiyliigi. Nutqning mantiqiyliigi uning asosiy sifatlarini — to'g'rilik va aniqlik bilan chambarchas bog'langan. Chunki grammatik jihatdan to'g'ri tuzilmagan nutq ham, muvaffaqiyatsiz ta'langan lug'aviy birlik ham mantiqning buzilishiga olib keladi. Mantiqiy izchillikning buzilishi tinglovchi va o'quvchiga ifodalalanayotgan fikrning to'liq borib yetmaganligiga yoki butunlay anglashmasligiga olib keladi. Masalan, Homiylar shifoxona ixtiyoriga 12 ta vaktsinalarni saqlovchi muzlatkich topshirdilar ("Surxondaryo TV"dan). Misoldan anglashiladiki, homiylar 12 dona yoki turdagi vaktsina saqlanadigan bitta muzlatgich toshshirishgan. Holbuki, gap vaktsinalar saqlanadigan 12 ta muzlatgich haqida borayapti. Demak, yuqoridagi gap Homiylar shifoxona ixtiyoriga vaktsinalarni saqlovchi 12 ta muzlatgich topshirdilar tarzida tuzilishi kerak edi. Yoki *Bolalarning suhbat qanday oromgohlarda dam olganliklari haqida borar edi* (televizordan). Aslida *Bolalarning suhbat oromgohlarda qanday dam olganliklari haqida borar edi* bo'lishi kerak. Yana: *Fastum gel. Zamonaviy og'riqni qoldiruvchi vosita* (Reklamadan). Aslida *Fastum gel. Og'riqni qoldiruvchi zamonaviy vosita* tarzida ifodalaniishi kerak.

Nutqning mantiqiyliigi tafakkur uquvi va qobiliyatga bog'liq. Shu bois mantiqiylik faqat lisoniy hodisa sanalmay, nolisoniy hodisa hamdir. Qolaversa, bu faqat tilni yaxshi bilishni emas, balki narsa-hodisalar haqida atroflicha mulohaza va mushohadaga ega bo'lishni ham talab qiladi.

B.N.Golovin mantiqiylikni 2 guruhga bo'lib, narsa va tushuncha mantiqiy tarzida o'rganishni talab etadi. So'zlarning o'zi ifodalayotgan narsa-hodisalarga mos fikrni aniq ifodalashi narsa mantiqiyliigi bo'lsa,

so'z birikmalari, gaplar, boshlanmalar, hatto to'liq matnlarning bir biriga mosligi, izchilligi tushuncha mantiqiyligidir. Masalan, *Endi kuy va raqslar tinglab, tomosha qiling* (Televizordan). Gap mantiqan g'ali tuzilgan: kuy tomosha qilinmaydi, raqs tinglanmaydi.

Ba'zan so'zlar tushirib qoldirilganda mantiqqa putur yetad *Prezident farmoni bilan aholi gazlashtirildi* (Televizordan). Aslid *Prezident farmoni bilan aholi xonadonlari gazlashtirildi* ko'rinishid bo'lishi kerak.

Ko'r-ko'rona tarjimalar ham kulgili holatni yuzaga keltiradi *Erkak paypoqlar narxi 30% arzonlashdi* ("Mushtum"dan); *Bugu Toshkentda nol daraja issiq bo'ladi* (Radiodan).

A.Qahhorning "Adabiyot muallimi" hikoyasidagi qahramon "Nafis adabiyot muallimi" Boqijon nutqi mantiqsiz nutq uchun xarakterli misoldir: *"...Chexovmi? Himm... burjuaziya realizm to'g'risida so'zlaganda, eng avval, uning obyektiga murojaat qilish kerak. Burjuaziya realistlari tushungan, ular aks ettirgan obyektin vokelikni anglash lozim bo'ladi. Turgan gapki, Chexovning ijod boshdan-oyoq, butun mohiyati bilan ilk burjuaziya realizmi, ya'ni. himm. Mukarram, tovuqqa moyak qo'yingmi? Qo'yish kerak, bo'lmas daydi bo'lib ketadi... Tavba tovuqdan axmoq jonivor yo'q — moyak qo'ysang tug'adi! Nima uchun moyak qo'ysang tug'adi? Ajoyib psixologiya! Itologiya o'qiydizlarmi?"*

Xulosa shuki, nutqning mantiqiyligi deganda, yaxlit bir sistema asosida tuzilgan, filollar rivajit izchil bo'lgan, har bir so'z, ibora aniq maqsadga muvofiq ravishda ishlatiladigan nutqni tushunamiz.

Nutqning sofligi. Nutq sofligi deganda, avvalo, uning adabiy tilning iborin me'yorlariga muvofiq kelish-kelmasligi tushuniladi. Masalaning nutqiy tomonid ham uning lingvistik tomonlaridan kam olinadi.

Ko'sh, nutqimizning sof bo'lishiga nimalar halaqit berayapti?

Professor N.Mahmudov yozadi: *"...nutqning sofligini nutqning adabiy me'yorlariga va jamiyatdagi ma'naviy-axloq qoidalariga yot bo'lgan unsurlardan xoliligi bilan belgilanuvchi kommunikativ sifat tarzida ta'riflash mumkin. Aytish joizki, kishi nutqining sofligi uning ma'naviy-ma'rifiy, lisoniy-madaniy saviyasini namoyon etadigan ko'rsatkichlardan biridir..."*

...Adabiy nutqning sofligiga putur yetkazuvchi unsurlarning asosiylari sifatida quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish maqsadga

mirvafiq 1) shevaga xos soʻz, ibora, grammatik shakllar, urgʻu va talaffuz; 2) oʻrinsiz qoʻllangan chet soʻz va soʻz birikmalari (varvarikalar); 3) jargon va argolar; 4) dagʻal, haqorat soʻz va iboralar (yulgʻartalar); 5) "ishlamaydigan" yoki parazit soʻzlar; 6) idoraviy soʻz va iboralar (kanselyarizmlar) va sh.k. Nutq tuzuvchi oʻz nutqining sofligi haqida qaygʻurar ekan, albatta, mazkur unsurlarni qoʻllashdan tiyilishi lozim¹.

Nutqning sofligi, uning keraksiz soʻz va iboralardan xoli boʻlishi subyekt va tinglovchi uchun ham, yozuvchi va oʻquvchi uchun ham suv bilan havoddek zarur. Shu oʻrinda A.Qahorning "Nutq" hikoyasini eslash kifoya. Yoki ayrim kishilar nutqida *xoʻsh, demak* yoki *tak, zunchit, xorosho* soʻzlari keragidan koʻprok ishlatiladi. "Bir dokladchining bir soatlik nutqida, — deb yozadi A.Ahmedov, — "oʻrtoqlar" soʻzi 101 marta, "yaʼni" soʻzi 73 marta, "demak" soʻzi 60 marta qoʻllanganligining guvohi boʻlganmiz. Qarang, bir soatlik nutqda 234 ta ortiqcha — "bekorchi" soʻz ishlatilgan-a".

Qoʻpol soʻzlarning ishlatilishi ham nutqning sofligiga putur yetkazadi. Ogʻzaki nutqda uchraydigan haqorat, soʻkish, qargʻishlar jamiyat axloq meʼyorlariga mos kelmaydi. Biroq badiiy adabiyotda personajlarning kuchli hayajonini ifodalashda bulardan mohirona foydalaniladi: *Soʻfi bular uyga kirib olguncha eshik oldida boʻzarib-qatarib turdi. Bular uyga kirganlaridan keyin sallasini Qurvonbibiga uzatib, ustidagi malla yaxtagini olisdan turib karavotga irgʻitdi va oʻzining oddiy ovozi bilan:*

— **Qanjqlar!** — deb baqirdi.

— *Yosh narsalar oʻynashsa nima boʻlibdi? Muncha endi zabtiga oldingiz?* — dedi Qurvonbibi.

— *Gapirma, eshak!* (CH., "Kecha va kunduz").

Baʼzan qoʻpol soʻz yoki tushuncha matnda aks etmaydi, uch nuqta bilan ifodalanadi (inplisit hodisasi), biroq tagmatn orqali anglashilaveradi:

Qargʻish uchun soʻz topolmadi.

Gʻazabini hech bosolmadi.

"Oʻynash" soʻzin hadeb hijjalab,

Oxir dedi: "Fohisha, ..." (H.O.);

¹ Muhamudov N. Koʻrsatilgan darslik.

Demak, notiq o'z ustida tinimsiz ishlashi bilan birga nutq jarayonida uni doimo nazorat kilib borsagina, tilga mas'uliyat bilan yondashsagina nutqning sofligiga erisha oladi.

Fitrat o'zining "Adabiyot qoidalari" asarida nutqning ("uslubning") umumiy zaruriy sifatlari ("hollari") tarzida to'g'rilik ("tuzuklik"), aniqlik ("ochiqlik"), soflik kabilarni tahlil etar ekan, xususan, soflikka shunday ta'rif beradi: "Uslubda soflik so'z tuzushda gap tuzushda yotchilik ko'rsatmaslik, asarda yot so'zlar yo esk onglashilmas so'zlarni kirgizmaslik, yot tillarning nahviy qoidalari qarab gap tuzmasliqdir.

O'qig'uchilarning qaysilarikim, tirishmaylar o'z bilimlarini ortdir olmaslar deganimizda gapning tuzulishi o'ruschani gap tuzulishiga ergashgan, uning ta'siri bilan bo'lgandir. Buning to'g'risi *Tirishmayturg'an o'qig'uchilar o'z bilimlarini orttira olmaydilar* shaklida bo'ladi.²

Nutqning ta'sirchanligi. Ma'lumki, nutqning yuzaga chiqishida aniq bir maqsad — tinglovchi va o'quvchi ongiga ta'sir etish vazifasi qilib qo'yiladi. Shu bois ta'sirchanlik ham nutqning asosiy sifatlaridan sanaladi. Qolaversa, uning to'g'riligi va aniqligida ham, mantiqiyli va sofligida ham tinglovchiga ta'sir etish maqsad qilib qo'yilgan bo'ladi. Bunda notiqning mavzu atrofida yetarli bilimga ega bo'lishi, mavzu bilmagan notiqning ta'sirli nutq so'zlashi haqida so'z ham bo'lishi mumkin emasligi nazardan chetda qolmasligi lozim..

Nutqning ta'sirchanligi — og'zaki nutq jarayoni, tinglovchilarning ruhiy vaziyati hamdir. Ya'ni, nutq so'zlayotganda, hattinglovchilarning yoshi, jinsi, didi, ijtimoiy mavqei, dunyoqarashi vaziyat, ularning qabul qilish darajasi ham e'tiborga olinishi zarur. Professional bilimga ega bo'lgan kishilar oldida juda oddiy gapirish bo'lmaganidek, oddiy kishilar qarshisida ilmiy va rasmiy tilda nutq so'zlab bo'lmaydi.

Ta'sirchan nutq deganda qanday nutqni tushuntirish kerak. B.N.Golovin yozadi: "Ta'sirchan nutq deb nutq qurilishining tinglovchi va o'quvchi e'tiborini va qiziqishini qozonadigan xususiyatlariga aytiladi, o'z navbatida, shu xususiyatlarga ega bo'lgan nutq ta'sirchan sanaladi".

Omnia tushuna oladigan tilda gapirish, ularni ishontira olish notiq oldidagi asosiy vazifadir. Buning uchun notiqdan mavzuni yaxshi

² Fitrat A. Tanlangan asarlar. IV jild. Toshkent: Ma'naviyat, 2006, 46-b.

bilish, uni bayon qilishning aniq belgilangan rejasiga ega bo'lishi talab qilinadi. Vaqtni hisobga olish notiqning fazilatidir. Notiqning o'z nutqiga munosabati va e'tibori ham muhimdir. Aks holda bir tushuncha takrorlanishi, quruq rasmiyatchilik bo'lib qolishi mumkin. Notiq fikrlarni o'zi yoki tinglovchilar hayotidan olsa, nutq yana ham tushunarli, qiziqarli, ta'sirli chiqadi.

Nutqdagi fikrlarning tinglovchilarga tez va oson yetib borishi uchun xilma-xil yo'llar va vositalar mavjud. Nutqdagi ilmiy-ommabop fikrlar, turli axborotlar tinglovchini zeriktirib qo'yishi mumkin. Patxologlarning xulosasiga ko'ra, tinglovchi, kim bo'lishidan qat'i nazar, ma'ruza (doklad, va'z va b.)ning ilk 20 daqiqasinigina ilg'ab olar ekan, Keyingi daqiqalarda diqqat susayib borarkan. Demak, shunda notiqqa yumor (lirik chekinish) qo'l keladi. Yumorning nutq mazmuniga mos kelishi muhim. Shundagina tinglovchi ham dam oladi, ham fikrini jamlab oladi. Biroq nutq jarayonida yumor nutqning ta'sirchan chiqishida yordamchi vosita ekanligini unutmaslik kerak.

Nutqda mavzu doirasida badiiy adabiyot namunalaridan: xalq maqollari, matallari, hikmatli so'zlari, turli tasviriy vositalardan foydalanish mumkin. Bular notiq fikrining to'g'riligi, haqqoniyligini isbotlash uchun xizmat qiladi.

Nutq jarayonida notiq o'zini qanday tutishi, imo-ishoralari, mimika va pantomimikasi, xatti-harakatlari, ovoz toni, hatto kiyinishi ham muhim omillardan sanaladi. Samimiylik, xushmuomalalik, adabiylik, tinglovchilarga e'tibor va hurmat bilan murojaat qilish ham nutqning samarador chiqishiga olib keladi.

Xulosa shuki, yaxshi nutq so'zlovchi va yozuvchidan katta mehnat talab qiladigan murakkab jarayondir. Demak, nutq aniq va ravon, grammatik jihatdan to'g'ri tuzilgan bo'lishi, adabiy talaffuz me'yorlariga bo'ysunishi, boshdan-oyoq izchil bayon qilinishi lozim. Shunday nutqgina tinglovchi va o'quvchi qalbiga borib yetadi. Shunday nutqgina madaniy nutq talablariga javob beradi.

Tayanch so'zlar

nutqning to'g'riligi, sofligi (tozaligi), aniqligi, mantiqiyliqi, ta'sirchanligi, obrazlilik, tushunarlilik, maqsadga muvofiqliqi, boyligi.

Savollar:

1. Nutqning aloqaviy sifatlari deganda nimani tushunasiz?
2. Nutqning to'g'riligi nima?
3. Nutqning sofligi (tozaligi), aniqligi nima?
4. Nutqning mantiqiyliqi, ta'sirchanligi-chi?
5. Nutqning obrazlilik, tushunarlilik, maqsadga muvofiqligi va boyligi deganda nimani tushunasiz?

NUTQ ODOBI, NUTQ TEXNIKASI

Mukammal shakllangan, talab darajasidagi nutq texnikasi o'qituvchining umumiy nutqiy madaniyatining eng muhim jihatidir. Jonli, tovushli nutq va uning barcha unsurlarini to'g'ri voqelantirish, ko'nikma va malakalarining jami nutq texnikasi demakdir. Bunda ovozning sifati, nutq jarayonida to'g'ri nafas olish, tovush va tovush qo'shilmalarini aniq talaffuz qilish, aniq diksiya kabi bir qator hodisalar nazarda tutiladi. Nutq texnikasidagi bosh masala ovoznin masalasidir. Asosiy qurol nutq bo'lgan har qanday odam uchun ovoznin hal qiluvchi ahamiyatga molikdir³.

Mashhur rus olimi M.V.Lomonosov o'zining "Notiqlik bo'yicha qisqacha qo'llanma" sida notiqlik bo'lish uchun, avvalo, tabiiy qobiliyat zarurligini, tabiiy qobiliyat esa ruhiy va jismoniy turlarga bo'linishini aytadi. Olim jismoniy qobiliyat deganda baland va yoqimli ovoz, uzun nafas va baquvvat ko'krak, shuningdek, sog'lom tana va kelishgan qomatni nazarda tutadi.⁴

Bugungi kunda siyosatchilarning imiji ("qiyofasi")ni yaratishda bir qancha tashqi omillar qatorida ularning ovoz tembri ham muhim ekanligi alohida ta'kidlanadi.⁵ Umuman, siyosatchimi, o'qituvchimi, aktyormi, jurnalistmi, kim bo'lishidan qat'i nazar, uning og'zaki nutqida barcha kommunikativ sifatlari mavjud bo'lsa-yu, ovoznin yoki bu nuqson sezilsa, bunday nutq ta'sir kuchini kamida yarmigacha yo'qotadi. Aytish mumkinki, bir kishigami, yuz kishigami, boringkimi, ming kishigami, buning farqi yo'q, o'zgaga xitoban aytilgan har qanday nutqda ovoznin, ovoz sifatinin o'zini favqulodda muhimdir.

³ Mahmudov N. Ko'rsatilgan darslik.

⁴ Ломоносов М.В. Сочинения. Москва: Современник, 1987, с. 238.

⁵ Abdullayev B. "Qiyofalar" jangi yoxud imijni kim yaratadi? — "Hurriyat", 2006 yil 6 dekabr.

O'qituvchining ovozi, talaffuzi, diksiyasi, umuman, tirik nutqi hamisha o'quvchilar, ayniqsa, kichik sinflardagi o'quvchilar uchun a'liga son etalon, namuna vazifasini bajaradi. O'qituvchining tirik nutqidagi, kattadir, kichikdir, har qanday nuqson o'quvchi nazaridan chetda qolmaydi, darhol uning diqqatini tortadi. Bunday nuqson o'qituvchi nutqida muntazam kuzatilsa, o'quvchi o'qituvchidan nohaq hissa da, ranjigan hollarida mazkur nuqson asosida uni sirtidan talaba, mazax qilishgacha borishi mumkin. Masalan, o'quvchilar o'zaro ana shunday o'qituvchi haqida gaplashganda, uni mazkur nuqsonli ovoz, talaffuz yoki diksiya bilan eslashadiki, bu umumiy tarbiya jarayoni uchun ham ijobiy holat emas, albatta.

Qadimgi yunon notig'i Demosfenning dastlab ovozi past, talaffuzi yomon, nafasi qisqa bo'lganligidan chiroyli va ta'sirli nutq aytganligi haqida tarixchilar yozganlar. Bu sohani chuqur o'rgangan olim S. Inomxojayev ta'kidlaganidek,⁶ keyinroq, Demosfen nutq texnikasi asoslarini egallashga juda jiddiy kirishgan. U bir yerto'la qazib, shu yerto'lada ovozini rivojlantirish, diksiya, deklamatsiya bo'yicha oylab mashqlar qiladi. Talaffuzidagi nuqsonlar, "r" tovushini aytmasslik, ba'zi tovushlarni noaniq aytish kabilarni bartaraf etish maqsadida og'ziga mayda toshlarni solib, she'rlar, turli matnlarni o'qib bilan shug'ullanadi. Ovozini rivojlantirish, ovoz apparatlarini chiqartirish uchun esa tepaliklarga yugurib chiqib, yugurib tushib, nafasni ushlab turgan holda she'rlarni deklamatsiya qiladi. Demosfen gapirayotganda bir yelkasini hadeb ko'taraverish odatidan qutulish uchun yerto'lasining shiftiga uchi o'tkir xanjarni osib qo'yib, yelkasini xanjarning ayni uchiga to'g'rilab turib, mashqlarini davom ettiradi. Ana shunday mashaqqatli va muntazam mashqlar tufayli Demosfen notiqlikning cho'ng cho'qqisini zabt etgan.

O'qituvchi nutqida kuzatiladigan kamchiliklardan biri fonatsiya jarayonida, ya'ni nutq hosil bo'lish paytida nafas olishdagi tartibsizliklar bilan bog'liq. Fonatsiya jarayonida nafas olish va nafas chiqarish fazalari shunday yo'lga qo'yilishi kerakki, nafas olish zo'riqishsiz, bir qadar jadalroq, nafas chiqarish esa tekis, bir me'yorda va davomliroq kechishi lozim. Nafas chiqarish qanchalik davomli, uzun bo'lsa, shunchalik yaxshi. Zotan, tovush, nutq ayni shu nafas chiqarish jarayonida hosil bo'ladi.

⁶ Inomxujayev S. Notiqlik san'ati asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 1982, 86-87-betlar.

Nutq texnikasini egallashda umumiy tarzda bo'lsa-da, fonetika bilimlardan boxabarlik zarur. Ma'lumki, tovushning fizik-akustik xususiyatlari uning balandligi, kuchi, tembri (bo'yoqdorligi), cho'ziqligi kabi sifatlardan tarkib topadi. Har qanday og'zaki nutqning yashashini ta'minlaydigan intonatsiyaning prosodik unsurlari bo'lmish nutq melodikasi, nutq ritmi, nutq tempi (tezligi), nutq tembi kabi tushunchalar asosida ham mazkur fizik-akustik xususiyatlar yotadi.

Umuman, o'qituvchi o'zining nutq texnikasini takomillashtirish borasida doimiy qayg'urishi, fonetika, fonologiyaga oid bilimlardan umumiy tarzda bo'lsa-da, xabardor bo'lishi, kerak bo'lganda, o'z nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga yordam beradigan mashqlardan muttasil foydalanib borishi maqsadga muvofiq. Chunki tugal nutq texnikasisiz o'qituvchining, har bir nutq tuzuvchining og'zaki nutqi madaniyatini aslo raso deb bo'lmaydi.

USLUBIYAT HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

Reja:

1. Uslubiyat, uning maqsad va vazifalari.
2. Stil (uslub) so'zining ma'nosi.
3. Nutq uslublari.
4. Xulosa.

Uslubiyat (stilistika) — grekcha «**stylos**» so'zidan olingan bo'lib, suyakdan yasalgan uchli tayoqcha degan ma'noni bildiradi. Qadimgi greklar mum surtilgan taxtaga ana shu tayoqcha bilan yozganlar. Xato yozilgan so'zni tayoqchanning ikkinchi — kurakcha ko'rinishdagi tomoni bilan to'g'rilar va uchli tomoni bilan yozar edilar⁷.

Stil — uslub so'zining izohli lug'atlarda bir necha ma'nolar berilgan. O'tgan asrning 40-yillarida D.A.Ushakovning tahriri ostida chiqqan "Толковый словарь русского языка" asarida stil so'zining 4 xil ma'nosi berilgan (bu 2 tomlik (1981) va 5 tomlik (2006 — 2008) "O'zbek tilining izohli lug'ati" da ham izohlangan):

Stil 1 — biror san'at asarining bir ijodkor, davr, millatning xarakterli belgilar yig'indisi. Masalan, arxitekturadagi sharqona stil (naqshinkorlik, gumbazli binolar) yoki yevropacha stil.

⁷ Shomaqsudov A. va b. O'zbek tili stilistikasi. T.: — O'qituvchi, 1983.

stil 2 — biror adabiy asar, adabiyot yo'nalishi, adabiy janr yoki uslubiyatga xos bo'lgan g'oya va til vositalarining sistemasi.

stil 3 — ko'chma ma'noni ifodalaydi. Bunda xulq, axloqqa xos bo'lgan xususiyatlar yig'indisi, faoliyat metodi, biror ishni amalga oshirishning yo'l-yo'riqlari tushuniladi.

stil 4 — bu ma'no adabiyotga ham tilga ham xos emas. Bu davrga nisbatan ishlatiladi. Bu yil hisobiga nisbatan ishlatiladi. Masalan, tabiiy yil hisobi, hijriy yil hisobi.

Ko'rinadiki, uslubiyat (stilistika) fani 2-ma'no bilan bog'liq vujudga kelgan ekan. Bunda fikr ifodalash uslublari ham tushuniladi. Masalan, A.Qahhor uslubi, S.Ahmad uslubi, Oybek uslubi, Tog'ay Murod uslubi, Tohir Malik va boshqa ijodkorlar uslubi kabi. Boshqacha aytganda, U.Gulomning «Sen etim emassan» she'ri ko'tarinki uslubda, A.Qahhor asarlari fosh qiluvchi uslubda, Oybek asarlari keng ko'lamlilik uslubida, T.Murod va Sh.Xolmirzayev asarlari milliylik uslubida yozilgan.

Shuni ham ta'kidlab o'tmoq lozimki, stil so'zining yuqoridagilardan tashqari hoshqa ma'nolari ham mavjud. Masalan, kiyinish (moda)dagi, yurish-turishdagi stil kabi.

Uslubshunoslik fanining o'rganish ob'ekti haqidagi turli qarashlar mavjud. Akademik V.V.Vinogradov stilistika bahsida bir-biri bilan uzviy aloqador, lekin vazifalari turlicha bo'lgan uchta tekshirish aspektini farqlash zarur, deb uqtiradi.

Shunga ko'ra olim uslubiyatni 3 qismga ajratadi:

1. Tilning vazifaviy uslublarni o'rganuvchi uslubiyat (структурная силестика).

2. Turli janrlarning ma'noviy va ekspressiv-uslubiy xarakterlarini hamda og'zaki va yozma nutq orasidagi farqni tekshiruvchi nutq uslubiyati (стилистика речи).

3. Adabiy yo'nalishlar, badiiy asar hamda yozuvchi uslubini tadqiq etuvchi badiiy adabiyot ulubiyati⁸.

Uslubiyat (stilistika) fani akademik V.V.Vinogradov tasnifining 1-va 2-si asosida shakllangan. 3-si adabiyotshunoslikning o'rganish ob'ekti hisoblanadi.

Sababi badiiy adabiyot uslubi keng qamrovliligi bilan ajralib turadi. Shunga ko'ra, uslubshunoslikning ikki ko'rinishini ajratamiz:

⁸ Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. —М.: 1963.—С.593.

1. Nutq uslubi. Bunga *so'zlashuv uslubi, rasmiy uslub, ilmiy uslub, publitsistik uslub va badiiy uslub* kiradi. **2. Lingvistik, ya'ni til uslubi.** Bunga *fonetik uslubshunoslik, leksik uslubshunoslik, frazeologik uslubshunoslik, grammatik uslubshunoslik* kabilar kiradi.

Savollar:

1. Uslubiyat nimalarni o'rganadi?
2. Stil (uslub) so'zining qanday ma'nolarini bilasiz?
3. Uslubiyatning tasnifiy asoslari akademik V.V.Vinogradov fikricha qanday?
4. Uslubiyatning qanday ko'rinishlari mavjud?

Tayanch so'zlar:

Stylos — suyakdan yasalgan tayoqcha.

Stil — stilet (ingichka xanjar) va stilo (avtoruchka) so'zlaridan.

Nutq uslubi — tilning vazifaviy uslublari o'rganuvchi soha.

Lingvistik stilistika — til (fonetik, leksik, frazeologik, grammatik) uslubi.

NUTQ USLUBIYATI

Reja:

1. Nutq uslublari o'ziga xos belgilari.
2. Vazifaviy uslub turlari.
3. Xulosa.

Nutq uslublari har biri alohida-alohida tizimni tashkil qiladi. Buning jihat aloqa-aralashuv quroli bo'lgan tilning ijtimoiy tabiatidan kelib chiqadi. To'g'ri, tilning fonetik tuzilishi, grammatik qurilishi va lug'at tarkibining har biri ham alohida bir tizimni, tilning o'zi esa yaxlit holda butun bir tizimni tashkil etadi. Tilning vazifaviy uslublari mana shu fonetik, leksik va grammatik tizimlarga xos barcha vositalarning ma'lum kommunikativ maqsadga ko'ra uyushishi tufayli vujudga keladi. Demak, nutq uslublari tilning vazifasi bilan bevosita bog'liq ekan. Shu bois ular vazifaviy uslublar deb yuritiladi.

Tilda uslubiy hodisalar kommunikativ vazifasi va umumiy uslubiy buyog'iga ko'ra o'zaro aloqador tizimni tashkil qiladi.

Shunga ko'ra, tilning uslubiy tizimini ta'riflashda til birliklaridagi differentsial-uslubiy bo'yoqqa muhim belgi sifatida qaralmog'i kerak. Impressiv-uslubiy bo'yoq esa, asosan, so'zlarning o'zaro ma'noviy munosabati tufayli sodir bo'ladi. Buni sinonimik qatorlarni tahlil qilish jarayonida kuzatishimiz mumkin.

Biroq alohida olingan so'z, ibora va grammatik qurilish uslubiy bo'yoqning qaysi turiga mansubligini aniqlash birmuncha qiyin bo'ladi. Hushqacha aytganda, bularning uslubiy bo'yog'i nutq jarayonida — matn ichidagina ma'lum bo'ladi. Masalan, **tulki** so'zi yovvoyi hayvonlarning bir turiga nisbatan ishlatilsa, uslubiy bo'yog'i neytral; insonga qarata «ayyor» ma'nosida qo'llansa, ma'lum uslubiy bo'yoqqa ega bo'ladi. **Latta**, **to'nka**, **tosh** kabi so'zlarda ham buni kuzatish mumkin va boshqalar.

Adabiy tilning uslubiy tizimi noadabiy til vositalari va shu kabi hodisalar bilan ham ma'lum munosabatda bo'ladi. Jargon, argolar umumxalq tilida oddiy so'zlashuv uslubi orqali kirib keladi. Badiiy nutq uslubida, ba'zan personajlar tilini individuallashtirishda foydalaniladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, nutq uslublari tizimini tashkil etuvchi vositalarning bir-biri bilan o'zaro aloqasi ayni shu nutq uslubining asosiy vazifasidan kelib chiqadi. Masalan, ilmiy uslubning asosiy vazifasi — tabiiy va ijtimoiy hayot hodisalarini, muayyan fikrning mantiqliq isbotini aniq ta'riflash va izohlashdan iborat. Ilmiy uslubning mantiqiy xarakteri uning leksik-frazeologik va grammatik xususiyatlarida o'z ifodasini topadi.

Biroq nutq uslubiga xos jihatlar boshqa bir uslub tarkibida ham uchrashi mumkin. Masalan, ilmiy terminlar rasmiy, publitsistik va so'zlashuv kabi uslublarda ishlatilishi mumkin.

Shunga ko'ra, nutq uslubi — ifoda vositalarining maqsadga muvofiq uyushgan tizimidan iborat deyish mumkin.

Nutq uslublari til taraqqiyotining ma'lum davrida asta-sekin shakllanadi va o'zgarishlarga uchraydi. Masalan, publitsistik uslubning yozma shakli XX asr boshida nashriyot va vaqtli matbuot ishlari doirasining kengayib borishi bilan bog'liq tarzda yuzaga keldi. Keyinchalik badiiy uslub shakllana bordi va rivoj topdi. Umumxalq tili zaminida rasmiy, ilmiy singari yangi nutq uslublari vujudga keldi.

Nutq uslublarning og'zaki va yozma shakllarga ega turlari ham mavjud. Masalan, ilmiy uslubning yozma (ilmiy asar, maqola yoki

darslik) va og'zaki (ma'ruza, doklad kabi) formalari ham bor. Yo so'zlashuv uslubidan, odatda, kundalik fikr almashuvda foydalanilsa-da, undan yozma ko'rinishlarda (*xat-xabar, esdalik* kabi) ham foydalanish mumkin.

Nutq uslublari, o'ziga xos xususiyatlaridan qat'i nazar, adabiy me'yorlari asosida umumiylikka ega. Adabiy me'yor tilning tovush tizimini, grammatik qurilishi hamda uning lug'at tarkibidagi elementlarni zaruriy unsurlarni tanlab olish asosida tashkil topadi. U tilning silliqlashgan, ishlangan shaklidir. Adabiy me'yor faqat yozma adabiy til uchungina taalluqli bo'lmay, u og'zaki adabiy til uchun xam zaruriy holatdir.

Vazifaviy uslublar nutq ko'rinishlarining asosiy vazifasiga ko'ra (aloqa-aralashuv, ta'sir etish kabi) quyidagi uslublarga ajratiladi:

1. **So'zlashuv uslub.** 2. **Rasmiy uslub.** 3. **Ilmiy uslub.** 4. **Publitsistik uslub.** 5. **Badiiy uslub.**

Savollar:

1. Nutq uslubiyati nima?
2. Nutq uslublarining qanday ko'rinishlari bor?
3. Adabiy me'yor nima?
4. Vazifaviy uslub turlari qaysilar?

Tayancho'zlar:

Adabiy me'yor — tilning ishlangan, sayqallashgan qismi.

Vazifaviy uslub turlari — so'zlashuv, rasmiy, ilmiy, publitsistik va badiiy uslub.

SO'ZLASHUV USLUBI

Reja:

1. So'zlashuv uslubining ko'rinishlari.
2. So'zlashuv uslubining fonetik xususiyatlari.
3. So'zlashuv uslubining leksik-frazeologik xususiyatlari.
4. So'zlashuv uslubining grammatik xususiyatlari.
5. Xulosa.

So'zlashuv uslubini ikki turga ajratib, ya'ni adabiy so'zlashuv uslub va oddiy so'zlashuv uslubini kabi⁹ o'rganish aslida o'zini oqlamaydi. Shu

⁹ Shomaqsudov A. va b. Ko'rsatilgan darslik, 14- b.

U erda M. Mukarramovning quyidagi fikrini keltirib o'tish joiz: «Adabiy til (nutq) odatida so'zlashuv nutqi, dialektal nutqqa qarama-qarshi qo'yiladi. Adabiy nutq esa o'z navbatida badiiy, ilmiy, publitsistik, rasmiy hujjat nutq turlariga bo'linadi»¹⁰.

Bundan tashqari, so'zlashuv uslubi adabiy so'zlashuv va oddiy so'zlashuv uslubiga ajratilgan adabiyotlarda, asosan, oddiy so'zlashuv uslubiga xos xususiyatlar sanaladi, izohlananadi, xolos. Demak, bu uslub maqsadga muvofiq emas.

Jonli so'zlashuv nutqi adabiy nutqqa yaqinlashtirilgan, aslida uning og'zaki ko'rinishi bo'lgan nutqdan mutlaqo farq qiladi. Shu bois uni jonli so'zlashuv nutqi deb nomlagan ma'qul. Uning zidi: **adabiy nutq**. Ta'kidlash kerakki, jonli so'zlashuv nutqning ham o'ziga xos lug'aviy, grammatik va boshqa belgilari bo'ladi.

Jonli so'zlashuv nutqi umumxalq tiliga asoslangan holda shakllangan bo'lsa, adabiy nutq ko'rinishlari esa asosan adabiy til samirida shakllanadi.

Demak, nutqning jonli so'zlashuv ko'rinishi va adabiy me'yorlarga asoslangan ko'rinishlari mavjud. Adabiy me'yorlarga asoslangan nutq ko'rinishlariga ilmiy, badiiy, rasmiy hujjat nutqlari va publitsistik nutq kiradi. Tabiiyki, so'zlashuv uslubi nutqning jonli so'zlashuv ko'rinishiga taalluqlidir.

Jonli so'zlashuv nutqi adabiy nutq shakllaridan quyidagilar bilan farqlanadi:

1. Jonli so'zlashuv nutqida shevalarga xos til birliklari juda ko'p bo'ladi. Har bir sheva vakili jonli so'zlashuvda o'z shevasida gapirish ko'nikmasiga ega bo'ladi.

2. Jonli so'zlashuv nutqida kundalik muomala va muloqotda, o'zaro turmush ikir-chikirlari, aloqa-aralashuv uchun xizmat qiladigan til birliklari ko'p uchraydi: qarg'ishlar, olqishlar, hol-ahvol so'rashish, uy-ro'zg'or, qo'ni-qo'shnichilik, qarindosh-urug'chilik, kundalik suhbatlar va b. Misollar: *Hali yurt so'rab yotganlaring shular, degin deydi. Qovog'ini qara, qovog'ini. Voy, o'sha obergan shahringni sholvaringga solib beray... Bu nima o'zi? Milisami? Murtimni ko'tarib turay, o'tib ketsin* (A.Qod.).

Umed bilan kelim, bozordan quruq, qaytmay deyman, bunga 50 tillo beray, keling, hay deng endi (S. Ayn.).

¹⁰ Mukarramov M. O'zbek nutqi madaniyatining dolzarb muammolari. T.: —1990. 22-b.

Yildan yilga zamonani yer yutvotti, egachi! Erkak, erkak yoshlar ham teng tepasidan urib, tovonidan chiqarvotti, man sizga etsan qoqindiql.. (so'zlashuv)

3. Jonli so'zlashuv nutqida boshqa tillarga xos kundalik turmu bilan bog'liq lug'aviy birliklar (varvarizm va vulgarizmlar) uchraydi, *tak, mishayit, nu, privet, astanovka, znachit, karochi, dom* kabi.

Ko'rinadiki, jonli so'zlashuv nutqida buzilish kuchli bo'ladi, nutqning tozaligi va sofligiga putur yetadi.

4. Jonli so'zlashuv nutqida samimiylik, xalqchillik, soddalik va erkinlik kuchli bo'ladi. Masalan, *olib kel — obke, buyoqqa — baq, qo'yib yubor — qo'yvor, sen ham — senam, men ham — menam, bu kun — bugun, olib berib yubor — obervor* (bular *sandxi* hodisasi) *shuningdek, non-pon, choy-poy, ovqat-povqat* kabi. Bundan tashqari so'z va gaplarni qisqartirish hollari ham uchraydi: *Muhammad — Mamat — Mat; Feruza — Feruz; ha! yo'q; Bugun to'y!* kabi. Bunda hollarda suhbat yuzma-yuz bo'lganligi bois ko'p narsa vaziyat orqali tushunilaveradi (situativ to'liqsiz gap). Shuningdek, so'zlovchilarning xatti-harakatlari, imo-ishoralari, urg'uning kuchayishi yoki pasayishi sukut, to'xtam yoki qo'l, oyoq, bosh, yelka, ko'z, yuz, lab, ens kabilarning harakati ham nutqning ta'sirchan va xarakterli bo'lishini ta'minlaydi, vaqt tejaladi, ta'sirchanlik oshadi, oson tushuniladi. Masalan, *Viloyatga safarga chiqqan hukumat rahbari — birinchi kotib Rahimov, ichki ishlar vaziri Luqmonovni kuzatish tantanasi. Bular atrofidan o'nlab rahbarlar parvona. Shulardan biri ittifoqqa dovrug' ketgan sovxoz direktori Mirvali. Sal oldin Luqmonov birinchi sezdirmay Mirvaliga: "Bo'yingdan dorga osaman," — degan. Momen topib, — "Menga qarang, aka, qandoq qilsam, siz aytgan dorga osilmayman," — deydi Mirvali. Luqmonov javob o'rniga ehtiyotlik bilan bosh barmog'i bilan ko'rsatkich barmog'ini bir-biriga ishqab ko'rsatdi. — Qancha? Bitta etadimi? — Luqmonov yana ovoz chiqarmadi. Uchi barmog'ini ko'rsatdi. — Bu ko'p ishorasini qildi Mirvali va birozdan keyin militsiya boshlig'iga: "Xo'b, narxini ayting," — dedi. — "Siz ayting," — dedi general. — Mirvali bitta barmog'ini ko'rsatdi. General ensasi qotganday lablarini burib, uchta barmog'ini ko'rsatdi. — Mirvali ikkitasini ko'rsatdi. General hamon uchtasini ko'rsatib turardi (S.Ahm. "Jimjitlik", 171-b.).*

Jonli so'zlashuv nutqning boshqa ko'rinishlaridan farqlanuvchi jihatlari borki, bular so'z tarkibidagi tovushlarning o'rin

ifodasida (*tuproq — turpoq, supra — surpa, daryo — dayro, (= to'rtg'i)*), tushib qollshida (*olib kel — obke, sen ham — senam*), k. qisqartirilishida (*soat — sog'at, rais — rayis, bank — banka, oila (il)*), iltihim tamlarining qisqartirilishi (*Muazzam — Muaz, Salima k. Nozima — Nozi*), tovush almashinuvida (*aka — oka, tovush — to'vush, Rovshan — Rovshan, mavsum — maxsum*) ko'rinadi.

Ushbu so'zlashuv nutqida tasviriy so'zlar, salbiy va ijobiy xarakterlarni ifodalovchi vositalar (*ming'illamoq, mishiqli, bo'taloq, bo'jaloq, jig'limga tegma, qiztaloq, bachchag'ar, kallavaram, kishni, ochiq mozor, jo'rttaga, hashva, o'shak (g'iybat), go'rso'xta, o'zining chuquri ko'rsin, dardisar, qirtiqiyon, jersatqoq, tilidan o'qitilgan, murdasha'y kabi*) uchraydiki, bular kishilar orasidagi ijtimoiy, ma'naviy hayotiy erkin munosabatlarni ifodalash zarurati natijasi o'laroq yuzaga keladi.

Savollar:

1. So'zlashuv uslubining qanday turlari mavjud?
2. So'zlashuv uslubining fonetik xususiyatlari deganda nimani tushunasiz?
3. So'zlashuv uslubining leksik-frazeologik xususiyatlari deganda nimani tushunasiz?
4. Grammatik xususiyatlari deganda-chi?

Tayanish so'zlar:

So'zlashuv uslubi — adabiy so'zlashuv nutqi, jonli so'zlashuv

Fonetik xususiyat, leksik-frazeologik xususiyat, grammatik xususiyat.

Fonetika – tovushlar tizimi.

Leksikologiya – so'z va iboralar haqidagi fan.

Grammatika – morfologiya va sintaksis.

RASMIY USLUB

Reja:

1. Rasmiy uslubning og'zaki shakli.
2. Rasmiy uslubning yozma shakli.
3. Rasmiy ish qog'ozlari haqida tushuncha.
4. Xulosa.

Rasmiy nutqning ikki xil ko'rinishi mavjud:

1. **Og'zaki** (rasmiy ma'ruzalar, dokladlar, brifinglar, muloqotlar, sharhlar).
2. **Yozma** (rasmiy ish qog'ozlari nutqi).

Og'zaki tarzda rasmiy ma'ruzalar nutqi bir tomondan, badiiy ilmiy, jonli so'zlashuv va publitsistik nutqlardan farq qilsa, ikkinchi tomondan, rasmiy ish qog'ozlari nutqi (yozma nutqi)dan ham farqlanadi.

Masalan, A.Qahhorning "Nutq" hikoyasidagi ushbu parcha murojaat qilsak: *"— O'rtoq Rafiqam! Ijzat berasiz, xushchaqchilik hayotimizni sharaf bilan davom ettirib, oilaviy burchimizni namuna tarzda bajarib kelayotganimizga bir yil bo'lgan kunda Sizni bevosita tabrik etishga!... — Lekin bu kamchiliklarga qaramay, turmushimizni a'lo darajada olib borayotganimizga hech qanday shak-shubha bo'lmay mumkin emas deb hisoblash mumkin... Bu ryumkani mana shuni uchun ko'tarishdan burun o'z muhabbatimni yana bir marta amaliy sur'atda izhor qilgani ruxsat berishingizni talab qilaman".*

D.Y.Rozentalning "Rasmiy nutq stili o'ziga xos leksik qatlamga sintaktik qurilishga ega bo'lishi bilan konservativ xarakter kasb etadi" degan fikri rasmiy nutqning hamma ko'rinishlari uchun tegishlidir.

Shu nuqtai nazardan yuqorida keltirilgan mantdagi *o'rtoq rafiqam* ijzat bersangiz, sharaf bilan davom ettirib, oilaviy burchimiz, namuna tarzda, bevosita tabrik etishga, turmushimizni a'lo darajada olib borayotganimizga, deb hisoblash mumkin kabi so'z va iboralar asosida balandparvozlik, rasmiyatchilik uchun qo'llanilganligini kuzatamiz. — nutqni soddalik, samimiylilik, xalqchilikdan mahrum qiladi.

Holbuki, mazkur parcha jonli so'zlashuv nutqi (norasmiy nutq) aylantirilsa, quyidagicha bo'lishi mumkin: *"Oyisi, tuppa-tuzik yashay kelayotganimizgayam bir yil bo'p qopti. Shunday kunda sizni"*

¹¹ Розенталь Д.У. Практическая стилистика русского языка. — М.: Наука, 1974. — с.37.

Termiz DU filologiya fakulteti dekani profess
D.S.Qulmamatovga o'zbek filologiyasi ta'lim
yo'nalishi 4-kurs talabasi Ziyadullayeva
Habibadan

A R I Z A

Termiz shahrida doimiy yashash joyim yo'qligini, uyim uzoqligi
hisobga olib, menga 3-talabalar turar joyidan joy ajratishingiz
so'rayman.

2015-yil, 26-avgust (imzo) Ziyadullayeva H.

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI B U Y R U Q

2014-yil, 25-avgust № 253 Termiz shahri

O'qishga tiklash to'g'risida

Filologiya fakulteti o'zbek tili va adabiyot bo'limi 3-kurs talaba
Asqarov Abdumurod shartnoma to'lovini to'liq amalga oshirganligi
shuningdek, akadem qarzlari yo'qligini hisobga olib,

B u y r a m a n:

3- kurs talabasi A.Asqarov o'z kursi (3-kurs)ga t i k l a n s i n.

Rektor	(imzo) (F.I.Sh.)
Tayyorladi: Fakultet dekani	(imzo) (F.I.Sh.)
Kelishildi:	
O'quv ishlar prorektori	(imzo) (F.I.Sh.)
Marketing xizmati bo'limi boshlig'i	(imzo) (F.I.Sh.)
Huquqshunos	(imzo) (F.I.Sh.)
O'quv bo'limi boshlig'i	(imzo) (F.I.Sh.)
Reja bo'limi	(imzo) (F.I.Sh.)

Rasmiy ish qog'ozlari uslubi adabiy nutq uslubi va jonli so'zlashuv
uslubidan o'ziga xos lug'at va grammatik xususiyatlariga ko'ra farq
qiladi. Bundan tashqari, bu kabi xujjatlarda tinish belgilari va

matnlarining qo'llanishida ham o'ziga xoslik mavjud. Chunonchi, rasmlar, ko'pincha, 2009-yil 20-yanvar emas, 20.01.09. shaklida; pul birliklari 2116 (ikki ming bir yuz sakson olti) (so'z bilan) tarzida, uyvuq raqamlari 12-24, 245/2 yoki 106 shaklida qo'llanadi. Yil so'zi qisqartirib, y. shaklida yoziladi.

Ayrim ish qog'ozlari ko'p murojaat qilinganligi bois ma'lum hollarda (blanklar ko'rinishida) ko'paytirilib qo'yiladi (*ma'lumotnoma, talabnoma, ishonch qog'ozi, vedomost, shartnoma* kabilar).

Rasmiy ish qog'ozlarining lug'aviy tarkibi o'ziga xos bo'lib, ularda *shchi, shchisona, tomonlar, muxtor vakil, favqulodda va muxtor elchi, ishonch yorliq'i, guvohnoma, qaror, bayonot, shartnoma, majlis, kun tartibi, ishchi guruh, eshitildi, ishtirok etdi, axborot berildi, tugatildi, tashkil etildi, tayinlandi, bo'shatildi, ruxsat etildi, so'rayman, iltimos qilaman, rats, kotib, qaror qilindi, tasdiqlayman, ma'qullayman, qabul qilib oldim, topshirdim* kabi so'z va iboralar qo'llaniladi.

Ish qog'ozlari nomlari ham o'ziga xos lug'aviy xususiyatga ega:

-**noma** yasovchi-affiksoidi bilan yasalgan: *bildirishnoma, tavsiynoma, ma'lumotnoma, yo'riqnoma, dalolatnoma, tavsiyanoma*;

-**xat** so'zi bilan yasalgan: *da'vo xat, ilova xat, iltimos xat, tasdiq xat, tilsat, tushuntirish xati*;

-**ma** affiksi bilan yasalgan: *buyurtma, ko'chirma, ko'rsatma*;

-**chi** affiksi bilan yasalgan shaxs oti yasovchi: *ijarachi, hisobchi, nazoratchi, ijrochi, yordamchi, taftishchi, iqtisodchi, buyurtmachi, pudratchi* kabi ish qog'ozlari va ularni yurituvchi shaxs otlari yasaladi.

Ba'zi hollarda kishi nomlari boshqa nom bilan ataladi: *ijrochi, nazoratchi, uyni ijaraga oluvchi, guvoh, da'vogar, javobgar, jabrlanuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, oqlovchi, qoralovchi, imzo chekuvchi, o'g'il qilib oluvchi* kabilar. Bunda biror shaxsning nomini hadeb takrorlayvermaslik, ba'zan ma'lum maqsadlarga ko'ra kishi nomini yashirish nazarda tutiladi.

Bundan tashqari, bu uslubda harakat nomi (-**moq** bilan hosil qilingan shakli uchramaydi) (*so'rov (varaqasi), yozuv, to'lov, bildiruv (xati), boshqaruv, chaqiruv (qog'ozi)*), majhul nisbat (*so'ralsin, tayinlansin, bo'shatilsin, tasdiqlansin* kabi), shuningdek, shart va buyruq mayli shakl-laridan ayniqsa, ko'p qo'llaniladi.

Umuman, rasmiy nutq uchun uyushiq bo'lakli gaplar murakkablashgan sodda gaplar va turli xil qo'shma gaplar (masalan, shart ergash gapli) ko'p qo'llaniladi.

Shunday qilib, rasmiy uslub, bir tomondan, insonlar o'rtasida rasmiy munosabatlarni ifodalasa, ikkinchi tomondan, tashkilotlarning munosabatlari, shuningdek, davlatlar orasidagi turli munosabatlarni o'rnatishda muhimdir.

Savollar:

1. Rasmiy uslubning qanday ko'rinishlari mavjud?
2. Rasmiy uslubning boshqa uslublardan farqi qaysilar?
3. Rasmiy ish qog'ozlari haqida ma'lumot bering.

Tayanch so'zlar:

Ariza, shikoyat, ma'lumotnoma, shartnoma, dalolatnoma, da'vogarlik xat, taftish, shikoyat xat, ko'chirma; So'ralsin, tayinlansin, yuklatilsin, Chaqiruv, boshqaruv, bildiruv va b.

ILMIY USLUB

Reja:

1. Ilmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Mantiqiylik — ilmiy uslubning asosi.
3. Ilmiy uslubning boshqa uslublardan farqi.
4. Xulosa.

Ilmiy uslubda adabiy me'yorlarga to'liq amal qilinadi. Ilmiy uslubda borliq, undagi narsa-hodisalar, tabiat va jamiyatdagi munosabatlar haqida aniq fikr bayon qilinadi, ta'riflanadi, izohlanadi. Ilmiy uslub fan, texnika va ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lib, aniq maqola, ilmiy risola, monografiya, darslik, dissertatsiya, ilmiy ma'ruzalar ko'rinishida bo'ladi.

Uning o'ziga xos belgilari quyidagilar:

1. Ilmiy uslub ilmiy termin (atama)larning juda keng qo'llanilishi bilan boshqa uslublardan ajralib turadi.

Bunda fanning turli sohalariga oid atamalar uchraydi:

- matematikaga oid tadqiqotlarda: *tangens, kotangens, sinus, kosinus, kvadrat tenglama, qo'shuv* va b.
- tarixga oid tadqiqotlarda: *era, acp, quldorlik, diktator, duma, sinfiy kurash, formatsiya, kapitalizm* va b.

• munosabatlarda old tadqiqotlarda: *fonetika, morfologiya, ega, kashfi, sintaksis, sinonim, omonim* va b.

3. Ilmiy nutqda mantiqliy bog'liqlik, dalillash, izchillik, aniqlik, modachi amaliy o'rinda turadi. Ilmiy nutqning sintaktik qurilishi muvofiq xos bo'ladi. Unda kirish va kiritmalar (*demak, xullas, barchasi, hatirinadiki, shunday qilib, anglashiladiki, masalan* kabilar), ish bog'ligari (*nuqta, vergul* kabilar)dan keng foydalaniladi. Biroq dav, so'z, ko'p nuqta, birmuncha kam ishlatiladi.

Matnlar tilning tasviriyl vositalaridan xoli, aniq, qisqa, ravon, nda mantiqliy tarzda yoziladi.

4. Ilmiy uslubda fe'lining majhul va aniqlik nisbatlaridan foydalaniladi. Affikslerde kuchaytirish, bo'rttirish, ta'kid, emotsionallik yari ishlatilmaydi.

5. Ilmiy uslubda baho shakllari, sinonimlar, ijobiy yoki salbiy munosabatni ifodalovchi so'zlar, masalan, *yuz, bet, aft, bashara, uhrta, orax, ruxsor* kabi sinonimlar qatorining dastlabki ikkitasi o'tlanilishi mumkin, xolos. Jonli so'zlashuvga xos muoma-munosabatlarni anglatuvchi (yuqorida aytib o'tildi) so'zlar munan ishlatilmaydi.

Shunday qilib, ilmiy uslub insonning, uni o'rab turgan borliq bilan, huningdek, jamiyat, ijtimoiy hodisalar bilan munosabatni ifodalaydi.

Savollar:

1. Ilmiy uslub nima?
2. Ilmiy uslubning qanday xususiyatlari mavjud?
3. So'zning leksik-ma'noviy xususiyatlari qaysilar?

Tayanch so'zlar:

Abstrakt — mavhum

Tipik — bir xildagi, bir turdagi narsalar

Struktura — tuzilish, qurilish

PUBLITSISTIK USLUB (MATBUOT NUTQI)

Reja:

1. Publitsistik uslubning ko'rinishlari.
2. Publitsistik uslubning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Xulosa.

Publitsistik uslub jamiyat a'zolarining ijtimoiy-siyosiy hayot munosabatlarini ifodalaydi. Boshqacha aytganda, kishilarning jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy-ma'naviy va madaniy sohalarida o'zgarishlariga munosabatlarini til vositalari hamda ularning imkoniyatlari yordamida ifoda etish tushiniladi.

Publitsistika so'zi — lotincha bo'lib, ijtimoiy, xalqchillik ma'nolarini anglatadi.

Olimlar mazkur uslub ko'rinishlarini qadimdan mavjudligi notiqalarning nutqida ham uning shakllari uchraganligini ta'kidlaydi. Buni voiz (va'xon)lar, azonxonlar, roviylar, bakovullar, jarchi faoliyati misolida ko'rish mumkin. Masalan, o'tmishda (ba'zi tushirish qishloqlarida hozir ham mavjud) jarchilar biror xabar, yangilik voqeliklardan ommani ogoh qilish maqsadida aholi zich joylarga baland ovoz bilan: *"Odamlar, o', odamlar! Bog'da bitgan bodomni eshitmadim demanglar! Eshitganlar jilmanglar! Eshitganlar darmondan eshitmagan armonda..."* kabi an'anaviy da'vat bilan boshlanuvchi bundan so'ng asosiy xabar bayoni keltiriluvchi murojaatlardan kelib foydalanganlarki, bu holat publitsistik uslubning ilk ko'rinishi ekan. Davr o'tishi bilan xalq ommasini siyosiy va tashkiliy jihatda uyushtirish, harakatga keltirishda og'zaki nutqninggina talabga to'liq javob bera olmasligi natijasida alohida yozma nutqqa ehtiyoj tug'ildi. Shunday qilib, bu tom ma'noda o'zbek matbuot uslubining shakllanishi **"Turkiston viloyatining gazetasi"** gazetasi bilan bog'liq. Bunda Furqat, Is'hoqxon (Ibrat), Sattorxon, Hakimxon boshqalarning xizmatlari katta. **"Ishtirokiyun"**, **"Qizil bayroq"**, **"Turkiston"**, **"Qizil O'zbekiston"** gazetalarining chiqa boshlashi bilan bu jarayon tezlashdi. Bu borada H.H.Niyoziy, A.Avloniy, Fitrat, Cho'lpon, A.Qodiriy, S.Ayniy, keyinchalik G'.G'ulom, Oybek, H.Olimjon, A.Qahhor, S.Ahmad, O.Sharofiddinov, O'.Hoshimov, E.Vohidov, A.Oripov, E.A'zamov kabi adiblar, ziyolilar va jurnalistlarning xizmatlari katta bo'ldi.

Matbuot nutqi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, adabiy-fanqadibiy, diniy-irfoniy mavzulardagi ommaviy nashrlarda, ommaviy siyosiy jurnallarda, barcha gazetalarda, notiqning jumladan, radio va televidenie orqali chiqishlarida, qisqa qilib aytilgan, ommaviy axborot vositalari (OAV)da namoyon bo'la olishi va hular matbuot nutqi sifatida tan olindi.

Ushbu tunda gazeta nutqi matbuot nutqining eng asosiy turi hisoblanadi. Boisi gazeta nutqi ommaning faolligini shartida nihoyatda tezkordir. Voqea-hodisa, biror xabarning shartida, aniq lo'nda va tez yetib borishida gazetaning ahamiyati qayta. Shuningdek, gazeta ijtimoiy hayot sohalarini to'liq qamrab badiiy, qolaversa, uning sahifalarida **maqola, reportaj, korespondensiya, ocherk, feleton, pamflet, esse, bosh maqola, roman, sabar** va hatto **badiiy asarlardan parchalar** ham beriladiki, bu nutqning barcha tabaqalariga tegishli va tushinarli bo'ladi.

Matbuotda ilmiy munozaralar, taqrizlar, ilmiy-ommabop maqolalar, badiiy ijodning g'azal, she'r, doston, hikoya, esse, hajviya kabi namunalari; tarix va boshqa sohalariga aloqador jihatlarning yaratilishi uning adabiy nutq uslublarining ilmiy, rasmiy va badiiy nutq turlarini bilan mushtarakligiga, aloqadorligiga sabab bo'ladi. Shuningdek, matbuot nutqi adabiy til me'yorlariga to'la amal qilish bilan birga, uning sayqal topishi va rivojlanishida ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Uning sahifalari orqali *dala malikasi, zangori kema kapitani, qora oltin, oq oltin, kumush tola, zangori olov, po'lat etaklar, zangori ekran, so'lat pahlavonlar, obihayot posbonlari, ruhimiz injenerlari, qizil partiya, ustuvor yo'nalish, moddiy ne'mat, vatanimizning tarjimai holi, po'kallik xitirochilari, shaharsozlar, hayot sinovi, bayram dasturxonlari, gasta yakka hokimligi, oraliq ekin, iqtisodiyotimiz qon tomiri, o'zbek xotasi* kabi minglab so'z va iboralar (tasviriy vositalar) hayotga yo'llanma oldi hamda adabiy tilimizning boyligiga aylandi. Bu kabi rangba-rang va keng qamrovli ibora va so'zlar matbuotning ko'p ming mualliflar, jumladan, fikrlar, g'oyalar va takliflarga tayanib ish ko'rishi natijasida paydo bo'ladi.

Gazeta nutqida ritorik so'roq gaplar, bir tarkibli, undov, ritorik murojaat, atov gap turlari, shuningdek, shevalarga xos shakllar (**-yotir, ajak** kabi) ko'p qo'llaniladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, jonli so'zlashuvga xos shakllarning ibora va birikmalarning tasviriylikni oshiruvchi, kishi ruhiyatiga ijobiy ta'sir etuvchi vositalar bilan almashtirilishi (*qizlar to'dasi o'rnida qizlar guldastasi, qizlar davrasi; mamlakatimiz, yurtimiz tarixi o'rnida vatanimiz tarjimai holi; paxta terish mashinasi o'rnida po'lat etagi* yoki hozirgi zamon fe'l shaklini yasovchi **-yapti** o'rnida **-mo** shaklining qo'llanilishi) ham matbuot nutqining vazifasidir.

Matbuot sahifalarida xabar, ma'ruza, shuningdek, tabriknomasi, qaror, e'lon, buyruq, farmon, qonun kabilar berilar ekan, tabiiy matbuot nutqi bir jihatdan rasmiy ish qog'ozlari nutqini ham o'z aks ettiradi (*ochiq ovoz, yopiq ovoz, ovozga qo'ymoq, ovoz bermoq; qo'ymoq, imzo chekmoq; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, O'zbekiston Oliy Kengashi Rayosati, O'zbekiston hukumati, hukumat rahbarlari* kabi davlatlar, idoralar, tashkilotlar, mansab va unvanli shaxslar bildiruvchi atamalar qo'llaniladi).

Shuningdek, sub'yektiv baho munosabatini ifodalovchi *fidokorlik, ustuvor, do'stlik, mardona barkamol, ziyokor, bellashmagan, g'ayrat-shijoat, hayot sinovi, istiqbol ufqlari* kabi so'z va iboralar bundan tashqari, bularga zid bo'lgan *qotillik, tekinxo'rlik, tekin tomonlik, jinoyatchilik, dangasalik, bachkanalik, muttahamlik, boqmonda qolish* kabilar ham matbuot nutqida o'z aksini topadi.

Ta'kidlash kerakki, matbuot sahifalarida yangi — noan'anaviy yasamalar, «kalka»lar ham uchraydi: *sun'iy yo'ldosh, uyali telefon, baqar, varaqasi, raqobatbardosh korxonalar, qo'shma korxonalar, importbop tovarlar, xorijiy hamkor (sherik)* kabi.

Xullas, matbuot nutqi o'z vazifasining keng qamrovlilikini, imkoniyatlarining nihoyatda kengligi, adabiy tilning barcha imkoniyatlaridan foydalana olishi, boshqa nutq ko'rinishlarini o'zida mujassam etganligi, tezkorligi, hozirjavobligi va, ayni zamonda, adabiy til taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsata olishi kabi jihatlar bilan ajralib turadi.

Savollar:

1. Publitsistik uslub qanday uslub?
2. Publitsistik uslubning qanday ko'rinishlari mavjud?
3. Publitsistik uslubning vazifasi nimalardan iborat?

Tayanch soʻzlar:

Publitsistik — ijtimoiy, xalqchil, ommaviy

Funktional — vazifaviy.

Emotsiya — his-hayajon.

BADIY USLUB

Reja:

1. Badiiy uslubning oʻziga xos xususiyatlari.
2. Badiiy uslubda soʻzning oʻrni.
3. Xulosa.

Badiiy uslub keng qamrovli usublardan hisoblanadi. Sababi badiiy uslub oʻzi uchun xos boʻlgan barcha vositalardan tashqari, nutqning boshqa koʻrinishlariga taalluqli jihatlarini ham qamrab oladi.

Boshqacha aytganda, badiiy uslubda publitsistik, ilmiy va rasmiy nutq koʻrinishlari mavjud, biroq publitsistik uslub qanchalik keng qamrovli boʻlmasin unda tilning badiiy tasvir vositalaridan foydalanish badiiy uslubga qaraganda, ancha chegaralangan boʻladi. Masalan, badiiy uslubda asar qahramonlari maʼlum maqsadlarda jonli soʻzlashuv nutqida, shevalarda gapiradilar. Mazkur uslubda oʻrni bilan hujjatlar, maktublar, yozishmalar va boshqa ish qogʻozlaridan foydalaniladi. Ayrim hollarda ilmiy tadqiqotlardan parchalar kiritiladi ham.

Badiiy uslubda asarning janr xususiyatlariga koʻra tarixiy va oʻtkirgan soʻzlardan, shuningdek, noadabiy til vositalari (jargon, argo, varvarizm, vulgarizm kabi)dan ham keng foydalaniladi. Boshqacha aytganda, badiiy uslubda adabiy til meʼyorlaridan chekinishlar ham yiq beradlki, bu — badiiy til tushunchasi adabiy til tushunchasidan keng ekanligini koʻrsatadi.

Badiiy tasvir vositalari boshqa usublarda ham ishlatiladi. Boshqa usublarda ham lugʻaviy birliklarning ishlatilishi cheklanmaganligi holda, badiiy uslubda, odatda, kitobiy soʻzlar, tasviriylikni ifodalovchi soʻzlar koʻproq ishlatiladi. Ayniqsa, badiiy uslubning bir koʻrinishi poetik nutqda koʻtarinkilikni taʼminlovchi soʻzlar (okkazionalizmlar), shangni taʼminlovchi grammatik shakllar keng qoʻllaniladi.

Ma'lumki, badiiy nutqning uchta alohida-alohida ko'rinishi mavjud: **nasriy nutq**, **poetik nutq**, **dramatik nutq**. Bular ichki poetik nutq tilning badiiy tasvir vositalaridan foydalanishning yuksak namunasi hisoblanadi:

*Deyman: sahar shafaqdan
Uchqunmi, lolasanmu,
Shodlik mayiga to'lgan
Gulgun piyolasanmu?*

*Deydi: Qiziq, savoling,
Qayda ajab xayoling,
Yellar ko'rib bu, holing,
Kulmoqda: bolasanmu? (E.Vohidov)*

She'riy parchadagi *shafaq, may, gulgun, qayda* so'zlari to'la ma'noda poetik nutq uchun xoslangan. *Lolasanmu, piyolasanmu, bolasanmu* so'zlaridagi **-mu** so'roq yuklamasi hozirgi adabiy me'yoridagi **-mi** o'rnida qo'llanib, badiiylik uchun xizmat qilgan.

Affikslarning tarixiy shakllari: **-ur, -din, -mish, -mu, -dur, -mish, -g'ay, -g'u** kabilar ham poetik nutq ko'rinishiga xosdir.

Shuningdek, she'riyatda **lekin** so'zi **lek, bilan** so'zi **bila, -ila,** shakllarida, **u, bu, shu, o'sha** olmoshlari **ul, bul, shul, o'shal** kabi tarixiy shakllarda, **bul** so'zi qisqarib **ul** shaklida, **-moq** affiksi **-moq** tarzida ham qo'llaniladi. O'xshatish vositalari (**dek, day, o'xshatish, xuddi, go'yo, misli, singari, kabi, hamisoli, yanglig'**)dan ham keng foydalaniladi.

Umuman, badiiy nutqda har bir so'z fikrni obrazli, ta'sirchan qifodalashga xizmat qilishi kerak. Shu bois tilning tasviriy vositalari (metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, epiteta, o'xshatish, kesatish, mubolag'a, kichraytirish, jonlantirish; antiteza, ritorik so'roq, ellipsis, takror)dan keng va unumli foydalaniladi (A.Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanidagi Otabek va Kumush uchrashuvi yoki A.Qahhorning "Anor" hikoyasidagi Turobjon va xotini o'rtasidagi suhbatni eslang).

Demak, badiiy nutqning o'ziga xos asosiy xususiyati tilning badiiy tasvir vositalaridan imkon boricha to'la foydalana olishi mumkinligidir. Yozuvchining inson ma'naviy dunyosiga ta'sir etishni maqsad qilishi

...vazifadida ekan. Bu narsa poetik nutqqa ham, nasriy va dramatik nutqqa ham tegishlidir.

Kullar, tilning tasviriy vositalaridan foydalanish nutq ko'rinishlari tuzatishda farq qiladi.

Ilmiy va rasmiy hujjatlar nutqida bu vositalardan deyarli foydalanilmaydi. Jonli so'zlashuv va matbuot nutqida ulardan o'rnini to'liq foydalanish mumkin. Badiiy nutqda esa bulardan foydalanmaslik mumkin emas. Bularsiz badiiy nutqning o'zi mavjud emas.

Savollar:

1. Badiiy nutq uslubi nima?
2. Badiiy nutq uslubida qanday leksik qatlamlardan foydalaniladi?
3. Uning o'ziga xos xususiyatlari qaysilar?

Tayanch so'zlar:

Pollsemiya — ko'p ma'noli so'zlar

Kommunikatsiya — aloqa-aralashuv

Nomlnatsiya — atov so'zlar

Metafora, metonimiya, sinegdoxa, vazifadoshlik — til tavriry vositalari

LEKSIK USLUBIYAT

Reja:

1. So'z va uning ma'nosi.
2. Omonim (omofon, omofoma, omograf)lar.
3. Paronimlar.
4. Sinonimlar, uslubiy sinonimlar.
5. Antonimlar.
6. Xulosa.

So'z eng muhim til birliklaridan biridir, chunki kishilar so'z vositasida bir-birlari bilan fikrlashadilar va bir-birlarini anglaydilar. Tilning umumiy lug'at tarkibini tilda mavjud bo'lgan barcha faol va nolfaol so'zlar tashkil qilib, ular kishilarning kundalik turmush sharoitida, ijtimoiy ishlab chiqarishda va boshqa munosabatlarida shu tilda so'zlashuvchi shaxslarning barchasi uchun xizmat qiladi.

Ayrim olingan har bir soʻzning ham tovush, ham maʼno tomoni mavjud boʻlib, uning maʼno tomoni bilan leksikologiyaning maxsus sohasi — semasiologiya shugʻullanadi. Semasiologiya soʻzi semasiologiya maʼno, logos — taʼlimot soʻzlaridan tarkib topgan boʻlib, soʻzning maʼno xususiyatlarini oʻrganadi. Koʻrinadiki, soʻzning maʼno tarkibi bilan bogʻliq hodisalarni oʻrganuvchi soha **semasiologiya** deyiladi.

Nutqning aniqligi va ravonligi, avvalo, soʻzdan toʻgʻri foydalanish bilan bogʻliq. Buning uchun esa soʻzning leksik maʼnosini anglash zarur. Ayni holda mantiqiy fikr ifodalab boʻlmaydi. Masalan, *Endi dilrabo kuy qoʻshiq tinglab tomosha qiling* gapidagi **tomosha qilmoq** iborasi xat bilan qoʻllanilgan. Sababi kuy va qoʻshiq tomosha qilinmaydi (raqs tomosha qilinadi), aksincha, tinglanadi, xolos.

Shu oʻrinda M.V.Lomonosovning: *“Agarda biror narsani aniqlash uchun ifodalay olmas ekanmiz, bunda tilimizdan emas, balki uquqimizdan mahoratimizdan gina qilishimiz kerak”*, — degan fikrini keltirish joiz.

Zero, Zahiriddin Muhammad Bobur oʻgʻli Humoyunga yozgan maktublaridan birida uning fikr ravonligi va aniqligiga rioyati boʻlmaganligidan tashvishlanib, *“Xatingni xud tashvish bilan oʻqib boʻladi... Munding nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila but, ham senga tashvish ozroq boʻlur, ham oʻqigʻuvchiga”*, — deydi.

Tilning nazariy va amaliy asoslaridan xabardor boʻlish — ona tili bilan mukammal va puxta egallashning muhim omilidir.

Omonimlar fonetik jihatdan va shaklan teng, maʼno jihatdan oʻzaro farqlanuvchi soʻzlar majmuasidir. Masalan, *ot* (1. Hayvon, 2. Islm, nom, 3. III shaxs buyruq feʼli) soʻzi omonim boʻlib, bir qarashda koʻp maʼnoli (polisemantik) soʻzdek tuyuladi. Biroq bu hodisalarni bir-biridan farqlash lozim. Polisemiyada, omonimlardan farqli oʻlaroq soʻzlar oʻrtasidagi maʼno yaqinligi mavjud boʻladi: *ishning koʻzi, yogʻochning koʻzi, buloqning koʻzi, uzukning koʻzi* kabi.

Oʻzbek tilida omonimlar turli koʻrinishlarga ega. Omonimlarning ikkinchi tipi **omoformalardir**.

Omoformalarning omonimlardan farqi, ular koʻpincha boshqa boshqa soʻz turkumlariga mansub boʻladi: *olma* (meva — ot) — *olma* (III shaxs buyruq feʼli), *qoʻy* (uy hayvoni — ot) — *qoʻy* (III shaxs buyruq feʼli) kabi.

Omonimlarning uchinchi tipi **omofonlardir**. Bular talaffuzi va yozilishi bir xil, yozilishi va maʼnosi boshqa-boshqa soʻzlardir: yet

(kon) — yetdi (fe'li), yot (begona; III shaxs buyruq fe'li) — yod (xotira kabi).

Omonimlarning to'rtinchi tipi — **omograflar** bo'lib, ular yozilishi bir sil, biroq talaffuzi, eshutilishi va ma'nosi boshqa-boshqa so'zlardir: *tok* (uzum) — *tok* (elektr quvvati), *tur* (xil, nav; III shaxs buyruq fe'li) — *tur* (davra — *Ikkinchi tur futbol musobaqalari boshlandi* kabi).

Yuqorida sanab o'tilgan omonimlar va ularning tiplari orasidagi farqlar nutq jarayonida yoki matnda reallashadi, ular tilda yolg'iz holda deyarli uchramaydi.

Bu o'rnida ta'kidlash kerakki, yozuv va birikmalarning ham teng kuchi, o'xshash bo'lishi omonimlarning doirasini kengaytiradi:

*Inson bo'lib qidirmadim yengil turmush va tanga,
Kuch-quvvatim, ham hayotim — bor imkonim Vatanga.
Vatan desam umrim uzoq, hayot porloq ko'rinur,
Chunki Vatan sevgisidan kuch-quvvat jon va tanga.*

*Deydilarki, kungaboqar,
Umr bo'yi kunga boqar.*

*Berdim senga olmani,
Olma dedi: Ol, mani.
Gar olmasang olmani,
Olmanimas, ol, ma'ni (Anvaro)*

Nutqda omofonlarni bunday ishlatish orqali so'z o'yinlari hosil qilinadi. Bunda so'zmi, so'z birikmasimi, ularning matndagi har galgi takrori muhim. Sababi bu holat so'z o'yini, askiya va qochiriqlarda juda qo'l keladi:

U yosh yigit iste'dodli shoir oldiga kelib yozuvchilik da'vo qila boshlabdi:

— *Men ko'p vaqtlardan beri adabiy ishlar bilan shug'ullanib kelayotirman. Istardimki, men yozgan asarlar ham nashr qilinsa.*

— *Siz nozimmi yoki nosir? — so'rabdi shoir diqqat bilan uning so'zlarini eshitgach.*

Yigit yelkasini qisib javob beribdi:

— *Nozim ham, Nosir ham emasman, mening nomim Karimjon! («O'zbekiston madaniyati» dan).*

Bu o'rinda adabiyotdan butunlay xabarsiz kishining qiyin ahvolga tushib qolishi (nozim — **nazm**, nosir — **nasr** — adabiy terminlar

(poeziya va proza); uning omonimlari — Nozim, Nosir — atoqliq
latifa muallifi tomonidan mohirona ochib berilgan.

Omonimlardan xalq og'zaki ijodiyotida, badiiy adabiyotda max
janr — tuyuq tuzishda keng foydalaniladi:

*Qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot,
Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot,
Nasihatim yod qilib ol, farzandim,
Yolg'iz yursa chang chiqarmas yaxshi ot* (Folklor).

Paronimlar ham omonimlar bilan ba'zi jihatlariga ko
o'xshashdir. Paronimlar tovush jihatidan butunlay teng bo'lmasa
talaffuz jihatdan bir-biriga yaqin so'zlardir: *adresat — adresat,
diplomat — diplomant, surat — sur'at, abzal — afzal, mavsum
maxsum* kabi.

Nutqda noaniqlikka yo'l qo'ymaslik uchun tildagi paronimla
farqlash, ular anglatadigan ma'nolarni ajratish zarur, aks holda qo'
xatolar sodir bo'lishi, natijada jumla g'alizligi yuzaga kelishi mumk
*Bu sharoitda yashaganimdan ko'ra uzoq-uzoqlarga bosh olib ketgan
abzal. Bir kunda 1,0%, maxsum boshidan buyon 76,10
Karxonamizda 200 ga yaqin ishchi xizmat qiladi. Chanoqlardagi lo'
ochilgan paxtalar quyoshda yarqirab kumushdek toblanadi. Xa
yoqilg'i* kabi va b.

Misollarda **afzal** so'zi **abzal**, **mavsum** so'zi **maxsum**, **korxo**
so'zi **karxona**, **tovlendi** so'zi **toblendi**, **yonilg'i** so'zi **yoqilg'i** tarz
noto'g'ri qo'llanganligidan uslubiy g'alizlik va, ayni zamonda, ku
qo'zg'atuvchi holat yuzaga kelgan.

Sinonimlar ma'nodosh yoki o'zaro yaqin ma'noli, talaffuz
imlosi boshqa-boshqa so'zlar yig'indisidir: *chiroyli, go'zal, ko'rka
ko'hlik, xushro'y, suluv, zebo* kabi.

Nutqning aniq va ravshan bo'lishi sinonimlardan to'g'
foydalanishga bog'liq. Ba'zi sinonim so'zlarning ma'nosini farqlan
birmuncha murakkab bo'ladi. Bu borada hatto mutaxassislar ha
ikkilanib qoladigan jihatlar mavjud: *iflos, isqirt, irkit, isliqi, iqni
olqindi, yulqindi* kabilar.

Sinonim so'zlarning ma'no qirralarini to'g'ri anglash va o'z o'rnid
qo'llash ularning qanday so'zlar bilan birikib kela olish darajasiq

Masalan, *qasamyod qilmoq, qasam ichmoq*. Qiyoslang: *qasam qilmoq, ont qilmoq, qasam qilmoq* deb bo'lmaydi va b.

Bu faktlari sinonim so'zlar bilan evfemizmlar orasida ma'lum munosabat borligini ko'rsatadi. Ma'lumki, ochiq aytilishi oqibat, uyat, qo'pol, noxush hisoblangan so'z va iboralarning ana shunday taassurot uyg'otmaydiganlari bilan almashtirilishi evfemizmlarning hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. Masalan, **ko'r** o'rnida *ko'rsatq, a'mo, basir*; **jinni** o'rnida *aqli zaif, aqli noqis, kirdi-chiqdi, qasam bo'qqi* (keyinga ikkitasi shevada) kabilar.

Ushnadir, nutqimiz nozik ma'no qirralariga, shuningdek, rang-barang uslubiy bo'yoqqa ega **evfemik sinonimlarga** ham ega.

Demak, sinonimlar nutqni ravon va ta'sirchan bo'lishida, uslubning rang-barangligini ta'minlashda, uslubiy takrorlardan qochishda zaruriyatli ekan.

Antonimlar o'zaro zid ma'noli so'zlar yig'indisidir. Masalan, *katta-kichik, baland-past, achchiq-chuchuk* kabi.

Ta'kidlash kerakki, bir so'zning bo'lishli-bo'lishsiz shakli (*keldi-ketmadi* kabi) antonimni hosil qilmaydi. Buning uchun zid leksik ma'no munosabati bo'lishi shart.

Antonimik holat so'z birikmalarida ham kuzatiladi: *katta qora sumka — kichik qizil sumka, baland bo'yli semiz yosh kishi — past bo'yli uriq qart kishi* kabi.

Antonimlar tilning kuchli uslubiy vositalaridan biri hisoblanib, ulardan narsa va hodisalarni tasvirlashda, qarama-qarshi qo'yish — kontrastlar hosil qilishda keng foydalaniladi:

Ota-ona uyquga ketdi,

Uyda faqat Inobat bedor...

Kichik qalbd *buyuk sevinch bor,*

Yer yuzini tutib ketguday (Zulfiya).

Zitlash munosabatini ifodalashning ko'rinishlaridan yana biri **oksimorondir**.

Oksimoron — kishi yoki predmetning tabiati va mohiyatiga xos bo'lmagan belgini unga nisbatan qo'llab, antonimik munosabat hosil qilishdir. Sifat+ot tipidagi mantiqiy nomuvofiq so'zlardan original uslubiy birikma hosil bo'ladi: *shirin dard, aqlli tentak, soqolli ko'sa, qorong'i kun* kabi.

Savollar:

1. Soʻzning qanday maʼnolari mavjud?
2. Omonimlarning qanday tiplari bor?
3. Omonimlarning paronimlardan farqi nimada?
4. Sintaktik omonimiya deganda nimani tushunasiz?
5. Sinonimlarning nutqiy ahamiyati qay darajada?
6. Antonimlar va ularning qanday koʻrinishlari mavjud?

Tayan ch soʻzlar:

Omonimiya — shakldosh soʻzlar

Paronimiya — talaffuzi yaqin soʻzlar

Sinonimiya — maʼnodosh soʻzlar

Antonimiya — zid maʼnoli soʻzlar

Oksimoron — grekcha oxumoron — oʻtkir maʼn bemaʼnilik

FAOL VA NOFAOL LUGʻATGA OID SOʻZLARING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Faol va nofaol soʻzlar.
2. Arxaizm (eskirgan soʻz) va istorizm (tarixiy soʻz)larning uslubiy vazifasi.
3. Neologizm (yangi soʻz)larning uslubiy vazifasi.
4. Qoʻllanishi chegaralangan leksikaning uslubiy xususiyatlari.
5. Xulosa.

Til taraqqiyoti bilan undagi soʻzlarning yangi-yangilari paydo boʻlishi, neytrallashishi, eskirishi, isteʼmoldan chiqishi tabiiy hodisa. Shunga koʻra umumxalq lugʻat tarkibini ikkiga ajratish mumkin: **faol soʻzlar va nofaol soʻzlar**.

Faol soʻzlarga maʼnosi deyarli barchaga tushunarli, kundalik hayotda keng qoʻllaniluvchi soʻzlar kiradi.

Nofaol soʻzlarga esa eskilik boʻyogʻi aniq bilinib turadigan va koʻpchilikka maʼlum boʻlmagan soʻzlar mansub. Kundalik muomala va muloqotda ishlatiladigan bu guruh soʻzlar ham ikkiga boʻlinadi: **eskirib qolgan soʻzlar** (arxaizmlar, istorizmlar) va **yangi soʻzlar** (neologizmlar).

Arxaizm va istorizmlarning uslubiy vazifasi. Soʻz maʼnosining tushishi va turli sabablarga koʻra uning oʻrnini boshqa soʻz egallashi natijasida arxaizm paydo boʻladi: *avaxta* — *qamoqxona* kabi.

Arxaiklashishning 2 xil koʻrinishi mavjud:

1. Bunda soʻz yaxlitligicha eskiradi. Bu **leksik arxaizm** deyiladi: *osmon* (osmon), *dovot* (siyohdon) kabi.

2. Soʻz maʼnolari eskiradi. Bu **semantik arxaizm** deyiladi: *nishon* soʻzining “orden” maʼnosi, *gʻanimat* soʻzining “oʻlja” maʼnolarigina qolgan.

Shuningdek, arxaizmlardan turli maqsadlarda badiiy asarlarda, oʻyot va turli mazmunda yozilgan ijtimoiy maqolalarda keng foydalaniladi. Shuni ham taʼkidlash kerakki, ayrim eskirgan soʻzlar faqat oʻtish bilan, ijtimoiy sharoitdan kelib chiqib, faollashishi ham mumkin: *gardun* — *osmon*, *gazniqob* — *protivogaz*, *musofirxona* — *oʻstimonxona*, *kichik daha* — *mikrorayon* kabi.

Hozirgi hayotda uchramaydigan, faqat narsa yoki voqea-hodisalarning nomini bildiruvchi soʻzlar **istorizm** (tarixiy soʻz)lar deyiladi. Masalan, *yasovul*, *qozi*, *qozixona*, *bek*, *gumashta* kabi.

Ilmiy adabiyotlarda tarixiy soʻzlar oʻzi anglatgan narsa va hodisalarning yagona atamasi boʻlganligi uchun ularning oʻrnini bosa oluvchi sinonimi yoʻq deyiladi. Shu xususiyati bilan ular arxaizmlardan farqlanadi.

Ilmiy jamiyat rivoji va til taraqqiyoti natijasida oʻzi anglatgan narsa-hodisalarning yagona atamasi boʻlmish istorizmlar ham qayta “tiritishi” — faollashishi mumkin ekan. Masalan, *vazir*, *mirshab*, *qozi* va b.

Vasiqasi yoʻq va *oʻziga xon*, *oʻziga bek* iboralaridagi **vasiqa**, **bek**, **xon** soʻzlari tarixiy soʻzlar boʻlsa-da, ular bu oʻrinda iboradan ajratilgan majoziy maʼnoga singib ketgan.

Tarixchi, olim va yozuvchilar tarixiy voqealarning asl ruhini ifodalash maqsadida istorizmlardan foydalanadilar: *Qorani oqlash hech bir podshoning yosasiga sigʻmaydi* (O.) *Jinoyatchi yosoqqa tortilar edi*. *Bozorni aylanib yuradigan poyaki voqeadan boshdan-oyoq sabardor ekan* (A.Q.) gaplaridagi **yosa**, **yosoq** va **poyaki** soʻzlari tarixiy boʻlib, “qonun”, “tartib”, “chilim”, “oʻlim jazosi” va “chilim chektiruvchi kishi” maʼnolarini anglatadi.

Neologizmlarning uslubiy vazifasi. Ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatda boʻladigan oʻzgarishlar, fan-texnika yangiliklari, sanʼat, adabiyot va publitsistikadagi yangicha tushunchalar, jamiyatning,

hayotning talab-ehtiyoji bilan paydo bo'lgan so'zlar **neologizmlar** (yangi so'zlar)dir. Neologizmlar bir necha yo'llar bilan hosil bo'ladi:

1. Tilning ichki imkoniyatlari bazasida yangi so'z yasash orqali.

2. Tildagi mavjud so'zlardan birining yangi ma'noda qo'llanish orqali.

3. Boshqa tillardan so'z qabul qilish orqali.

Neologizmlarning yana bir ko'rinishi **okkazionalizmlar**dir. Okkazional so'zlar individual (xususiy) nutqqa xos bo'lib, nogahonli favqulodda, tesha tegmagan so'z va iboralar hamda "topilma"lardir. Masalan, *Keyingi paytlarda oshxo'rchiligimizda yana bitta yomir xususiyat sezilmoqda* (S.Ahmad). *Talabalik yillarimizda har payshan kuni palovxonligimiz bo'lardi* (muallifdan) gaplaridagi *oshxo'rchilik*, *palovxonlik* so'zlari alohida uslub hosil bo'lishiga sabab bo'lgan. Yoki G'.G'ulom ijodida uchraydigan *mehnatobod*, *urushtalab*, *insonozor*, *xushaxloq*, shuningdek, *eldosh*, *erdosh*, *kurashdosh*, *qalamdosh* kabi so'zlar ham o'ziga xos okkazional so'zlardir.

Dialektizmlar. O'zbek tilining dialektal qatlami rang-barang va ayni zamonda, murakkab bo'lib, o'zining fonetik, leksik-grammatik xususiyatlari bilan adabiy tildan keskin ajralib turadi. Shuningdek, o'zaro farqlanuvchi sheva va dialektlariga ham ega.

Dialektizmlarning adabiy tildan farqi, avvalo, talaffuzda ko'rinadi: *gurgut — gugurt, bala — bola, chig'di — chiqdi* kabi.

Shuningdek, dialektizmlar fan, texnika va san'atga oid murakkab terminlarga ega emasligi bilan ham adabiy tildan farqlanadi.

Ayrim so'zlar adabiy til va dialektlarda boshqa-boshqa ma'nolarda ishlatiladi. Masalan, *buvi — momo*, shevada — *ena* (*opa* ham shunday) *oq choy —* Toshkent shevasida shirchoy ma'nosida, Farg'onada shevasida "ko'k choy" ma'nolarida ishlatiladi. Yoki *pashsha — chivin*, *gilos — olcha* kabi so'zlar o'rtasidagi munozara ham shula jumlasidandir.

Adabiy tilning ayrim dialektlari lug'aviy birliklari hisobiga boyish tabiiy. Bu holatni dialektal birliklarning badiiy asarlarda qo'llanilish hodisasi bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Sababi muqobili adabiy tilda mavjud bo'lmagan tushunchalar dialektizmlar vositasida bayon qilinadi. Masalan, A.Qahhorning "O'tmishdan ertaklar" asarida *bo'ri* (jo'xoripoyaning bir bo'g'ini), *ro'yja* ("prostina"), *buvak* (chaqaloq) so'zlari uchraydi.

Shevaga xos so'zlar tilning boyishiga xizmat qilsa (uni adabiy tilda mavjud muqobili bilan almashtirish qiyin bo'lsa), u holda ulardan foydalanish mumkin (*yelvizak, muzqaymoq, sinchalak* kabi).

Tildagi kasb-hunarga doir so'z va iboralar **professionalizm** deb yuritiladi. Masalan, *andava, rax, gazcho'p, vassa* so'zlari suvoqchilikka oid so'zlardir. Shuningdek, chorvachilik, dehqonchilik, ipakchilik, bundan tashqari, zargarlik, kulollik, bo'zchilik, etikdo'zlik, duradgorlik kabi kasb-korga oid professional so'zlar ham bor.

Ijtimoiy jargonning yana bir ko'rinishi — o'g'ri (kissavur), qimorboz, dallol, tekinxo'r, qotil kabi mayda jinoiy guruh vakillari tili argodir. Bu kriptologiya (yashirin nutq) deb ham yuritiladi. Masalan, *yakan, loy — pul; bedana, pushka — to'pponcha; pero — pichoq* kabi.

Yoki *Men kitob o'qidim* gapining **mezen kizltozob o'ziqizidizim** tarzida, ayniqsa, yoshlar nutqida yangrash ham bolalar argosining bir ko'rinishi hisoblanadi.

Biroq badiiy adabiyotda noadabiy til vositalari (jargon, argo kabi)dan personajlar nutqini individuallashtirishda, muayyan ruhiy vaziyatni yaratishda foydalaniladi. Masalan, T.Malikning "Shaytanat", Shukrulloning "Kafansiz ko'milganlar", S.Qahhorning "Daydi qizning daftari" kitoblari va qator detektiv asarlarda bunga misollar talaygina.

Savollar:

1. Faol so'zlar deganda nimani tushunasiz?
2. Nofaol so'zlar deganda-chi?
3. Arxaizm va istorizmlarning o'zaro farqi nimada?
4. Arxaizmlarning qayta faollashuvi mumkinmi?
5. Neologizmlar qanday paydo bo'ladi?
6. Okkazionalizmlarning neologizmlardan farqi nimada?
7. Noadabiy til vositalari (jargon, argo)ning paydo bo'lish sabablari.

Tayanch so'zlar:

Arxaizm — eskirgan so'zlar,

Istorizm — tarixiy so'zlar.

Neologizm — yangi so'zlar.

Okkazionalizm — nogahoniy so'zlar, individual nutq.

Professionalizm — biror kasb hunarga oid so'zlar.

Termin — lotincha terminos - "chegapa" belgisi, "chek".

Kanselyarizm — rasmiy uslubga xos soʻz va iboralar.

Jargon — fransuzcha jargon — “buzilgan til”.

Argo — biror guruhning yashirin tili.

Abdol — taqvodor, xudojoʻy maʼnosida.

EMOTSIONAL-EKSPRESSIV LEKSIKANING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Raja:

1. Intellektual soʻzlar.
2. Emotsional-ekspressiv soʻzlarning turlari.
3. Evfemizmlar va ularning uslubiy qimmatlari.
4. Xulosa.

Emotsional-ekspressiv boʻyoqqa ega boʻlmagan soʻzlar **intelektual soʻzlar** deyiladi. Masalan, kundalik hayotimizda koʻp ishlatadigan *yer, suv, non, qalam, daftar, bormoq, kelmoq, qora, oq* kabilar. Kasb-hunarlariga oid maxsus soʻzlar, termin va ijtimoiy-siyosiy leksikaga oid soʻzlar ham shular jumlasidandir. Uslubiy jihatdan chegaralanmagan, hamma uchun birday boʻlgan bu soʻzlar **uslubiy neytral soʻzlar** ham deb yuritiladi.

Tilimizda, yuqoridagilardan farqli oʻlaroq, emotsional va ekspressiv soʻzlar ham bor. Ular nutqqa koʻtarinkilik, tantanavorlik bagʻishlaydi.

Ayrim neytral soʻzlar borki, ularda maʼno koʻchishi bilan ekspressiya paydo boʻladi. Masalan, **gumbaz** soʻzi neytral boʻlib, odamga nisbatan qoʻllanganda, *semiz, besoʻnaqay* maʼnosini beradi. **Latta, tulki, toʻnka** soʻzlari ham shunday va boshqalar.

Bu holatni sinonim soʻzlarni tahlil qilganda yaqqol kuzatishimiz mumkin: *yuz, bet, aft, bashara, turq, chehra, oraz, jamol, ruxsor* kabilar.

Bundan tashqari, emotsional-ekspressiv maʼno matn ichida ham kuzatiladi.

Turli emotsional-ekspressiv maʼno ifodasiga koʻra soʻzlarni: a) ijobiy maʼno oʻttenkasi (boʻyogʻi)ga ega boʻlgan soʻzlar; b) salbiy maʼno oʻttenkasi (boʻyogʻi)ga ega boʻlgan soʻzlar kabi ikkiga ajratish mumkin.

1-turga quyidagilar kiradi:

a) erkalash-suyish va xushmuomalalikni bildiruvchi soʻzlar: *toychoq, qoʻzichoq, qizaloq, oʻrgilay, aylanay* va boshqalar.

b) tantanali, ritorik va poetik soʻzlar. Bunday soʻzlarning aksariyatini arxaizmlar tashkil etadi. Shuningdek, xalq ogʻzaki ijodiyotiga xos soʻzlar ham shular jumlasidandir: *alp* (pahlavon), *sinchi* (otni yaxshi biluvchi), *halolxoʻr* (vijdonli), *kelbatli* (qaddi-qomatli) kabi.

2-turga quyidagilar kiradi:

a) mensimaslik, jirkanish bildiruvchi soʻzlar: *oyimcha*, *oyimtilla*, *baloxoʻr*, *soʻtak*, *xomkalla*, *oʻlimtik*, *tirrancha*, *zumrasha*, *xumpar*, *kallavaram*, *qoqbosh*, *tirmizak* kabi.

b) qargʻish, soʻkish va haqorat soʻzlar: *goʻrsoʻxta*, *olqindi*, *yulqindi*, *turqing qurgʻur*, *yer yutgur*, *bologa yoʻliqqir*, *yigit qoningga boʻyalgir*, *oqʻzingdan qoning kelgir*, *he, onangni...*, *qizingni... falon qilay* kabilar.

v) xalq tilidagi hazil soʻz va iboralar: *oyogʻini toʻrtta qilmoq* (uylantirmoq), *devor suyatmoq* (aldamoq), *tulkiga motor qoʻymoq* (rosa aldamoq).

g) salbiy boʻyoqqa ega boʻlgan publitsistik leksika: *qora guruh*, *sariq iblis*, *maʼrifat dushmanlari* kabi va b.

Ochiq aytish manʼ etilgan yoki noqulay hisoblangan, odobsizlik, xalqsizlik sanalgan, tasavvurda qoʻrqinch noxushlik uygʻotadigan, hamma vaqt ham ochiq talaffuz qilaverish mumkin boʻlmagan soʻz va iboralarning yashirin, beozorroq tusga kiritib aytish, mumkin qadar "pardali" tarzda bayon etish **evfemizmlardir**. Masalan, **tugʻmoq** oʻrnida *koʻzi yorimoq*, *qutilib olmoq*; **oʻgʻri** oʻrnida *qoʻli egri*; **koʻr** oʻrnida *koʻzi ojiz*, *soʻqir*, *aʻmo*; **oʻlmoq** oʻrnida *nobud boʻlmoq*, *vafot etmoq*, *halok boʻlmoq* kabi soʻz va iboralar **evfemik vositalar** hisoblanadi.

Tilda evfemizmlarning paydo boʻlishi va mavjudligi **tabu** hodisasi bilan aloqadordir. Kishilik jamiyati tarixida tabiat hodisalarining ilohiylashtirilishi (fetishizm), ularning asl sabablariga tushunib yetmaslik, natijada har bir narsa-predmet, voqea-hodisaning oʻz yaratuvchilari, yaʼni xudolari bor deb tushunish zamirida ularning nomlarini tilga olmaslik, manʼ qilish tabuning yuzaga kelishiga sabab boʻlgan. Kishiga zarar yetkazuvchi barcha narsalarning nomi ochiq aytilmagan. Sababi nom predmet bilan bogʻliq, nomi tilga olingan narsa oʻz predmeti — egasini xabardor qiladi va u kelib kishiga zarar yetkazadi, deb tushunilgan. Masalan, **boʻri** oʻrnida *jondor*, *itqush*, *haligi*, *u*; **chayon** oʻrnida *benom*, *eshak*, *kajdum*; **ilon** oʻrnida *argʻamchi*, *sudraluvchi*, *arqon*; **qizamiq** oʻrnida *gul*, *oymoma*, *chechak*; **qoraqurt** oʻrnida *gʻunda*, *olagunda* kabi soʻzlar qoʻllaniladi.

Ekspressiv-emotsional nutq hosil qilishda, tantanavor va ko'tarinki uslubga erishishda evfemizmlarning roli beqiyos. Tilimizda birgina "o'lmoq" tushunchasining 500 ga yaqin evfemik vositasi mavjudki, shulardan yosh bolalar o'limiga nisbatan *go'dagi uchibdi, nobud bo'пти, go'dagi chennabdi (chetlabdi); bolasi gul tergani ketibdi, hur bo'пти* kabi o'nlab ifodalardan foydalanish mumkin.

Tilda aytish noqulay, noo'rin, nutqiy madaniyatsizlik, ma'naviyatsizlik hisoblangan so'z va iboralarni yumshoq, beozor va silliq tarzda ifodalashdan tashqari, qo'pol va dag'al tarzda izhor qilish usuli ham mavjud.

Bu so'zlovchi va yozuvchining voqelikka salbiy munosabatini ifodalashi, nafrat va g'azabini anglatishi natijasi o'laroq yuzaga keluvchi so'z va iboralar evfemizmlarning aksi — **kakofemizm** yoki **disfemizmlardir**.

Bunga o'lmoq tushunchasining yuqorida aytib o'tilgani kabi yumshoq, ijobiy tarzda emas, balki *ko'ziga tuproq to'lmoq, qon daryosida g'arq bo'lmoq, qulog'i ostida qolmoq, asfalasofilinga jo'namoq* tarzida ifodalanishi, ya'ni so'zlovchining voqelikka salbiy munosabati misol bo'la oladi.

Shuningdek, til egalariga ma'lum bo'lgan bu kabi lisoniy evfemalardan tashqari, muayyan nutq talabi bilan yuzaga keladigan kontekstual (presuppozitiv — tagma'noli) evfemik vositalar ham mavjud. Masalan, *Ra'noni egasiga topshirmagunimizcha, — dedi Nigori oyim, — quyilmaydiganga o'xshaydi* (A.Qodiriy). *Mehri gul tergani ketibdi* (so'zlashuvdan). *Avval eson-omon qutilib oling, qizim* (S.Ahmad) gaplarida *egasiga topshirmoq, gul tergani ketmoq, qutilib olmoq* iboralari **erga bermoq, o'lmoq, tug'moq** ma'nolarida qo'llanganki, bular kontekstdan tashqarida boshqa-boshqa ma'no kasb etadi.

Ko'rinadiki, ma'nosi kontekstda ro'yobga chiqadigan evfemik vositalar alohida olinganda, hech qanday uslubiy bo'yoqqa ega bo'lmaydi. Masalan, *Maryamxonim (achchiq ila marjonni uzib otib, yerga urib): — Ol bisotingni, mening gavharim bor, quvvatim bor ko'zimga ko'rinmaydi bunaqa narsalar* (H.H.) matnidagi *gavhar, quvvat* so'zlari **er - turmush o'rtoq** ma'nosida qo'llangan badiiy evfemizmlardir.

Bundan tashqari, badiiy adabiyotda evfemizmlardan satira va yumor, kinoya va hazilomuz tasvir yaratishda ham keng foydalaniladi.

Masalan, H.Hakimzoda **pora bermoq** o'rnida tarnov-parnovini ho'llamoq individual evfemasidan foydalanadi: *Qodirqul: — Biz ham g'shalarchalik tarnov-parnovingizni ho'llab qolarmiz.*

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, evfemik vositalar nafaqat aytish man' etilgan, mumkin bo'lmagan narsa-predmet, voqea-hodisaning nomini yashirish maqsadida, balki madaniy, badiiy, tantanavor nutq hosil qilishda, shuningdek, uslubning rang-barang ko'rinishlarini yaratishda xizmat qilar ekan.

Savollar:

1. Intellektual so'zlar nima?
2. Emotsional-ekspressiv so'zlarning ko'rinishlari bor?
3. Evfemizmlar nima?
4. Tabu va disfemizmlar-chi?

Tayanch so'zlar:

Intellektual — lotincha *intellectus* — “tushuncha”

Ekspressiya — lotincha *Expressio* — ma'nodor, ta'sirli, hodali.

Emotsiya — latincha *emovere* — kishining his-tuyg'usi, kechinmasi, hissiyoti.

Evfemizm — yunoncha *eu* — “yaxshi”, *phemio* — “gapiraman”

Tabu — polinezcha *tabu* — “man' qilmoq”, “cheklamoq”, ta'qiq-lamoq”

Kakofemizm (disfemizm) — “qo'pol gapirmoq” — evfemizmning aksi.

GRAMMATIK USLUBIYAT

Reja:

1. Grammatik uslubiyatning ob'yekti.
2. Morfologik uslubiyat.
3. Otlarning grammatik xususiyatlari.
4. Xulosa.

Ma'lum bir fikrni bayon qilish uchun morfologik formalar va sintaktik qurilmalarning uslubiy variantlaridan foydalanish mumkin. Sintaktik va morfologik sinonimiyaning mavjudligi natijasida grammatik uslubiyat haqida so'z yuritishga asos bo'ladi. Masalan,

Men kecha shahrimizga kelgan Salimov bilan tanishman,
Men shahrimizga kecha kelgan Salimov bilan tanishman,
Kecha shahrimizga kelgan Salimov bilan men tanishman

gaplarining uchalasi ham grammatik jihatdan sodda yoyiq, darak gap. Biroq ular uslubiy jihatdan fikr nozikliklariga ega.

Kelishik affikslari, zamon, mayl formalari va ayrim yasovchi qo'shimchalarning bir-biriga sinonimik, omonimik, antonimik, graduonimik (darajalanishli) va ierarxik (pog'onali) munosabatda bo'lishi masalasi ham grammatik uslubiyatning o'rganish ob'ektidir. Masalan, fors-tojik tilidan kirib kelgan **no-**, **be-**, **ser-**, **ba-** kabi prefikslardan **no-**, **be-** o'zbek tilidagi sifat yasovchi **-siz** affiksi bilan, **ser-**, **ba-**, **pur-** prefikslari esa **-li** affiksi bilan sinonimdir. Lekin ularning qaysi negizlarga qo'shila olish-olmasligini, qachon biri ikkinchisi o'rnida ishlatilishi mumkinligini bilish va farqlash kerak.

Masalan, *nobop*, *nomahram* so'zlaridagi **no-** prefiksi o'rnida o'zbekcha **-siz** affiksini qo'llash mumkin emas. Shuningdek, *tuzsiz* so'zi o'rnida *notuz* deb bo'lmaydi (*betuz* bundan mustasno).

Uslubshunos, adabiy kuzatuv ishi bilan shug'ullanuvchi kishi me'yoriy grammatika talablarini hisobga olish bilan bilan birga, morfologik va sintaktik vositalardan uslubiy maqsadda foydalana olish imkoniyatiga ham ega bo'lishi hamda ularga ahamiyat berishi lozim.

Otlarning uslubiy xususiyatlari, avvalo, ulardagi ko'plik, egalik, kelishik, son va sub'ektiv baho formalarida ko'rinadi.

Bunda ularning nutqda tutgan o'rni, nutqda o'zaro o'rin almashinib ishlatilishi, sodir bo'ladigan uslubiy jihatlar hisobga olinadi.

Masalan, ko'plik affiksi (**-lar**) faqat ko'plik tushunchasinigina emas, boshqa uslubiy ma'nolarni ham anglatish uchun xizmat qiladi.

Hozirgi o'zbek tilida ko'plik ma'nosi analitik usul bilan ham ifodalanadi: *yuzta kitob*, *mingta qo'y* kabi. Biroq shu formalarga **-lar** affiksini qo'shib, noto'g'ri qo'llash (*yuzta kitoblar*, *mingta qo'ylar* kabi) hollari ham uchraydi.

Kelishik affikslarining uslubiy xususiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ulardan birining boshqasi o'rnida biror uslubiy maqsadda ishlatilishining guvohi bo'lamiz. Masalan, *otni mindi - otga mindi*, *daryoni kechib o'tdi - daryodan kechib o'tdi*, *a'lochi talabalardan biri - a'lochi talabalarining biri* kabi.

Ba'zan affiksning qo'llanmasligi o'zgacha ma'nolarni keltirib chiqaradi: *ilon yutgan odam*, *bo'ri quvgan odam* kabi.

Misollardan ko'rinib turibdiki, bo'rini odam quvganmi? yoki odamni bo'ri quvganmi? Demak, bu gaplarda tushum kelishigini qo'llash shart. Yoki *Navoiy teatri, ukamning tuflisi* birikmalarini *Navoiy teatri, ukamning tufligisi tarzida* (qo'sh affiks - pleonastik takror bilan) ishlatish uslubiy xato hisoblanadi.

Demak, morfologik uslubiyatda kelishik qo'shimchalarini belgili yoki belgisiz qo'llash (yuqorida ta'kidlab o'tilganidek) yoki ularning pleonastik holati masalalari ham muhim.

Bir jumlada kelishik qo'shimchalarining takror qo'llanilishi ham uslubiy g'alizlikka olib keladi. Masalan, *Termiz davlat universitetining filologiya fakultetining o'zbek tili va adabiyoti bo'limining 4-kurs talabasi kabi*.

Tushum va qaratqich kelishiklari belgili-belgisiz qo'llanganda, turli uslubiy xususiyatga ega bo'ladi. Affiks qo'llanilsa, ta'kid, aniqlik ma'nosi, qo'llanilmasa umumiylik anglashiladi:

Gulning bargi - gul bargi

Kitobni o'qimoq - kitob o'qimoq kabi.

Mazkur kelishiklar poetik nutqda bir xil shaklda qo'llanilishi mumkin. Bu holat poetik ko'tarinkilikni ta'minlaydi. Masalan, *Yer kurrasini boshini tang'idik va tarixning tomirlariga quydik erigan temir* (G.G.) misralaridagi *kurrasini, boshini* so'zlaridagi affikslar **dioaffiks** bo'lib, u birinchi so'zda qaratqich (-ning), ikkinchi so'zda tushum (-ni) kelishigi shaklini yasagan.

Qaratqich kelishigi xoslik, oidlik, qarashlilik bildiruvchi **-niki, -im** kabi shakllar bilan ham o'zaro sinonim bo'lib keladi. Masalan,

Faqat ojiz qalamim manim,

O'zbekistan — Vatanim manim (A.Oripov) misralardagi **-im** affiksi **-ning** o'rnida ishlatilgan.

Ot so'z turkumining imkoniyatlari bu so'z turkumiga xos bo'lgan egalik, kelishik, ko'plik va sub'ektiv baho shaklida yana ham yaqqolroq ko'rinadi. Jamiyat taraqqiyoti tufayli bu kategoriyalarga xos bo'lgan shakllarning ba'zilari eskirib, o'rniga yangilari paydo bo'ladi, ba'zilari esa variant sifatida qo'llanib, ma'lum bir uslubiy vazifani bajaradi. Masalan, o'zbek tilida yo'nalishni bildirgan **-ga, -ka, -na, -qa, -a** affikslari adabiy tilga xos bo'lib, neytral shakllardir. Shulardan **-a** va **-na** ma'lum uslubiy bo'yoqqa ega. Masalan,

Sochiniing savdosi tushdi boshima boshdin yana,

Tiyra bo'ldi ro'zgorim ul qaro qoshdin yana (Bobur).

Yoki *To yor kimni istaru ko'nglina kim yoqar,*
Tashvishi bejihat durur oxir sanga mana (Bobur).

Kelishik affikslari boshqa grammatik shakllar — ko'makchilar bilan ham sinonimik munosabatda bo'ladi. Bular fikrning g'aliz chiqmasligi uchun yozuvchi va so'zlovchi o'ziga ma'qul shaklni tanlab ishlatish imkonini beradi. Masalan, *qishloqqa bormoq* — *qishloq tomon bormoq* kabi.

O'rin-payt kelishigi affiksi (-da) ham **uzra, orqali** ko'makchilari bilan sinonimik munosabatda bo'ladi. Masalan, *shaharda kezgan xabar* — *shahar uzra kezgan xabar, radioda e'lon qilindi* — *radio orqali e'lon qilindi* kabi.

Shuningdek, **uzra** ko'makchisi jo'nalish kelishigi affiksi (-ga) bilan, **orqali** ko'makchisi chiqish kelishigi affiksi (-dan) bilan sinonimik munosabatda bo'ladi. Masalan, *qishloq uzra kech qo'ndi* — *qishloqqa kech qo'ndi, Boysunga Sherobod orqali boriladi* — *Boysunga Sheroboddan boriladi* kabi.

Tushum va chiqish kelishigi affikslari (-ni va -dan) ham o'zaro sinonimik munosabatga kirishadi, biroq bunda boshqa-boshqa maqsad ko'zda tutiladi. Masalan, *nonni oling* — *nondan oling, choyni iching* — *choydan iching* kabi.

-dan qo'shimchasi **uchun, bilan, tufayli** kabi ko'makchilar bilan ham sinonimik munosabatga kirishadi. Masalan, *zinapoyadan chiqing* — *zinapoya orqali chiqing, Bizning farovonligimiz mehnatdan* — *bizning farovonligimiz mehnat tufayli* va b.

Ko'plik affiksi **-lar** ko'plik ma'nosini ifodalashdan tashqari, qator uslubiy vazifalarni ham bajaradi. Masalan,

Dadamlar keldilar (hurmat ma'nosida)

Keptilar-da (piching ma'nosida)

Senlar kimsanlar? (kamsitish ma'nosida)

Nimalar qilding? (noaniqlik ma'nosida)

Savollar:

1. Grammatik uslubiyatning ob'yekti qaysilar?
2. Morfologik uslubiyatda nimalar o'rganiladi?
3. Tushum va o'rin-payt kelishiklari qaysi qo'shimchalar bilan sinonim bo'la oladi?
4. **-lar** qo'shimchasining uslubiy vazifalari qaysilar?

Tayanch soʻzlar:

Pleonazm — qoʻshaloq qoʻllash

Analitik — tahliliy

Dioaffiks — bir qoʻshimchani ikki xil koʻrinishda qoʻllash

Affiks — ort qoʻshimcha

Prefiks — old qoʻshimcha

SOʻZ TURKUMLARI USLUBIYATI

Reja:

1. Sifatlarning uslubiyati.
2. Sonlarning uslubiyati.
3. Olmoshlarning uslubiyati.
4. Feʼllarning uslubiyati.
5. Xulosa.

Sifat maʼlum bir belgini koʻrsatuvchi mustaqil soʻz boʻlib, vazifasiga koʻra boshqa soʻz turkumlarining ayrim jihatlariga aniqlik kiritadi.

Badiiy adabiyotda eng koʻp murojaat qilinadigan sifatlar epitetlar hosil qilishda ishlatiladi.

Sifatlar predmet belgisini toʻgʻridan-toʻgʻri yoki bir belgini boshqasi bilan qiyoslab, chogʻishtirib koʻrsatadi. Shunga koʻra sifatlarning qiyosiy va ortirma darajalari farqlanadi.

Maʼlumki, sifat darajalari predmetlariga xos belgini darajalab koʻrsatish vazifasini bajaradi. Sifat darajalari **eng, juda, gʻoyat, nihoyatda** kabi shakllar yordamida ifodalanadi.

Masalan, *yaxshiroq — biroz yaxshi, qoraroq — qoramtir, qizilroq — qizgʻish eng qorongʻi — qop-qorongʻi, juda qizil — qip-qizil* va b.

Shuningdek, sifat soʻz turkumida sinonimiya hodisasi keng tarqalgan. Masalan, **-li** sifat yasovchi affiksi **-dor, -kor, -ba** kabi shakllar bilan oʻzaro sinonim boʻlib kelishi mumkin:

aybli — aybdor

quvvatli — baquvvat

gunohkor — gunohli

bamaʼni — maʼnoli — maʼnodor.

Sifatning qiyosiy darajasi **-roq** morfemasi yordamida hosil qilinadi va belgining meʼyordan kam ekanligini bildiradi.

-roq, -ish, -mtir, -imtir (-imtil) shakllari bilan sinonimik munosabatga kirisha oladi. Qiyoslang: *qoraroq — qoramtir, oq — oqish, sariqroq — sarg'ish — sarg'imtir* kabi. **-roq** formasining boshqalaridan farqi shundaki, unda predmet belgisini boshqasiga qiyosan ko'rsatadi.

-roq morfemasi ayrim belgi anglatuvchi analitik formalar bilan ham sinonim bo'ladi: *yaxshiroq — biroz yaxshi, oqroq ' biroz oq* kabi.

-roq ba'zan boshqa vositalar yordamida belgining nisbatan ortiqligini ham bildiradi: *tarvuz handalakdan kattaroq, Salim Mahmuddan balandroq* kabi.

Juft sifatlar ham belgining ortiqligini ko'rsatadi: *sap-sariq, qop-qora, qip-qizil* kabi.

Demak, *eng qorong'i* birikmasi o'rnida *qop-qorong'i, ko'm-ko'k* o'rnida esa *eng ko'k* so'zlarini qo'llash mumkin. Predmetning ortiqligini bildiruvchi **eng** so'zini **juda, g'oyat, behad, cheksiz, g'oyatda, nihoyatda** kabi so'zlar bilan almashtirib ishlatish mumkin. Qiyoslang: *eng go'zal — juda, nihoyatda, behad, cheksiz, g'oyatda go'zal* kabi.

Biror belgiga egalik, mavjudlik **-li** affiksi bilan ifodalanadi.

-li sifatdosh yasovchisi **-gan** affiksi bilan sinonim bo'la oladi: *o'lchovli — o'lchangan, bog'lovli — bog'langan* kabi.

-digan affiksi bilan sinonim bo'ladi: *yoqimli kuy — yoqadigan kuy, yaroqli odam — yaraydigan odam, ajablanarli jihati — ajablanadigan jihati* kabi.

O'zbek tilida **-li** va **-lik** affikslari ba'zan farqsiz qo'llanadi.

Ba'zi ilmiy asarlarda ular sinonim sifatida noto'g'ri talqin qilinadi. Qiyoslash uchun misollar:

telpakli odam — telpaklik teri

bolali xotin — bolalik davrim

chelakli yigit — chelaklik yigit va b.

Sifat yasovchi affikslar tizimida yana quyidagicha sinonimik holatlar mavjud:

-gi, -ki, -qi affikslari **-dagi** va **-lik** qo'shimchalari bilan: *pastki — pastdagi, sirtqi — sirtdagi; yozgi ko'ylak — yozlik ko'ylak* kabi.

-k (-uk,-ik,-ak), -q (-uq, -iq, -aq) affikslari **-gan** qo'shimchasi bilan: *siniq — singan, kuyuk — kuygan, chirik — chirigan* kabi.

-ma affiksi **-gan** qo'shimchasi bilan: *qaynatma — qaynagan, ulama soch — ulangan soch* kabi.

-mand affiksi **-li** qo'shimchasi bilan: *hunarmand — hunarli, davlatmand — davlatli* kabi.

-namo affiksi **-ga o'xshash, -ga o'xshaydigan** vositalari bilan: *olimnamo — olimga o'xshash, telbanamo — telbaga o'xshash* kabi.

-simon affiksi **kabi, singari, -day, -dek, -ga o'xshash** vositalari bilan: *aylanasimon — aylana kabi, qilich singari — qilichday, qilichga o'xshash* kabi.

Son gap ichida umumiy miqdorga aniqlik kiritadi. Ba'zan affiks yoki ayrim so'zlar bilan kelganda, umumiylik anglatishi ham mumkin. Masalan,

Bir qadam tashlasa zaminga go'dak,

Qolgan qadamlari ketadi ildam.

Inson taqdiri shu bir oh urganda,

Tarixga aylana oxirgi qadam (Anvaro). Yoki *Sizni bir kishi chaqirayapti* (so'zlashuvdan) kabi.

Shuningdek, **biron narsa, biror kishi, bir-ikki jumboq, birdan gapirmoq, bir talay, bir oz, baribir** kabi birikmalar tarkibidagi **bir** so'zi son tushunchasidan ancha siljib, so'zlashgan — leksikalizatsiyalashgan va o'ziga xos uslub uchun xizmat qiladi.

-ta sanoq son qo'shimchasi **dona, nafar, bosh** so'zlari bilan sinonim bo'la oladi: *beshta — besh dona, o'nta — o'n bosh* kabi.

Ba'zan nutqda *oriq uch qo'yaman, katta to'rt qo'yaman* kabi uslubiy xato jumlar uchraydi: "3" oriq bo'lgani bilan "2" emas yoki "4" katta bo'lgani bilan "5" emas.

Odatda juft sonlar **to'rt-besh, o'n-o'n besh** tipida, avval kichik, so'ngra katta son qo'llaniladi. Ba'zan buning aksi bo'lsa, so'zlovchining voqelikka salbiy munosabati, loqaydligi ifodalanadi: *To'yga besh-to'rt odam keldi* kabi.

-ov va **-ala** affikslari ham qanday o'zakka qo'shila olish darajasiga ko'ra o'zaro farqli qo'llaniladi: *birov, ikkov, uchov; birala, ikkala* emas va boshqalar.

Chama son yasovchi **-cha, -lab, -lar, -larcha** affikslari ham o'ziga xos uslub hosil qiladi: *minglab, yuzlarcha, o'ntacha* kabi.

Uslubiy takrorlardan qochish maqsadida ot, sifat, son o'rnida qo'llanuvchi olmoshlardan keng foydalaniladi.

Kishilik olmoshlari birlik va ko'plik formada ishlatiladi (men, sen, u, biz, siz, ular). Biroq bu formalar ham uslubiy jihatdan farqsiz qo'llanavermaydi. Masalan, biz olmoshi men o'rnida turli uslubiy

maqsadlarda qo'llaniladi: **Biz** o'z tadqiqotimizda yirik olimlarning ishlariga asoslandik (kamtarlik), **Bizning** o'g'ilchamiz katta bo'lib qolish (faxrlanish), **Biz** sizning maslahatingizga zor emasmiz (manmanlik) kabi.

Sen olmoshi bilan yosh jihatdan o'zidan katta bo'lgan kishiga murojaat qilinmaydi. Biroq poeziyada bu holat o'ta hurmat anglatadi:

Ona, sening yoshliging g'am bilan o'tdi,

Qayg'u, azob, uqubat yoqangdan tutgan (G'.G').

Sen olmoshi -lar affiksini qabul qilmaydi. Biroq so'zlovchining ting-lovchilarga hurmatsizligi, bepisandligi ifodalanganda ishlatiladi: *Senlar kim bo'psan? Sendaqalarni yaxshi bilaman* kabi.

Ko'rsatish olmoshlari **u**, **bu**, **shu**, **usha** predmet yoki voqea-hodisani ajratib ko'rsatish uchun xizmat qiladi. **Bu** olmoshi **u** olmoshiga nisbatan yaqinroqdagi predmet yoki voqeani ko'rsatish uchun xizmat qiladi: *Rais xona ichida u yoqdan bu yoqqa yurardi.*

Bu olmoshining ma'nosi **shu** olmoshi bilan ancha yaqin. Qiyoslang: *Bu yerga keling // shu yerga keling, bu to'y — baxt to'yi // shu to'y — baxt to'y* kabi.

Ular o'rtasida ba'zan farq yaqqol seziladi: *Bu mening kitobim — mening kitobim — shu* kabi.

Kim, **nima**, **qanaqa**, **qanday**, **qaysi**, **qancha**, **qachon**, **nega** so'roq olmoshlari o'rni bilan biri o'rnida ikkinchisi qo'llanaveradi.

Odatda **kim** olmoshi shaxsga, **nima** esa predmetga nisbatan qo'llaniladi. Biroq og'zaki so'zlashuvda shaxsga nisbatan ham **nima** olmoshi qo'llanadi. Qiyoslang: *Bu kishi kimingiz bo'ladi? — Bu kishi nimangiz bo'ladi?, Bemorning kimi bo'lasiz? — Bemorning nimasi bo'lasiz? Oting kim? — Oting nima?* kabi.

Nima olmoshining **na**, **ne** shakllaridan poetik nutqda ma'lum uslub hosil qilishda foydalaniladi:

Ne edi gunohi u tilla boshning?

Ne edi gunohi porloq quyoshning? (U., I.Sulton).

Nima olmoshi **qanday** olmoshi bilan sinonim bo'lib keladi:

Bu nechuk qabohat, bu nechuk taqdir,

Mo'min Mirzo ukam, seni o'ldirdilar (A.O.).

Yoki *Men nima degan odam bo'ldim — qanday odam bo'ldim.*

Qanday olmoshining **qalay**, **qay** formalari ham bor. **Qalay** shakli ko'pincha og'zaki nutqda, **qay** formasi esa ma'lum so'zlar bilan

birgalikda ishlatiladi: *qay tarzda, qay ahvolda, qay darajada, qay tariqa, qay tusda* kabi.

Qanday olmoshi predmetning rangi va hajmini anglatganda, **qanaqa** olmoshi bilan sinonim bo'la oladi: *qanday olma? — qanaqa olma?* kabi

Qanday olmoshi **qaysi** olmoshi bilan sinonim bo'ladi: *Qanday kinoga boramiz? — Qaysi kinoga boramiz?* kabi.

O'zlik olmoshi egalik olmoshlarining muqobili vazifasini bajaradi: *mening kitobim — o'zimning kitobim, sening uying — o'zingning uying* kabi.

Harakat qandaydir joyda — makonda, qandaydir paytda — zamonda yuz beradi. Grammatik zamon nutq so'zlanib turgan vaqtga nisbat berib belgilanadi. Shunga ko'ra harakat nutq so'zlanib turgan vaqtda, oldin yoki keyin sodir bo'lishi mumkin va fe'ning o'tgan, hozirgi va kelasi zamonlari belgilanadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida o'tgan zamonda yuz bergan harakatni ko'rsatishda **-di, -gan, gan+edi, -(i)b+edi, -(a)r+edi** kabi vositalardan foydalaniladi.

-di va **-gan** formalari harakatning o'tgan zamonda bajarilgan (yoki bajarilmagan)ligini bildiradi. **-gan** formasi harakatning nisbatan sal oldinroq yuz berganligini anglatadi: *Bu yil mo'l hosil etishtirildi — bu yil mo'l hosil etishtirilgan* kabi.

-(i)b va shaxs-son affiksi **-di** formasi bilan sinonim bo'lishi mumkin: *Bir ryumka olganimni bilaman, qotib qolibman — Bir ryumka olganimni bilaman, qotib qoldim* (M., «Umid»). *Uni men qutqarib qolibman — Uni men qutqarib qoldim* kabi.

Ba'zan **-gan+edi** formasi harakatning nutq momentidan nisbatan avval bajarilganligini ifodalaganligi tufayli **-di** bilan grammatik sinonim bo'la oladi.

Harakatning nutq momentidan ancha ilgari bajarilganligini ko'rsatuvchi **-gan edi** va **-(i)b edi** formalari o'zaro sinonim bo'la oladi. Og'zaki nutqda **-(i)b edi (-v+di)** formalari ishlatiladi. Shuningdek, **-yotgan+edi, yotib+edi, -moqda+edi, -(a)r+edi, -guvchi edi** qurilmalari ham o'tgan zamon fe'lini hosil qilishda deyarli farqsiz qo'llanadi.

Hozirgi zamon fe'li **-yotir, -yap, -moqda** formalari yordamida hosil bo'ladi. Bu formalar harakatning nutq so'zlanib turgan vaqtda bajarilayotganligini ko'rsatish bilan birga o'zaro sinonimdir va

davomlilikni ham anglatadi: *yozayotirsan yozayapsan — yozmoqdasan* kabi.

Kelasi zamon fe'llari **-ajak (-yajak)+shaxs-son affikslari, -r, -(a)** sifatdoshi yoki **-a(y)** bilan yasalgan **ravishdosh+shaxs-son affikslari** yordamida hosil bo'ladi va harakatning nutq momentidan keyin bajarilganligini anglatadi.

Fe'l mayllari turli modal ma'no ifodalaydi. Bu jihati bilan muhim uslubiy vosita sifatida xizmat qiladi. Qiyoslash uchun misollar: *Sizning aytganlaringiz bo'lsin, biz ham tomosha qilardik — Sizning aytganingiz bo'lsa, biz ham tomosha qilardik, Sizning aytganlaringiz bo'ladi, biz ham tomosha qilamiz* kabi.

Misollarda har uchala mayl (istak, shart, buyruq) aks etgan.

Shart mayli aslida shart ma'nosini ifodalasa-da, badiiy nutqda buyruq yuklatish, iltimos ma'nolarida qo'llaniladi: *Agar malol kelmasa, jim o'tirsangiz. Eshikni orqasidan yopsalar* kabi.

Mayl shakllari shaxs-son mayllari bilan qo'llanib, kuchli uslubiy vosita sifatida xizmat qiladi. Ma'lumki, I shaxc buyruq-istak maylida birlik va ko'plikda istak ifodalanadi. I va III shaxslarda esa buyruq ifodalanadi: Qiyoslang:

birlik

Men yozay

Sen yoz

U yozsin

ko'plik

Biz yozaylik

Siz yozing

Ular yozsinlar

Ba'zan badiiy nutqda I shaxsda so'zlovchi II shaxs tilidan o'ziga-o'zi buyruq berishi mumkin: *Xo'sh, Mulla Mamajon, endi nima qilmoqchisan? Biror yo'lini top (G'.G'). Endi nima qilasan? Boshingni qaysi devorga urasan?! (O'.H.)* kabi.

Fe'llarda bo'lishlilikning grammatik formasi mavjud emas. Bo'lishsiz shakli esa **-ma** affiksi bilan hosil bo'ladi: *o'qidi — o'qimadi, yozdi — yozmadi* kabi.

Bo'lishli forma bo'lishsiz — inkor ma'noda qo'llanilishi ham mumkin. Bunda intonatsiya — ohangning roli muhim. Masalan, *Toshkentga borasan?! (borib bo'psan, bormaysan). Qishloqqa ketasan? (ketmaysan). Bu kitobni bir kunda o'qib chiqding? (o'qib chiqolmaysan)* va boshqalar.

Bu holatni ritorik so'roq gaplarda ham kuzatamiz. Faqat bunda yuqoridagi holatning aksi yuz beradi: *Muhabbat kimlarning qalbiga cho'g' solmagan? Bolani kim sevmaydi? To'qlik nimalar qildirmaydi? Ochlik nimalar yedirmaydi?* kabi.

Yo'q inkor ma'nosi **be-**, **no-**, **na**, **-siz** kabi vositalar bilan ham ifodalanadi.

Ma'lum ohang bilan talaffuz qilingan **yo'q** so'zi ham tasdiqni beradi: *Yurtimizda nima yo'q?* (hamma narsa bor ma'nosida). Buning aksi ham bo'lishi mumkin: *Bu yerda sizga nima bor?* kabi.

Bo'lishsizlik **na** inkor bog'lovchisi yordamida ham hosil bo'ladi: *Bu talaba na yozadi, na o'qiydi* kabi.

Ba'zan matnda **na** yuklamasi bilan birga **-ma** bog'lovchisi ham keladi va inkor ma'nosi yanada kuchayadi:

*Na ko'kning fonari o'chmasdan,
Na yulduz sayr etib ko'chmasdan,
Na ufq o'ramay yoqut — zar,
Na bulut silkitmay oltin par,
Tong kulmasdan burun turardi (U.).*

Shunday qilib, morfologik shakllarning uslubiy imkoniyatlari rang-barang bo'lib, turli nutq ko'rinishlarida turlicha namoyon bo'lar ekan.

Savollar:

1. Sifat darajalarini hosil qiluvchi formalar qaysilar?
2. Sifat turkumining va sifat yasovchi affikslarning qanday uslubiy xususiyatlari bor?
3. Son turkumining uslubiy jihatlari-chi?
4. Olmoshning qanday uslubiy xususiyatlari mavjud?
5. Fe'lining qanday zamon ko'rsatgichlari mavjud?
6. Fe'ning mayl shakllari qaysilar va ularning qanday uslubiy jihatlari bor?
7. Fe'ning shaxs-son va bo'lishli-bo'lishsizlik shakllari qanday uslubiy vazifalar bajaradi?

Tayan ch so'zlar:

Mayl — fe'l kategoriyalaridan biri.

Neytrallik — oraliq holat

Modallik — qo'shimcha ma'no ifodalash

SINTAKTIK USLUBIYAT. SINTAKTIK SINONIMIYA

Reja:

1. Sintaktik uslubiyatning maqsad-vazifalari.
2. So'z birikmasi sinonimiyasi.
3. Sodda gap sinonimiyasi.
4. Qo'shma gaplar sinonimiyasi.
5. Xulosa.

Sintaktik uslubiyatda sintaksisning o'rganish ob'ektlaridan so'z birikmasi tasnifi, gap, gapning ifodalanishiga ko'ra turlari, gap bo'laklari, ularning tartibi kabilarning uslubiy imkoniyatlari o'rganiladi.

Tilshunos olim M.Verli "*Uslub so'zga qaraganda ko'proq gapda shakllanadi*", — deb to'g'ri ta'kidlagan. Shunga o'xshagan fikrlarni I.R.Galperin va A.I.Yefimovlar ham bildirganlar.

Vazifaviy uslublarning shakllanishida sintaksis muhim o'rin tutadi. Ammo ayrim sintaktik hodisalar vazifaviy uslub ko'rinishlari bo'yicha chegaralangan tarzda ishlatilishi mumkin. Masalan, kitobiy nutq hosil qilishda ko'proq sifatdash va ravishdash oborotlar, bog'lovchilarning ayrim turlari qo'llanilsa, so'zlashuv nutqida esa, asosan, to'siqsiz gaplar, elliptik gaplardan foydalaniladi. Sintaktik vositalar nutqda boy uslub imkoniyatlaridan hisoblanadi. Ayniqsa, sintaktik hodisalar sinonimiyasi muhim ahamiyatga ega.

Har bir uslubning o'ziga xos sintaktik belgilari bo'ladi. Ilmiy uslubga xos bo'lgan matn sintaksisini dramatik matn sintaksisidan farqlash qiyin emas. Masalan, ilmiy-ommabop uslubda so'zlovchi fikrni izchil va aniq ifodalashga e'tibor beradi. Dramatik asarlarda esa fikr ikki va undan ortiq shaxslarning suhbatida davomida birin-ketin ravshanlasha boradi.

Sintaktik uslubiyat neytral sintaktik vositalarni emas, balki vazifaviy nutq uslublariga xos emotsioanal-ekspressiv bo'yoqqa ega sintaktik birikmalarni o'rganadi.

Sintaktik sinonimiya fikrning to'g'ri va ta'sirchan ifodalanishida muhim o'rin tutadi.

Sintaktik sinonimiya gap bo'laklari, so'z birikmasi, sodda va qo'shma gaplar orasida yuz beradi.

Odatda, gap bo'laklarining hammasi o'zaro sinonim bo'la oladi. Masalan, bir tarkibli gaplarning bir turida kesim harakat nomi+predikativ modal so'zlar qo'shiluvidan hosil bo'ladi. Bular kesim sinonimiyasi hisoblanib, uslubiy talabga ko'ra turlicha qo'llanadi. Masalan, *Biz yetolmagan umidlarga kelajak nasllarning yetmog'i mumkin. Qachonlardir adolat oftobi barq urib chiqmog'i kerak. Dunyoda baxt va haqqoniyat tantana qurmog'i lozim. Odamlar orasida ulzo yo'qolmog'i darkor* (Uyg'un, I. Sulton, "Navoiy", 170-b.).

Ko'makchili va kelishikli shakldagi to'ldiruvchi va hollar ham sinonimiya hosil qiladi: *Olim uchun (Olimga) vijdon ham o'tkir ilm kabi zarur. Atrofda ichish uchun (ichishga) bir qultum suv yo'q edi. Abdulla sevingani uchun (sevinganidan) qarsak chalib yubordi. Mohira dovdirab qolgani uchun (dovdirab qolganidan) uyalib yerga qaradi kabi.*

So'z birikmasi doirasida ham sinonimik holatlar ko'plab uchraydi. Bu holat ko'pincha birikmaning tobe komponentida kuzatiladi: *o'qishni o'rganmoq — o'qishga o'rganmoq, velosipedni minmoq — velosipedga minmoq, talabalardan biri — talabalarning biri, ko'chada izg'imoq — ko'chani izg'imoq, kamchiliklardan gapirmoq — kamchiliklarni gapirmoq kabi.*

Kelishikli va ko'makchili birikmalar ham sinonimiya hosil qiladi: *telefonda gaplashmoq — telefon orqali gaplashmoq, poyezdda kelmoq — poyezd bilan kelmoq, Boysundan kelmoq — Boysun tomondan (tarafdin, orqali) kelmoq kabi va boshqalar.*

Bir tarkibli va ikki tarkibli gaplar o'zaro sinonim bo'lishi mumkin: *Rasm Salima tomonidan chizilgan (bir tarkibli gap). Rasmni Salima chizgan (ikki tarkibli gap) kabi.*

Ritorik so'roq gaplarda ham bu holatni kuzatish mumkin: *Ilmni mehnatsiz egallab bo'ladimi? — Ilmni mehnatsiz egallab bo'lmaydi yoki Boltaliga soyda o'tin (bor), Boltasizga qayda o'tin (bor)? (maqol) — ...boltasizga o'tin yo'q kabi.*

Tasdiq va inkor gaplar o'zaro sinonim bo'ladi: *Seni bir boplamasam, qarab tur — Seni bir boplayman, qarab tur kabi.*

Misollardan ko'rinadiki, sodda gap bir tarkibli va boshqa tipdagi gaplar bilan sinonim bo'la olar ekan. Biroq ularning qo'llanilishida, ta'sir doirasi va uslubida o'ziga xos farqlar mavjud.

Bog'langan qo'shma gaplar bog'lovchisiz qo'shma gaplar bilan sinonim bo'ladi: *Qo'ng'iroq chalindi va dars boshlandi — qo'ng'iroq chalindi, dars boshlandi kabi.*

Ergashgan (tobe aloqali) qo'shma gaplar bog'lovchisiz qo'shma gaplar bilan sinonim bo'ladi: *Hunar o'rgan, chunki hunarda sir ko'p* (sabab ergash gap) — *Hunar o'rgan, hunarda sir ko'p* (bog'lovchisiz qo'shma gap). Yoki *Maqsadim shuki, yer yuzida tinchlik bo'lsin* (kesim ergash gap) — *Maqsadim shu: yer yuzida tinchlik bo'lsin* (bog'lovchisiz qo'shma gap) va boshqalar.

Qo'shma va sodda gaplar o'zaro sinonim bo'la oladi: *Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi* (G'.G'.) — *Seni Vatan kutishini bilib qo'y. Xalqlarning tillari bir xil emas, bil* (G'.G'.) — *Xalqlarning tillari bir xil emasligini bil* kabi. Birinchi misolda to'ldiruvchi ergash gap, ikkinchi misolda ega ergash gap avval kelgan va keyingi — sodda gaplarga sinonim bo'lgan.

Shuningdek, ko'chirma gapli qurilmalar o'zlashtirma gaplar bilan sinonim bo'ladi: *Bu yil rejani oshig'i bilan bajaramiz, — dedi rais // Rais bu yil rejani oshig'i bilan bajarishini aytdi* kabi.

Demak, o'zbek tili gap qurilishida sintaktik sinonimiyaning imkoniyatlari juda keng ekan.

Savollar:

1. Sintaktik uslubiyaning maqsad va vazifalari qaysilar?
2. Sintaktik sinonimiya nima?
3. Sintaktik sinonimiyaning ko'lami.

Tayanich so'zlar:

Sintaksis — “turilish”, “tuzilish”.

Sinonimiya – mazmunan bir-biriga yaqin so'z va gaplarni o'rganuvchi hodisa.

SODDA GAP USLUBIYATI

Reja:

1. Ifoda maqsadiga ko'ra gap turlarining uslubiy xususiyatlari.
2. Tasdiq va inkor gaplarning uslubiy xususiyatlari.
3. Bir tarkibli gaplarning uslubiy xususiyatlari.
4. Xulosa.

Ifoda maqsadiga ko'ra gaplarning darak, so'roq, buyruq kabi turlari mavjud.

Darak gaplar xabar bilan bir qatorda, gumon, sevinch, achinish, g'urur, orzu-istak kabi ma'nolarni ham ifodalaydi. Darak gaplar nutqda ko'p qo'llanadi. Nutq uslublarining barchasida darak gaplardan keng foydalaniladi. Masalan, badiiy asarlardagi tabiat manzaralari, obrazlarning portreti, holati; dramatik asarlardagi remarkalar, turli izohlar va boshqalar.

Darak gap ohangi xabar mazmuniga qarab o'zgaradi. Odatda u tinch ohangda talaffuz qilinadi. Faqat urg'u olgan so'zda biroz ko'tarilish bo'ladi.

So'roq gapda so'zlovchi uchun noma'lum bo'lgan narsa-predmet, voqea-hodisa haqida ma'lumot olinadi.

So'roq yuklamalari orqali hosil qilinadigan so'roq gaplar o'ziga xos uslubga ega. **-mi**, **-chi**, **-a**, **-ya** so'roq yuklamalari qo'llanilishiga ko'ra bir-biridan farqlanadi.

Masalan, **-mi** yuklamasi rasmiy uslubdan tashqari, boshqa uslublarning hammasida, **-chi** yuklamasi so'zlashuv nutqiga xos bolib, to'liqsiz gaplardagina, **-a** yuklamasi esa so'zlashuv uslubida qo'llanib, so'roq gap hosil qilishda xizmat qiladi. Shuningdek, **-a** yuklamasi mustaqil holda so'roq gap ham bo'la oladi:

— *Zudlik bilan idoraga borar ekansiz.*

— *A? — dedi Anzirat xola hovliqib (A.Q.).*

Hech qanday grammatik vositalarsiz, ohang yordamida hosil bo'lgan so'roq gaplar ham so'zlashuv nutqiga xosdir: *Abdusamad frontga ketdi?* kabi.

Ba'zan so'roqqa so'roq bilan ham javob beriladi. Bu tip gaplar javob-so'roq gap hisoblanadi:

Qaydin sen, ey, majnuni gumroh?

Majnun Vatandin qayda oqoh? (N.) kabi.

Nutqda ba'zan so'zlovchi so'roq javobini kutmay, o'z fikrini davom ettiraveradi: — *Hu anavi do'konni ko'rayapsizmi? Shu do'konning orqasidagi birinchi uy — Hoji akaning uyi* kabi.

Badiiy nutqda nutq ta'sirchanligini oshirish maqsadida so'zlovchi o'ziga o'zi savol beradi: *Endi nima qilaman? Dadam bilib qolsalar nima bo'ladi? Naq so'yib tashlaydilar (O'.H.).*

So'roq gaplar rasmiy nutqda quyidagicha aks etadi: — *Loyihaga o'zgartirishlar bo'ladimi? (ovozlar) — Yo'q. — Rozilar qo'l ko'tarib tasdiqlab berishlaringni so'rayman. — Qarshilar? — Yo'q. — Betaraflar? — Yo'q* kabi.

So'roq gaplarning so'roq olmoshlari bilan hosil bo'ladigan tipida gap tarkibida so'zlovchi uchun noma'lum element mavjud bo'ladi.

Tarkibida **kim, nima, qanday, nega, qayerda, nechanchi, qachon, nimaga** kabi so'roq olmoshlari ishtirok etgan so'roq gaplar, asosan, so'zlashuv, badiiy publitsistik uslublar uchun xosdir.

So'roq gaplar ilmiy uslubning so'roq va topshiriqlar qismida ko'proq qo'llanadi.

Ba'zi so'roq gaplar javobi bilan shunday qo'shib ketadiki, ularni so'roq va javobga ajratish ham qiyin: *Ertaroq kel degandingiz, keldimmi — keldim. Zarur kitoblarni topib beraman degandim. Keltirib berdimmi — berdim* kabi.

So'roq gaplar so'zlashuv nutqida so'roq ohangi bilan aytiladi. Urg'u gapning qaysi bo'lagiga tushishiga qarab o'zgarishi ham mumkin.

Buyruq gapda tinglovchini biror ishni bajarish — bajarmaslikka undash, da'vat etish, hatto do'q, po'pisa, buyruqdan tortib, iltimos, taklif, yalinish ifodalanadi. Buyruq gaplarning bo'lishsiz formasi faqat **-ma** affiksi orqali shakllanadi.

Buyruq gaplar badiiy adabiyotlarda, dialogik nutqlarda, rasmiy ish qog'ozlari uslubida, turli chaqiriqlarda, ilmiy uslubga oid mashq va topshiriqlarda ko'p qo'llaniladi. Buyruq gapning kesimi buyruq maylidagi fe'llar bilan ifodalanadi.

Buyruq gaplar ilmiy uslubga oid adabiyotlarda o'quvchi diqqatini bayon etilayotgan fikrga jalb qilish uchun **qiyoslang, chog'ishtiring, misollarni solishtiring, taqqoslang, qarang** kabi shakllarda uchraydi.

Rasmiy uslubga xos turli qaror va buyruqlarda buyruq gap fe'lining majhul nisbati bilan ifodalanadi. Masalan, *Majlis qaror qiladi, ...axborot uchun qabul qilin sin. Ushbu qarorning bajarilishi ...dan s o' r a l s i n. ...ga yuklatilsin* kabi.

Ba'zi istak, maslahat bo'yog'iga ega buyruq gaplar tilda yaxlit holatda mavjud bo'ladi: *baraka toping, yaxshi qoling, yordam qiling, avf eting, aylanib ketay, salomat bo'ling, o'rgilay* kabi.

Bu kabi buyruq gaplarning ohangi do'q, qat'iy buyruq gaplarnikiga qaraganda birmuncha yumshoqroq bo'ladi.

Tasdiq va inkor gaplar ifodalangan fikrning ob'ektiv voqelikka bo'lgan munosabatiga ko'ra ajratiladi. Tasdiq gaplar fikrni tasdiqlaydi, inkor gaplar esa fikrni inkor qiladi. Tasdiq gaplarning grammatik ko'rsatkichi yo'q.

Tasdiq gap oddiy va ekspressiv shakllarda bo'lishi mumkin. Qiyoslang: *Mahmud keldi — Mahmudning kelmasligi mumkin emas edi* kabi. Gapda ikki inkor ko'rsatgichi qo'llansa, tasdiq anglashiladi, tasdiq kuchayadi. Masalan, *U qishloqqa kelsa bog'chaga tushmay ketmas edi* (0.).

So'zlashuv nutqida bu kabi qurilmalardan keyin tasdiq ifodalovchi so'z keltirilib tasdiq kuchaytiriladi: *Jamoamizda intizom yo'q emas, bor* kabi.

Inkor leksik, sintaktik va intonatsion vositalar orqali ifodalanadi. Bo'lishsizlik affiks **-ma**, to'liqsiz fe'lning bo'lishsiz formasi — **emas**, na yuklamasi, **yo'q** so'zi shular jumlasidandir.

Ba'zi adabiyotlarda **hech**, **sira**, **aslo** so'zlarini inkor ifodalashning leksik vositasi deb qaraladi. Biroq *hech o'qidi, aslo gapirdi, sira yozdi* deb bo'lmaydi. Yuqoridagi misollarga **-ma** forma qo'shilsa (*hech o'qimadi, aslo gapirmadi, sira yozmadi* kabi), inkor ifodalanadi.

Emas elementi faqat **-gan** va **-moqchi** yordamida yasalgan o'tgan va kelasi zamon formalariga qo'shiladi: *o'qigan emas, o'qimoqchi emas* kabi. **Yo'q** so'zi orqali inkor ifodalash **-ma**, emas elementlari orqali inkor ifodalashga qaraganda ancha chegaralangan.

U faqat **-gan** va **-yotgan** affikislari bilan yasalgan o'tgan va hozirgi zamon fe'llari bilan birga qo'llanadi: *borgani yo'q, borayotgani yo'q* va h.

Inkor **na** yordamchisi bilan ifodalanganda, fe'l bo'lishli yoki bo'lishsiz formada ham bo'lishi mumkin. Bo'lishsiz formada inkor yanada kuchayadi. Qiyoslang: *Zulfiya na o'qiydi, na yozadi — Zulfiya na o'qimaydi, na yozmaydi*.

Inkor gaplar ohang yordamida ham hosil bo'ladi va uslub uchun hizmat qiladi: *Keladi-ya, keladi (kelmaydi)*.

Bir tarkibli gaplarning tuzilish asosi ega yoki kesimdan iborat bo'ladi. Egasiz gaplarning tuzilishi asosi kesim bo'lib, uning tabiati 2 xil bo'ladi: kesimdan egani topib bo'ladigan va egani topib bo'lmaydigan gaplar. Qiyoslang: *Zudlik bilan oatlanmasak kechikamiz* (so'zlashuvdan). *Falakka qo'l uzatib shams-u anvarni olib bo'lmas* (*Mashrab*).

Bir tarkibli gaplarning kesimidan harakat qaysi shaxs tomonidan bajarilayotganligini aniqlab olish mumkin.

Bir tarkibli gaplar nutqda eng ko'p qo'llanib, she'riy nutq hosil qilishda ahamiyatlidir. Nutqda emotsional-ekspressivlik ifodalab, nutqni silliqlashtiradi, ta'sirchan va ifodali qiladi. Masalan,

*Taroziga qo'y haqiqat toshini bu — chin hayot,
Haqiqat deb tuqqaniga yoqmasang ham, mayliga.
To'g'ri yo'l tut, egrilikdan kamol topmas odamzod,
Rostgo'y bo'lgin, orden-medal taqmasang ham, mayliga.*

(J.Omonturdiyev)

Birdan ortiq shaxsi ma'lum gaplar mantiq va ohang jihatdan birikib, qo'shma gap hosil qilishi mumkin: *Demak, kelishdik-a, bizning institutga kirasiz yoki Kiyinavering, qaramayman* (O'H). *Ayting, kirsin kabi.*

Ba'zi shaxsi ma'lum gaplar so'zlashuv uslubiga xos rasm-odal ifodalovchi qurilmalarga aylanib bormoqda: *xush ko'rdik, salom berdik, xushvaqt bo'ling, xush kelibsiz* kabi.

Shaxsi noma'lum gaplarning kesimi fe'lning III shaxs shakli bilan ifodalanadi. Biroq ish-harakatning bajaruvchisi aniq bo'lmaydi, umumga qaratilgan bo'ladi.

A.M.Peshkovskiy ta'kidlaganidek, shaxsi noma'lum gaplarda ega nutqdan ma'lum maqsadda chetlashtiriladi, bajaruvchi shaxs ma'lum maqsadda noma'lum, noaniq bo'ladi¹².

Bu tur gaplar ko'proq badiiy, publitsistik va so'zlashuv uslublar uchun xosdir: *Mahalamizda uni Hoshim xo'roz deyishadi. U yoqlarni sovuq deyishadi. Mana buni qahramonlik deydilar* kabi.

Ilmiy asar va rasmiy ish qog'ozlarida bajaruvchining shaxsi aniq ko'rsatilishi zarurligi bois bu uslublarda shaxsi noma'lum gaplar deyarli qo'llanmaydi.

Shaxsi umumlashgan gaplarda ham mazmun umumga qaratilgan bo'ladi. Biroq bu gaplar grammatik jihatdan II shaxsga qaratilgan bo'ladi.

Chaqiriq, undash va maqol mazmunidagi bunday gaplardan badiiy adabiyotda, tashviqot-targ'ibot ishlarida, didaktik ko'rinishdagi nutqlarda ta'sirchanlik vositasi sifatida foydalaniladi. Masalan, *Spartakiada ishtirokchilarini olqishlaylik! Yetti o'lchab, bir kes. Sanamay sakkiz dema* kabi.

Shaxsi umumlashgan gaplarda ba'zan ta'sirchanlikni oshirish maqsadida, uslub talabi bilan ega tarkibi qo'llaniladi: *Seni ish*

¹² Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении.—М.: 1956.—с.371.

yengmasin, sen ishni yeng (maqol) kabi. Mazmun har uchala shaxsga taalluqli bo'lgani bois bu tip gaplar odatdagi ikki tarkibli sodda gaplar emas.

Egasi topilmas (shaxssiz) gaplarda kesim orqali egani topib bo'lmaydi. Biroq harakat sub'yekti biror shaxsga bog'lanmasa-da, mavjud bo'ladi.

Shaxssiz gaplar fe'ning majhul formasi, predikativ modal so'zlar, to'liqsiz fe'l kabilar yordamida hosil bo'ladi. Masalan, *Qorong'i bo'lishiga qaramasdan ishga kirishildi. Zudlik bilan Toshkentga jo'nash kerak. Men ham majlisga borishim kerak emish* kabi.

Egasi topilmaydigan gaplardan ilmiy uslubga oid adabiyotlarda keng foydalaniladi.

Nominativ (atov) gaplardan badiiy va publitsistik uslublarda kuchli uslubiy vosita sifatida foydalaniladi. Ayniqsa, proza va poeziyada, shuningdek, dramatik asarlarda tasvirlash va ko'rsatish xarakteridagi remarkalarda atov gaplarga ko'p murojaat qilinadi.

Tabiat manzarasi tasvirini berishda, obrazlar portretini chizishda, voqeani lo'nda qilib ifodalashda atov gaplardan muhim uslubiy vosita sifatida foydalaniladi. Masalan, *Keng hovli. Hovlining o'ng tomonida daraxt. Daraxtda to'rqovoq osilib turibdi...* (H.H.). Yoki *Mana, fasli bahor ko'rkam chamanda, Ochib gul g'unchalar etmakda xanda* (U., I.Sulton).

Ba'zan atov gaplar matn oxirida keladi va fikrning bevosita davomi sifatida yakun, xulosa bo'lib xizmat qiladi: *Mamatqul bir kechada g'oyib bo'ldi, ana xolos! Salim akaning uyini ship-shiydam qilib ketishibdi, ana ozor, ana sharmandalik* kabi.

Atov gaplar so'zlashuv uslubida juda kam qo'llanadi.

Vokativ gaplar ohang yordamida mazmuni murakablashgan, g'azab, achinish, ajablanish, shodlik, yalinish, ta'kidlash, o'pka-gina, ta'na, afsus kabi modal ma'nolar ifodalaydigan predikativlikka, intonatsion tugallikka ega bo'lgan ayrim gap tusidagi undalmalardir. Masalan, *Jallod!!! — dedi podshoh g'azab bilan. Suv qa'riga g'arq bo'layotgan kishi birgina so'z aytib ulgurdi: Yordam!!!* kabi.

Bu tip gaplarda ohangning roli beqiyos. Qiyoslang: *Anor* biroz xushi og'ib qoldi. *Anor!!! Xotini hayajondan baqirib yubordi. Anor, men keldim.*

Anor so'zi 1-gapda ega, 2-gapda vokativ gap, 3-gapda undalma vazifasida kelgan.

Infinitiv gaplar hayratlanish, ajablanish, istak, orzu, kuchli xohish, g'azab, noxushlik, norozilik kabi ma'nolarni anglatadi.

Infinitiv gaplarning hokim komponenti infinitiv bilan ifodalanadi. *Oyga uchish! Yulduzlarni ko'rish! Bu chinakam zavqli bo'lsa kerak. Sevish! bu insoniy fazilat-ku, axir kabi.*

Infinitiv gapda ham ohang muhim hisoblanib, bu ekspressiv nutq hosil qilishda ahamiyatli.

So'z-gapda fikr bir so'z — bo'linmas bir bo'lak orqali ifodalanishi bilan xarakterlidir: *Xo'p, bolam, aytaman, shoshma-shoshma, sabr qil, — dedi kampir. Uf, qush edim qanotimni qayirdilar...* (H.H.) kabi.

So'z-gaplar undov, inkor va tasdiq bildiruvchi so'zlar bilan ifodalanadi. Bir so'z bilan butun gap yoki fikr ifodalanadi: — *Ertaga kelasanmi? — Yo'q. Kitobni oldingmi? — Ha. Attang, bu xabarni o'zimiz yetkazmoqchi edim va b.*

Eh, uxu, oho, voh-voh, qo'y-e, barakalla, balli, ana xolos, yo'g'-e, xo'sh kabi undovlar, **yaxshimisiz, salom, rahmat, xayrli kech, oq yo'l, xush kelibsiz, kechirasiz, uzr, xayr, qulluq** kabi rasm-odat undovlari so'z-gap hosil qilishda faol ishtirok etadi va uslub uchun xizmat qiladi.

Gap bo'laklari nutq uslublarida qo'llanilishiga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Ega ko'pincha kishilik olmoshining I-II shaxslarida ifodalanadi. Bunda ega mantiq urg'usini olsa, doimo qo'llanadi. Aks holda shaxsi ma'lum bir tarkibli gap tarzida namoyon bo'ladi. Shaxsi noma'lum, shaxssiz gaplarda ham shunday.

So'zlashuv uslubida ega vaziyatga ko'ra nutqda ishlatilmaydi: *Keldi* (vokzalda bo'lsa, poyezd; aeroportda bo'lsa, samolyot kabi).

Kesim ham qo'llanishiga ko'ra o'ziga xos. Ot-kesim ko'pincha ilmiy va rasmiy uslublarga, fe'l-kesim esa so'zlashuv, badiiy, publitsistik uslublarga xos.

Qaratuvchi-qaralmish qurilmasi poeziyada, vazn-turoq talabiga ko'ra belgisiz qo'llaniladi: *Vatan tuprog'ini ko'zga surtaman, Aqling mog'or bosmaganmi?* va shu kabilar.

So'zlashuv uslubida egalik affikslari qo'llanmasdan, taalluqlilik belgisiz tarzda ifodalanadi: *Esimni tanibmanki, bizning xonadonda hech kim ayolga qo'l ko'tarmagan. Bizning o'g'ilning uyidan choy ichamiz (i+miz qo'llanmagan).*

So'zlashuv uslubida qaratuvchi affiksi **-ni** shaklida qo'llanadi: *Foydasi yo'q hozir gapirishni.*

Poetik asarlarda esa ba'zan **-n** shaklida uchraydi: *O'z xalqin tuprog'in muqaddas bilmoq kabi.*

So'zlashuv uslubida **-ni** affiksi **-di**, **-ti** shaklida ham uchraydi. Yozma yodgorliklar, mumtoz adabiyot va folklor asarlarida chiqish kelishigi shakli (**-dan**) **-din**, **-tin**, **-tan**, **-nan** ko'rinishlarida qo'llanadi.

Nutq uslublarining differensiyalashuvida so'z tartibining o'rni o'zgacha. O'zbek tili so'z tartibiga ko'ra asosiy ma'lumot tashuvchi qismi gap oxirida, yordamchi ma'lumot tashuvchi qismi esa gap boshida bo'ladi.

Shunga ko'ra yordamchi ma'lumot tashuvchi qism **tema**, asosiy ma'lumot tashuvchi qismi **rema** deb yuritiladi.

So'z tartibining bu kabi bo'linishi bir-biriga zid qo'yilmaydi. Aksincha, bir-birini to'ldiradi.

Gapda so'z tartibi sintaktik va uslubiy mohiyat kasb etadi: *Toshkent — O'zbekistonning poytaxti // O'zbekistonning poytaxti — Toshkent kabi.* Tartib uslubiy jihatdan gapning mazmun va grammatik tabiatini butunlay o'zgartirib yubormaydi. Odatda ega kesimdan oldin yoki, aksincha (inversion tartibda) bo'ladi.

So'zlashuv, badiiy va publitsistik uslublarga oid adabiyotlarda tartib o'zgarishi mumkin. Natijada nutqning ta'sirchan, emotsional bo'lishi ta'minlanadi:

Yodingdami, yoshligimiz,

Beqaror, beboshligimiz (qo'shiqdan).

To'ldiruvchi va kesim inversiyasi: *Rozimisizlar, polvonlar, Alining ish boshi bo'lishiga* (S. Ahm.).

Hol va kesim inversiyasi: *Ichimga chiroq yoqsa, yorishmasdi o'sha kunlari* (O.).

Odatda aniqlovchi aniqlanmishdan oldin keladi. So'zlashuv uslubida bu inversiyaga uchrashi mumkin: *Hech kimi yo'q sho'rlikning kabi.*

Poeziyada ma'lum talabalarga ko'ra tarkibli kesim ham inversiyaga uchraydi: *Bilmaganin o'rganib, Odamzod topdi kamol* (G'.G').

So'zlashuv uslubida ba'zan ajratilgan bo'laklar ham inversiyaga uchraydi: *Ertaga dekanatda yig'ilish bor, soat ikkida kabi.*

A.M.Peshkovskiy ta'kidlaganidek, har qanday teskari tartib matnda estetik jihatdan o'zini oqlashi kerak.

Ko'rinadiki, inversiya boy uslubiy imkoniyatlarga ega. Biroq undan o'rinli va to'g'ri foydalanish kerak.

Nutq jarayonida aytilayotgan fikrning tinglovchiga to'la yetib borishi maqsadida gap mazmuni yoki ayrim bo'laklar ma'nolariga qo'shimcha izoh, ta'kid va ma'lumotlar berish maqsadida kirish va kiritmalardan foydalaniladi.

Kirishlar ishonch, tasdiq, gumon, orzu- istak, umid, mamnunlik, taajjub, o'xshatish, taxmin ifodalaydi. Shuningdek, aytilayotgan fikrning kimga qarashlilikini, tartibini, avvalgi fikr bilan aloqasini ham bildiradi.

Kiritmalardan tushunarsiz va tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlar (dialektizm, professionalizm, termin, jargon, arxaizm, istorizm kabilar) ma'nosini izohlash, sharhlash, aniqlik kiritish maqsadida keng foydalaniladi.

Kiritmalarga ko'proq so'zlashuv uslubida murojaat qilinadi. Bu avvaldan shakllanmagan nutqlarda ko'rinadi. Masalan, *Biz (men va Muhiddin) ertaga yo'lga o'tlanamiz (Toshkentga ketayapmiz)* kabi.

Kiritmalar boshqa uslublarda ham o'ziga xos fikr bayon qilish vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Savollar:

1. Ifoda maqsadiga ko'ra gap turlari qanday uslubiy vazifalar bajaradi?
2. Inkor gapning uslubiy imkoniyatlari qanday?
3. Tasdiq gapning-chi?
4. Bir tarkibli gap turlari va ularning uslubiy qimmatini qaysilar?

Tayanich so'zlar:

Nominatsiya — atov, atash.

Vokatsiya — kuchli hayajon.

Infnitiv — hayratlanish, orzu, xohish kabilar.

Inversiya — o'rin almashinish hodisasi.

QO'SHMA GAP USLUBIYATI

Reja:

1. Bog'langan (teng aloqali) qo'shma gap uslubi-yati.
2. Bog'lovchisiz qo'shma gap uslubi-yati.
3. Ergash gapli (tobe aloqali) qo'shma gap uslubi-yati.
4. Ko'chirma gap uslubi-yati.
5. O'zlashtirma gap uslubi-yati.
6. Xulosa.

Bog'lovchili va bog'lovchisiz qo'shma gaplar, avvalo, uslub talabi bilan qo'llanadi. Masalan, ilmiy nutqda dalillar qiyoslanadi, fikr isbotlanadi. Bu publitsistik va yuridik manbalar uchun ham xos.

Ayiruvchi bog'lovchilar (**goh, dam, ba'zan, yoki** kabilar) gap mazmuni yoki qo'shimcha ma'noni tayin etishda muhimdir. Masalan,

Goh elkasida ko'tardi to'lqin,

Goh esa muzdek suv quydi boshimdan (E.V.).

Balki ustoz Oybekdek to'lib,

Yozajaksan yangi bir doston.

Balki Habib Abdulla bo'lib,

Sahrolarda ochajaksan kon (A.O.) kabi.

Bo'lishsizlik — inkor bildirgan gaplar ham bog'lovchili qo'llanadi. Bunda **na** bog'lovchisi ham o'z vazifasida, ham bog'lovchi vazifasida keladi: *Mening nomimga g'alati bir konvert chiqdi: na familiyasi bor, na ismi va na pochta muhri* (Asq. M.).

Qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalar muhim grammatik va uslubiy vazifa bajaradi.

Turli ma'no va uslubiy bo'yoq ifodalashda, sodda gaplarni chegaralashda, ayniqsa, ergash gapning nima maqsadda qo'llanganini ko'rsatishda bog'lovchilar muhim rol o'ynaydi.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning ifoda imkoniyatlari bog'lovchili qurilmalarga nisbatan ancha chegaralangan bo'ladi.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplar bosh gapi tarkibida ko'rsatish olmoshi bo'lgan qurilmalarda shakllanadi: *Maqsadim shu: yer yuzida tinchlik bo'lsin. Elda shunday naql bor: qari bilganni pari bilmas* kabi.

Antonim soʻzlar yordamida gaplar mazmuni aniqlanadi: *Yaxshi — oshini yeydi, yomon — boshini* (maqol) kabi.

Ayrim gaplarda boʻlaklar takrorlanishi mumkin:

Bunda bulbul kitob oʻqiydi

Bunda qurtlar ipak toʻqiydi (H.O.).

Bogʻlovchisiz shakllangan qurilmalar mazmunan uzviy bogʻliq boʻladi. Ular shunday joylashadiki, bir gap ikkinchisi uchun juda zarur qismga aylanadi, bir-birini talab qiladi¹³.

Umuman, bogʻlovchisiz qoʻshma gaplarda tasviriylik, boʻyoq, jozibadorlik kuchli boʻladi. Shu bois yengil oʻqiladi. Ayni zamonda, bogʻlovchili qoʻshma gaplarga sinonim boʻladi (bu haqda avvalgi mavzularda toʻxtalganmiz).

Ergash gapli (tobe aloqali) qoʻshma gaplar ham muhim uslubiy vazifalarni bajaradi. Gap mazmuniga aniqlik kiritadi, toʻldiradi, izohlaydi, taʼkidlaydi, va hatto, oʻrni bilan tasviriy vosita sifatida qoʻllanadi. Masalan, *Nur borki, soya bor. Odam borki, odamlarning naqshidir. Sezdimki, Nigora xafa* qurilmalarining *soya bor, odam bor, sezdim* qismlarida juda zarur, hukmni oydinlashtiruvchi boʻlak yetishmaydi. Buni gaplarning mantiqiy yoʻnalishi va qurilishi ham koʻrsatib turibdi: 1-gapga sabab holi, 2-gapga aniqlovchi, 3-gapga toʻldiruvchi zarur.

Baʼzan bosh gapda ifodalanmay qolgan boʻlak — nisbiy soʻz oʻrnini biror ergash gap kompensatsiya qiladi — qoplaydi.

Masalan, ega oʻrnida: *Hammaga maʼlumki (nima?), paxtaning sifati uning tezroq terib olinishiga ham bogʻliq.*

Kesim oʻrnida: *Gap shu (nima?): ertagayoq shaharga joʻnaysan.*

Toʻldiruvchi oʻrnida: *Sen sezdingmi (nimani?), ufqda bir narsa mavjlandi.*

Aniqlovchi oʻrnida: *Bir oʻlkaki (qanday?), tuprogʻida oltin gullaydi* (O.).

Hol oʻrnida: *Men osmonga qoʻl uzatganda (qachon?), Sayyoralar qoʻnar kaftimga* (E.V.).

Bu kabi qurilmalarda ergash va bosh gaplar maʼno jihatdan bir-birining zaruriy qismiga aylanadi, biri ikkinchisiz qoʻllanmaydi. Buning uchun qoʻshma gapni sodda gapga aylantirish kifoya: *Paxtaning sifati uning tezroq terib olinishiga ham bogʻliqligi hammaga*

¹³ Abdurahmonov G. Qoʻshma gap sintaksisi asoslari.—T.: Fan, 1958.—235-b.

ma'lum (yuqoridagi misollarga e'tibor bering) va b. Bu holat uslubiyatda **parallel qurilmalar** deb yuritiladi. Bosh gapning kesimi fe'l bilan ifodalansa, ergash gaplarga ko'proq talab bo'ladi.

Badiiy va publitsistik nutqda nisbiy olmoshli qurilmalar ko'p uchraydi. Ergash gap shaxs, predmet, o'rin, holat orasidagi munosabatni qiyoslash, ularga ma'lum darajada aniqlik kiritish uchun xizmat qiladi: *Kim ko'p o'qisa, u ko'p biladi. Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur* (Bobur).

Ba'zan **shu, shuni, u, unga, undan, u yerda, o'sha** kabi ko'rsatish olmoshlarini bosh gapda ifodalanmay qolgan bo'lak o'rnida qo'llash mumkin. Natijada bosh gap shaklan to'liq, mazmunan to'liqsizlik holatida bo'ladi: *Qayerda intizom bo'lsa, u yerda ish yaxshi ketadi. Nimani eksang, shuni o'rasan* (maqol) kabi.

Bunday gaplar sodda yoyiq gapga aylantirilganda, ergash gap bosh gapning olmosh bo'lagi o'rnini egallaydi. Qiyoslang: *Nimani eksang, shuni o'rasan — ekkang narsangni o'rasan* kabi.

O'zgalarning fikrini hech o'zgarishsiz ifodalash ko'chirma gap hisoblanadi. Ko'chirma gaplarda ham tugal fikr, his-tuyg'u ifodalanadi. Yozuvchi ba'zan ko'chirma gaplardan uslubiy maqsadlarda: personajlar xarakterini ochishda, ichki va tashqi dunyosini tasvirlashda foydalanadi.

Ko'chirma gap muallif gapi bilan birga keladi. Shunda to'ldiruvchi ergash gapga sinonim bo'ladi. Ko'chirma gapli qo'shma gapni uslub talabiga ko'ra turlicha qurish mumkin: *"Tilga ixtiyorsiz, elga e'tiborsiz" — degan edi Alisher Navoiy. Alisher Navoiy aytgan edi: "Tilga ixtiyorsiz, elga e'tiborsiz". Alisher Navoiy: "Tilga ixtiyorsiz, elga e'tiborsiz", — degan edi va hokazo.*

Uslubiy bo'yoq talabi va ta'sirchanlikni oshirish maqsadida ba'zan **ta'kidlamoq, uqtirmoq, e'tirof etmoq, qayd etmoq, eslatmoq, talab qilmoq, ogohlantirmoq, ta'riflamoq, so'ramoq, yolvormoq** kabi fe'llardan foydalaniladi.

Fikrni kuchaytirish, da'vat, ta'kid, eslatish maqsadida bosh gap tarkibida **-ki, -chi, -mi, -u** yuklamalari ham qo'llanilishi mumkin: *Aytdim-ku, boramiz deb. Qani ayting-chi, yukni qayerga olib borayapmiz?* kabi.

So'zlovchining kayfiyati, his-tuyg'usi, harakat va holati, mimikasini aynan berish maqsadida muallif tilida **kulimsiramoq, shod bo'lmoq, tabassum qilmoq, so'zini bo'lmoq, rad etmoq ma'qullamoq, bosh**

irg'amoq, taajjublanmoq, tasavvur qilmoq, nazarda tutmoq, eslatmoq, jerkimoq, kesatmoq, yuziga solmoq kabi fe'llardan foydalaniladi: *Anvar o'ylanib yana kulimsidi: — Sening fotihang bo'lmasin? Safar bo'zchi Mamatqulning so'zini bo'ldi: — Kimga yomonlabdi?* (A.Qodiriy) kabi.

Mazmunan bir-biriga yaqin bo'lgan ko'chirma va muallif gaplarini shaklan o'zgartirish va bir gapga keltirish mumkin.

Bunda mazmun saqlangan holda o'zlashtirma gap hosil bo'ladi: Ko'chirma gapning kesimi to'ldiruvchiga, egasi esa qaratqich aniqlovchiga aylanadi: *Donolardan biri aytgan edi: "Hech kimga yomonlik qilmagan odam elga yoqadi"* — *Donolardan biri hech kimga yomonlik qilmagan odam elga yoqishini aytgan edi* kabi.

Natijada ko'chirma va o'zlashtirma gaplar orasida sinonimiya — parallellik paydo bo'ladi.

Ko'chirma gap o'zlashtirma gapga ma'lum grammatik qonun-qoidalar va uslubiy talablar asosida aylantiladi.

His-tuyg'u kuchli ifodalangan gaplarni, so'z-gaplarni o'zlashtirma gapga aylantirish qiyin. Yoki gapni qayta qurishga, qo'shimcha vositalardan foydalanishga to'g'ri keladi. Qiyoslang: *U favqulodda quvonganidan «Suv, suv keldi!» dedi — U suv kelganligini ko'rib, quvonganidan favqulodda «suv, suv keldi» gaplarni aytib yubordi* kabi.

Savollar:

1. Bog'lovchili va bog'lovchisiz qo'shma gaplarning sinonimiyasida uslubning roli.
2. Ergash gapli (tobe aloqali) qo'shma gaplarning uslubiy qimmatini qaysilar?
3. Ko'chirma va o'zlashtirma gaplarning o'zaro sinonimiyasi qanday o'rinlarda namoyon bo'ladi? Uslub uchun nima beradi?

Tayanch so'zlar:

Parallellik — yondosh, turdosh hodisalar.

Bog'langan qo'shma gap — teng aloqali qo'shma gap.

Ergashgan qo'shma gap — tobe aloqali qo'shma gap.

Mimika — yuz harakati.

Jestikulyatsiya — gavda harakati

Pantomimika — so'zsiz harakat

I L O V A

Tilga ixtiyorsiz — elga e'tiborsiz.

Tiling bila ko'nglingni bir tut.

So'zni ko'ngilda pishqormaguncha uni tilga keltirma
va har nekim, ko'ngilda bor, tilga surma.

Ko'p demak so'zga mag'rurlik va ko'p yemak nafsga
ma'murlik.

Aytur so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt.

Alisher Navoiy

Nutqi-la hayvondan farq qilur odam,
Undan past foydasiz so'zlagani dam.

Hofiz Sheroziy

Har so'zning o'z joyi bor,
Har nuqtaning makoni.

So'z ichra mudom aql yashirindur,
So'z chimildig'-u, aql kelindur.

Aqlga ilm birlan bergil ko'mak,
Aql bu ilmga xaridor demak.

Bilarsen o'zingni juda ser aql,
To'lgan xumga ne ham sig'ar, yaxshi bil.

Sa'diy Sheroziy

Aytganing qaytarar ne desang toqqa,
O'rarsan har neki eksang tuproqqa.

So'z kuchidan yiqilur minbar ham, dor ham,
So'z kuchidan chiqar indan ilon — murdor ham.

Abu Shukur Balxly

Quloqdan dilingga gar kirmasa nur,
Sichqon kavagidan ne farqi bo'lur.

Boylıkdan kerilmoq aqlıdan nari,
Chunki u o'tkinchi bulut singari.

Abdurahmon Jomiy

Xayol bilimdan muhimroq

Albert Eynshteyn

Yoshligingdan keksalik uchun donolikni to'pla,
Chunki undan ishonchliroq bisot yo'q

Biant

Bilimlilik va donishmandlikni ayni bir narsa deb hisoblamang.

Pifagor

Insonni boylıq, pul-dunyo, amal emas, balki ilm ulug'laydi.

Ko'pincha til bilan yetkazilgan jarohat, qilich bilan yetkazilgan
jarohatdan og'irroqdir.

Lovillab yonayotgan olovni suv o'chirgani kabi nodon odamlardan
chiqayottan alangani hakim-u oqil odamlar so'ndirarlar.

Ey bo'tam, tilingni yomon so'zlardan saqla!

Yoki ilmi bo'l yoki ilmga tayanib ish tutadigan bo'l, laoyal ilmni
tinglab eshitadigan bo'l.

Ezgulıq, xayrli ishlarga astoydil kirish, ularni paysalga solib, keyin
qilarman degan o'ylardan voz kech, tafakkur va idrok bilan ish tut.

Ko'p ortiqcha so'zlashuv eshituvchini ranjitar.

Mahmud Zamahshariy

ADABIYOTLAR

1. Begmatov E., Boboyeva A., Asomiddinova M. Nutq madaniyati va adabiy norma. — Toshkent: Fan, 1973.
2. Begmatov E., Boboyeva A., Asomiddinova M., Umurqulov B. O'zbek nutqi madaniyati ocherklari. — Toshkent: Fan, 1988.
3. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. 3 jild. — Toshkent: 1997, 2000, 2002.
4. Doniyorov X., Yo'ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil. — Toshkent: Fan, 1988.
5. Ibrohimov S. Nutq madaniyati va adabiy talaffuz haqida. — Toshkent, 1972.
6. Костомаров В.Г. Культура речи и стиль. — Москва: 1960.
7. Karimov S. O'zbek tilining badiiy uslubi. — Samarqand: 1992.
8. Mahkamov N. Adabiy norma va pleonazm. — Toshkent: Fan, 1988.
9. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. — Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009.
10. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig'i. — Toshkent: G'G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2012.
9. Mukarramov M. Hozirgi o'zbek tilining ilmiy stili. — Toshkent: Fan, 1984.
10. Normurodov R. Shukur Xolmirzaevning badiiy mahorati. — Toshkent: 2003.
11. Omonturdiyev J., Omonturdiyev A. So'z qo'llash san'ati. — Termiz: 1994.
12. Omonturdiyev A. O'zbek nutqining evfemik asoslari. — Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2000.
13. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. — Toshkent: 1980.
14. Rustamov A. So'z xususida so'z. — Toshkent: 1987.
15. Samadov K. O'zbek tili uslubiyati. — Toshkent: O'qituvchi, 1991.
16. Solijonov Y. Nutq va uslub. — Toshkent: Cho'lpon, 2002.
17. Sultonsaidova S. O'zbek tili stilistikasi. — Toshkent: 2001.
18. Tojiyev Y. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyati asoslari. — Toshkent, 1994.
19. Tojiyev Y., Mallaboyev M. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyati asoslari. — Toshkent, 2006.

20. To'ychiyev B. Hozirgi o'zbek adabiy tilida sintaktik sinonimika. — Toshkent: Fan, 1988.
21. Umurqulov B. Lektor nutqi va badiiy til. — Toshkent: O'zbekiston, 1981.
22. Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. — Toshkent: 2003.
23. Umurqulov B. Badiiy adabiyotda so'z. — Toshkent: Fan, 2003.
24. O'rinboyev B. O'zbek tili so'zlashuv nutqi sintaksisi masalalari. — Toshkent: Fan, 1974.
25. O'rinboyev B., Soliyev A. Notiqlik mahorati. — Toshkent: O'qituvchi, 1984.
26. Shomaqsudov A. O'zbek tili stilistikasi. — Toshkent: ToshDU, 1974.
27. Shomaqsudov A. va b. O'zbek tili stilistikasi. — Toshkent: O'qituvchi, 1983.
28. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. — Toshkent: O'qituvchi, 1992.
29. Qo'chqortoyev I. Badiiy nutq stilistikasi. — Toshkent: ToshDU, 1975.
30. Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. — Toshkent, 1982.
31. Qilichev E. O'zbek tilining praktik stilistikasi. — Toshkent: O'qituvchi, 1985.
32. Hojiyev A.P. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. — Toshkent: ME, 2002.

MUNDARIJA

KIRISH. "O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyati asoslari" kursini o'rganishning maqsad va vazifalari. Notqlik san'ati tarixidan.....	4
Nutq madaniyati — lingvistik soha. Nutq madaniyati va boshqa fanlar.....	9
Nutq madaniyati tushunchasi	12
Nutq madaniyati — nutqiy faoliyat va nutqiy malakadir.....	17
Adabiy me'yor va nutq madaniyati.....	21
Nutqning asosiy sifatlari.....	25
Nutq odobi, nutq texnikasi	32
Uslubiyat haqida umumiy ma'lumot.....	34
Nutq uslubiyati.....	36
So'zlashuv uslubi.....	38
Rasmiy uslub.....	42
Ilmiy uslub	46
Publitsistik uslub (matbuot nutqi).....	48
Badiiy uslub	51
Leksik uslubiyat.....	53
Faol va nofaol lug'atga oid so'zlarning uslubiy xususiyatlari....	58
Emotsional-ekspressiv leksikaning uslubiy xususiyatlari	62
Grammatik uslubiyat.....	65
So'z turkumlari uslubiyati.....	69
Sintaktik uslubiyat. Sintaktik sinonimiya.....	76
Sodda gap uslubiyati.....	78
Qo'shma gap uslubiyati.....	87
I l o v a	91
Adabiyotlar:	93

**Omonturdiyev Anvar Jabborovich
Abduraimova Shohsanam Ismoil qizi**

O'ZBEK NUTQI MADANIYATI VA USLUBIYATI

**Universitet o'quv-uslubiy kengashining 2016 yil, 27-maydagi
yig'ilishining 10.2-sonli bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan**

**Mas'ul muharrir: B. Yo'ldoshev
Texnik muharrir: A. Sultanov
Musahhih: E. Xo'jaqulov**

**Terishga berildi 01.04.2016 y. Bosishga ruxsat etildi 13.06.2016 y.
Bichimi 84x108 1/32. 6.0 bosma toboq. Adadi 200 dona.**

**"Brok class Servis" MCHJ bosmaxonasida bosildi.
Manzil. Toshkent sh., Zargarlik, Segizbaeva, 10a-uy.**

